Oʻquv-mashgʻulot jarayonining muhim vositalaridan biri – tayyorlov mashqlar boʻlib, ular sportning koʻpchilik turlarida va musobaqa faoliyatiga tayyorgarlikning barcha bosqichlarida keng qoʻllaniladi, kurashchilarning mustaqil shugʻullanishlarining asosiy mazmunini tashkil qiladi. Yangi texnik-taktik vazifalarni oʻta tezkor yechish zarurati paytida yangi harakat vazifalarini tuzish uchun konstruktiv elementlarning funksiyasiga yetakchi mutaxassislar eʼtibor qaratishgan [1]. Ushbu mashqlar jarohatlanishlarni, yashash muhitining noqulay sharoitlarida kumulyativ samarani oshirish, boshqa negativ omillarning taʼsirini oldini olish uchun alohida ahamiyatga ega boʻldilar. Lekin yuqori malakali kurashchilarni musobaqa faoliyatiga tayyorlash strukturasida tayyorlov mashqlarni qoʻllash hozirgi vaqtga qadar yetarlicha oʻrganilmagan va maxsus adabiyotlarda kam koʻrsatilgan.

Mavjud adabiyotlardagi maʼlumotlar va zamonaviy kurashning rivojlanishini tahlil qilish, biz, agar oʻquv-mashgʻulot jarayoni strukturasida, malakali kurashchilarni tayyorlash bosqichiga bogʻliq holda, 50 dan to 67% ga qadar kontaktli tayyorlov mashqlar qoʻllanilsa, sportchilarning harakat va jismoniy tayyorgarliklari ancha darajada yaxshilanadi, ularda dolzarb jangovor axborotni tezkor qayta ishlash va adekvat jangovar harakatlarni qoʻllash qobiliyati ortadi, bu, birgalikda ularning musobaqa faoliyati natijalarini oshiradi.

Kurash texnikasining asosiy usullari koʻpchilik mualliflar tomonidan koʻp adabiyotlarda koʻrib chiqilgan. Texnikaning ushbu ishlab chiqilgan asoslariga tayangan holda, biz, shunday mashqlarni va ularni bajarish usullarini izladikki, ular minimum jihozlarni yoki qimmatbaho snaryadlarni talab qilsin, ularni mashgʻulot zalida, ochiq joyda va har xil iqlim sharoitlarida va yil mavsumlarida zaruriy samara bilan bajarish mumkin boʻlsin.

Mashqlarni bajarish usullari va vositalari, trenerlar ayrim mashqlarni aniq sportchi uchun oʻzgartira olishlari mumkin boʻlsin. Bizning fikrimizcha, biz oʻzimizning metodikamizda taklif qilganimizdan tashqari, sportchilarning malakasi va tayyorgarlik darajasiga bogʻliq holda mashqlarning sonini oshirish mumkin.

Har bir oʻtkazilgan tadqiqot amaliyotga kirib kelganda real boʻlib qoladi. Oʻylaymizki, har bir trener, ushbu yoʻnalishda ish olib borib va bizning metodikamizdagi u yoki bu mashqlardan foydalanib, ushbu sohada progressga erishishi mumkin va oʻz kurashchilarini oʻqitish va texnik-taktik mahoratini majmuali rivojlantirishni takomillashtirish uchun biron-bir yangilikni yaratishi mumkin.

Oddiy sport mahorati va bolalar sport maktablari uchun mashgʻulot ishlarining odatdagi rejalashtirilgan soatlari miqdoridan kelib chiqqan holda, tajriba guruhi yillik hajmni 1520 akademik soat (1140 astronomik soat), haftalik hajmni – 32 akademik soat (24 astronomik soat), kundalik hajmni – 4 akademik soat bajardi. Mashgʻulot ishining aksariyatini tayyorlov mashqlarni bajarish uchun vaqtini oshirish tomonga burish shundan iborat boʻldiki, har bir

kechki mashg'ulotda vaqtning 20 minutiga qadari qizib olish mashqidan olindi, chunki yengillashtirilgan xarakterdagi tayyorlov mashqlar qizib olish mashqining tabiiy davomi hisoblanadi. Yana 20 minuti mashg'ulotning asosiy qismidan olindi, shu vaqt miqdoriga juftliklarda ishlash vaqti ko'paytirildi. Jami tayyorlov mashqlarga kechki mashg'ulotlarda oyiga 40 minut bag'ishlandi [2].

Maxsus jismoniy tayyorgarlik bosqichida ham tezkorlik sport formasining to'planishiga va anaerob rejim sharoitida yurak-tomir tizimining adaptatsiyasi darajasini oshirish imkonini beradigan tayyorlov va maxsus mashqlar qo'llanildi. Maxsus tayyorgarlik bosqichida snaryadlarda ishlashda, individual texnik-taktik harakatlarni ishongan holda sherik bilan o'zlashtirish sharoitida texnik-taktik harakatlarning xilma-xil turlari qo'llanildi. Tayyorlov mashqlarning barchasi modeli darslar bo'yicha tarqatilgan bo'lib, ular o'z navbatida, haftalik sikl bo'yicha taqsimlangan. Haftalik sikllar, yillik sikl musobaqalarining taqvimiga bog'liq holda, tayyorgarlik bosqichlari bo'yicha taqsimlangan bo'lib, shu davrda tajriba o'tkazildi.

Pedagogik tajriba, yuqori malakali bir guruh kurashchilar (n=12 kishi) ishtirokida o'tkazildi, ularning ichida 2 nafari sport ustasi (SU), 7 nafari sport ustaligiga nomzod (SUN) va 3 nafari birinchi razryadli. Tajriba guruhi yillik hajmda 1520 soat, haftalik hajmda – 32 soat, kundalik hajmda – 4 soat bajargan [3].

Yil davomida ishlarning umumiy hajmini o'zgartirmasdan turib, biz, kundalik mashg'ulot faoliyatining aksentini, har bir mashg'ulotlarda tayyorlov mashqlarning miqdorini ko'paytirish tomoniga o'zgartirdik. Tayyorlov mashqlarning barchasi aerob rejimida o'tkazildi. Yillik tajriba davomida, biz, yuklamani taqsimlanishining berilgan sxemasidan tashqariga chiqmadik. Uning hajmi kamaymadi ham, ko'paymadi ham.

O'quv yilining boshida (sentabr) va uning yakunida (may) umumiy jismoniy rivojlanishni ko'rsatadigan nazorat o'lchovlari amalga oshirildi. Tajriba jarayonida, mashg'ulot jarayonini ancha sifatli va unumdor o'tkazish imkoniyatini beradigan yangi mashqlar kiritildi. Tajriba guruhi kurashchilari, biz mashg'ulot jarayoniga kiritgan mashqlarni ijro etishga katta qiziqish bilan qaradilar. Bir necha oydan so'ng, tajriba guruhining ko'pchilik kurashchilarining fikriga ko'ra, ular o'z tanalarini ancha epchil, usullarni bajarish paytida ko'pchilik texnik elementlarni yengilroq va bema'lol bajara boshlashganini his qilishgan. Bunday tajriba ishi bir yil davom ettirilgandan keyin, guruh texnik mahoratning yangi, ancha yuqori darajasiga chiqdi, barcha kurashchilar o'z harakatlarida ancha harakatchanroq, ancha tabiiy va koordinatsiyali bo'ldilar, o'zaro bellashuvlarda va rasmiy musobaqalarda usullarga tushib qolish ko'rsatkichi pasaydi.

Tayyorlov mashqlar tayyorgarlik bosqichlari bo'yicha taqsimlandi. MJT bosqichi uchun tayyorlov mashqlar guruhi qo'llanildi, ular ushbu tajriba guruhining har bir a'zosining individual texnik arsenalini ancha tezkor va

samarali o'zlashtirish va takomillashtirish imkonini berdi va shu bilan birga, UJT darajasini oshirdi.

1. Mutaxassislarining tajribasi va shaxsiy tadqiqotlari-mizning natijalari asosida, kurashchilarning texnik-taktik mahoratlarini, jismoniy va maxsus tayyorgarliklarini ancha stabil o'sishi uchun mashqlarni sikllar bo'yicha, tayyorgarlik bosqichlari bo'yicha shunday qo'llash maqsadga muvofiq, unda mashg'ulot jarayonining oldingi bosqichi keyingisiga ijobiy ta'sir qilsin.

2. Tayyorlov mashqlarning metodikasi, musobaqalarga tayyorgarlik bosqichlarini, umumiy jismoniy tayyorgarlikni, maxsus jismoniy tayyorgarlikni, maxsus tayyorgarlikni hisobga olgan holda tuzildi. O'quv-mashg'ulot mashg'ulotlari soatlarining miqdori, xuddi yuqori sport mahorati guruhlariniki kabi nazarda tutildi. Biz tomondan taklif qilingan tayyorgarlik vositalarining qayta taqsimlanishi, tajriba natijasida mashg'ulot ishi umumiy hajmining 67% ga qadar, tayyorlov mashqlar tizimi vositasida bajarish imkonini berdi. Birinchi va ikkinchi yil tajribalarining yillik rejasini to'liq hajmda bajarildi. Mashg'ulot mashg'ulotlarini tuzish paytida, quyidagi tashkiliy-metodik holatlar hisobga olindi:

- Mashg'ulot vositalarini ratsional tanlash;
- Mashqlarning soni va xarakteri;
- Dam olish pauzalari va sinovdan o'tuvchilarning tiklanishi xarakteri;
- Mashqlarni bajarish sur'ati;
- Mashqlarni bajarish usuli;
- Ko'pchilik mashqlarni bajarishning aerobli rejimi;
- Oldingi va keyingi mashqlarning birga bo'lishi imkoniyati;
- Tayyorlov mashqlarga ajratiladigan vaqtning umumiy miqdori [4].

3. MJT bosqichida qo'llaniladigan, texnik-taktik mahoratlarini takomillashtirishga yo'naltirilgan va aerob-anaerob rejimda bajariladigan mashqlar majmuasi, zamonaviy kurash bellashuvida zarur bo'lgan, kurashchining ishchanlik qobiliyatini va maxsus jismoniy sifatlarini oshirish imkonini beradi.

MT bosqichida qo'llaniladigan, usullarni tezkor bajarishga yo'naltirilgan mashqlar majmuasi, yuqori sur'atni va musobaqa rejimiga yaqin bo'lgan, minutiga 200 ta zarbaliq puls rejimini ushlab turish imkonini beradi.

Shakllantiruvchi tajribalarda tayyorlashning an'anaviy vositalarini, o'quv-trenirovka jarayonining har xil etaplari va bosqichlari uchun ishlab chiqilgan, kontaktsiz tayyorlov mashqlar bilan almashtirish zarurati asoslangan [5]. Yillik siklda tayyorlov mashqlarning 67% ni qo'llash, quyidagilarga olib keldi:

- kurashchilarning UJT, MJT va MT ko'rsatkichlaridagi natijalarni ishonarli o'sishiga ($R < 0,05-0,001$);
- sport natijalarini ancha ortishiga;

Tajriba davomida tajriba guruhidagi 12 nafar sinovdan o'tuvchidan 7 nafari sport ustasi normativini bajarishdi, sinovdan o'tuvchilarning barchasi respublika va xalqaro musobaqalarda sovrindor o'rinlarni egallashdi.

Adabiyotlar

1. Kerimov F.A. Kurash tushaman. -T.: 1990.
2. Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va usuliyoti. -T.: 2005.
3. Kerimov F.A. Kurash tushaman. -T.: 1990.
4. Матвеев Л.П. Основы общей теории спорта и системы подготовки спортсменов. –Киев: 1999.
5. Платонов В.П. Общая теория подготовки спортсменов в олимпийском спорте. –Киев: 1997.

REZYUME. Maqolada "Kurash" milliy sport turini qayta tiklashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Kurash bilan shug'ullanuvchi talabalarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, o'quv-mashg'ulot jarayonini tashkil qilish, musobaqa faoliyatini rivojlanishi an'analari bilan mos ravishdagi maxsus tayyorgarlik vositalarini tanlashga yangi metodik yondashuvlar tahlil qilingan.

РЕЗЮМЕ. В статье особое внимание уделяется возрождению национального вида спорта «Кураш». Проанализированы новые методические подходы к совершенствованию системы подготовки студентов, занимающихся борьбой, организации тренировочного процесса, выбора специальных средств тренировки, совместимых с традициями развития соревновательной деятельности.

SUMMARY. The article pays special attention to the restoration of the national sport "Kurash". New methodical approaches have been analyzed to improving the system of training students engaged in wrestling, organizing the training process, choosing special training tools compatible with the traditions of the development of competition activities.

NOMUTAXASSISLIK YO'NALISHI TALABALARINING INGLIZ TILIDAGI MATNLARNI TUSHUNISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK ASOSLARI

S.K.Koshayeva – *tayanch doktorant*

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: motivatsiya, kommunikativ, pedagogika, psixologiya, his tuyg'ular, yuqori daraja, faoliyat.

Ключевые слова: мотивация, коммуникативность, педагогика, психология, эмоции, высший уровень, деятельность.

Key words: motivation, communication, pedagogy, psychology, emotions, highest level, activity.

Motivatsiya ham mahalliy, ham xorijiy psixologik-pedagogik adabiyotlarning asosiy mavzularidan biridir. Motivatsiyaning ahamiyati inson faoliyatining manbalarini, uni faoliyatga undaydigan va uning xulq-atvorini belgilovchi omillarni tahlil qilishdadir. Psixologiyada motivatsiya inson hayotining murakkab ko'p darajali regulatori sifatida tushuniladi.

Ushbu tartibga solishning ongli-ixtiyoriy eng yuqori darajasi. Bir tomondan, motivatsiyani motivlar, ehtiyojlar, qiziqishlar, his-tuyg'ular, intilishlar, me'yorlar, munosabatlar va qadriyatlarini o'z ichiga olgan ko'p darajali va murakkab rag'batlantirish tizimi sifatida ko'rish mumkin. Boshqa tomondan, insonning xatti-harakati va faoliyatining ko'plab motivlarini hisobga olish mumkin, ular shaxs motivatsiyasiga kiradi va yetakchilik qiladi, shuning uchun motivatsiyaning ma'lum bir tuzilishini (masalan, tarbiyaviy) shakllantiradi. Mavjud psixologik-pedagogik adabiyotlarni hisobga olgan holda, biz hozirgi vaqtda faoliyatning muvaffaqiyatli bajarilishi ko'p jihatdan motivatsiyaga bog'liq ekanligi haqida nisbiy kelishmovchiliklar yo'qligini tushunamiz.

Har qanday faoliyatning yetakchi omili sifatida motivatsiyani o'rganish uzoq vaqt davomida mahalliy va xorijiy psixologlar tomonidan o'rganilgan. Motivatsiyani o'rganishning zaruriy shartlari sifatida faylasuflar Demokrit, Aristotel va Platon asarlarini ko'rib chiqish mumkin. Ular bilim va tajribaga ega bo'lish zarurligini ta'riflab, bu ehtiyojni harakatlantiruvchi kuch deb atashgan. O'sha davr tadqiqotchilari insonni muayyan harakatlarni amalga oshirishga nima undayotganini tushunishga va tushuntirishga harakat qildilar, ya'ni motivatsiya tuzilishini, uning rivojlanish xarakterini va harakat mexanizmlarini aniqlashga harakat qildilar.

"Motivatsiya" tushunchasi birinchi marta A.Shopengauerning "Yetarli sababning to'rt tamoyili" nomli maqolasida uchraydi. Shundan so'ng, bu atama inson va hayvonlarning xatti-harakatlarining sabablarini tushuntirish uchun psixologiyaga kirdi. Motivatsiya tushunchasi hayotiy maqsadlarga erishish uchun rag'batlantirishning paydo bo'lishini ta'minlaydigan omillar, mexanizmlar va jarayonlarning butun majmuasini o'z ichiga oladi. Amerikalik psixolog A.Maslou o'z tadqiqotida inson motivlarining barcha xilma-xilligini ma'lum bir mexanizmga muvofiq o'zaro ta'sir qiluvchi beshta ehtiyoj guruhiga bo'lish mumkin, degan xulosaga keldi [2].

Birinchi bosqichda fiziologik ehtiyojlar, ikkinchidan - xavfsizlikka bo'lgan ehtiyoj, uchinchidan - mehr va muhabbatga bo'lgan ehtiyoj, to'rtinchidan - hurmatga bo'lgan ehtiyoj, beshinchi darajada - o'z-o'zini anglash zarurati. Har qanday fanni, xususan, chet tilini o'rganishda ikkinchi darajali ehtiyojlar muhimdir, chunki faqat xavfsizlik muhitida materialni samarali o'zlashtirish mumkin.

Keyinchalik, to'rtinchi darajadagi ehtiyojlarni qondirish, bu o'z bilimi va ko'nikmalarini tan olish va hurmat qilishga loyiq malakali mutaxassis sifatida his qilish imkonini beradi. Beshinchi darajadagi ehtiyoj shaxsning 10 ichki o'sishini aks ettiradi.

O'quv jarayonida talabaning faoliyati zarursiz uyg'onmaydi, motivlar paydo bo'lmaydi va aniq maqsadlar qo'yilmaydi. Ta'lim motivatsiyasida o'qituvchi birinchi navbatda kognitiv ehtiyojga aylanadigan yangi taassurotlarga bo'lgan ehtiyojga tayanishi kerak. Uni faollashtirish va yanada ongli qilish muhimdir. Shunday qilib, kognitiv ehtiyoj ta'lim faoliyati va maqsadlarni belgilashga tayyorlikni ta'minlaydi.

Kognitiv motivatsiya deganda noma'lum bilimlarga qiziqish kognitiv faoliyat maqsadiga to'g'ri keladigan motivatsiya tushuniladi.

O'quv va kognitiv faoliyat kognitiv ehtiyoj va motivlarga asoslanadi va bu motivlarning rivojlanishi samaradorlik va ijodiy fikrlash qobiliyatining asosiy omili hisoblanadi. Kognitiv motivatsiya o'quv jarayonida eng muhim va samarali hisoblanadi. O'z navbatida, motiv har qanday faoliyatning asosi bo'lib, asosan shaxsning muayyan ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan muayyan xatti-harakatlarga ongli ichki intilishidir. Motivlarga keyingi boblarda batafsilroq qaytamiz. Motivatsiyaning nazariy asoslarini hisobga olgan holda biz ko'plab tadqiqotchilarning ishlariga murojaat qilamiz va misollar keltiramiz.

O'qituvchi va metodist T.Xatchinson nuqtayi nazaridan, "odamlar har qanday harakatni amalga oshirishdan oldin, ular buni qilishni xohlashlari kerak". Ushbu bayonot ta'lim faoliyatiga taalluqlidir, chunki talaba yangi materialni o'rganishdan oldin, uni bajarishga qiziqish va xohish bo'lishi kerak. Tadqiqotchi I.A.Jidaryan motivatsiya tushunchasini "shaxsning xatti-harakatlarining tashqi va ichki omillarini o'zaro bog'lashning murakkab mexanizmi bo'lib, u muayyan faoliyat shakllarini amalga oshirish usullarini, ularning yo'nalishi va yuzaga kelishini belgilaydi" deb ta'riflaydi [3].

O'z navbatida, I.A.Zimnyaya motivatsiyani inson faoliyatining, shu jumladan, kognitiv faoliyatning "tetik mexanizmi" deb ataydi. Bosqichma-bosqich, aniq va real natijalar motivatsiyani qo'llab-quvvatlaydi. Motivatsiyani turli yo'llar bilan ko'rish mumkin va shuning uchun turli yo'llar bilan talqin qilinishi mumkin. Bir holatda, motivatsiya shaxsning xatti-harakati va faoliyatini boshqaradigan va qo'llab-quvvatlovchi omillar majmuyi sifatida aniqlanadi.

Boshqa holatda, motivatsiya motivlar majmuyi nuqtayi nazaridan ko'rib chiqiladi. Motivatsiya, shuningdek, faoliyatning ma'lum bir turini aqliy tartibga solish jarayoni sifatida ham, muayyan faoliyat shaklining paydo bo'lishi va amalga oshirilishini belgilovchi mexanizm, shuningdek motivatsiya va ular bilan bog'liq faoliyat uchun mas'ul bo'lgan jarayonlar tizimi sifatida ham ko'rib chiqiladi.

Motivatsiya strukturasi o'rganishning asosiy jihatlari-dan biri B.Dodonov tomonidan taklif qilingan to'rtta tarkibiy komponentni aniqlashdir. Ushbu tarkibiy qismlarga faoliyatning o'zidan qoniqish, uning yakuniy natijasining shaxs uchun ahamiyati, rag'batlantiruvchi mukofotlarning faoliyatga ta'siri va shaxsga ta'sir etuvchi majburlash kuchi kiradi.

Motivatsiya muammosining murakkabligi va ko'p qirraliligi uning mohiyatini, tabiatini, tuzilishini, shuningdek, uni o'rganish usullarini tushunishga yondashuvlarning ko'pligini belgilaydi. Motivatsiya tarkibida akademik motivatsiya alohida o'rin tutadi. Psixologik va pedagogik adabiyotlarda ta'lim faoliyatining turli tasniflari keltirilgan. Shunday qilib, sovet psixologi L.S.Vygotskiy "trening rivojlanishni oldinga olib borishi kerak" deb ta'kidlaydi va ta'lim motivatsiyasini rivojlantirish muhimligini ta'kidlaydi, bu holda muvaffaqiyatli ta'lim faoliyati mumkin emas [1].

Motivatsiyani o'rganish hozirgi daraja va potensial istiqbollarni aniqlashga, shuningdek, rivojlanishning yaqin yo'nalishlarini aniqlashga qaratilgan. Ta'lim motivatsiyasini shakllantirishni maqsadga yo'naltirilgan deb boshlash mumkin, agar "o'qituvchi shakllanishning boshidanoq olingan natijalarni erishilgan daraja va oxirida

ko'zlangan maqsadlar bilan solishtirish imkoniyatiga ega bo'lsa". Psixologik-pedagogik adabiyotlarda "agar motivatsiya boshqarilmasa, uning regressiyasi yuz berishi, darajasining pasayishi va motivlar o'z samarasini yo'qotishi mumkin", deyiladi.

Motivatsiyani shakllantirish - bu o'rganishga salbiy munosabatning ijobiy o'sishi yoki yomonlashishi emas, balki "motivatsion sohaning tuzilishi va unga kiritilgan motivlarning murakkablashishi".

A.K.Markova o'z asarlarida motivatsiya tuzilishidagi asosiy tushunchalardan biri sifatida "tarbiyaviy ma'no" tushunchasidan foydalanadi. Tarbiyaviy ma'no shaxs tomonidan amalga oshiriladigan motivlardan iborat. Bu motivatsion sohaning asosi bo'lib, ta'lim faoliyatining turli jihatlariga e'tibor qaratiladi. Bundan tashqari, A.K.Markova ta'lim faoliyatida motivatsiyani shakllantirishning 6 darajasini belgilaydi. Motivatsiya tuzilishini tahlil qilishda to'rtta asosiy komponent aniqlanadi: motivatsion, maqsadli, kognitiv va hissiy.

Ta'limga bo'lgan munosabatga ko'ra quyidagi darajalar ajratiladi: - ta'lim faoliyatiga qiziqishning yetishmasligi, yetarli darajada nazorat qilinmasligi va o'zini past baholaydigan salbiy munosabat;

- passiv (neytral) munosabat, bunda yangi sharoitlarda passivlik va tashqi natijalarga nisbatan shakllanmagan motivlar namoyon bo'ladi;

- o'qituvchiga chuqur kognitiv qiziqish, yangi bilimlarni o'zlashtirish va berilgan vazifalarni bajarishni o'z ichiga olgan ijobiy (vaziyatli) munosabat;

- ijobiy (ongli) munosabat, bunda talaba mustaqil ravishda maqsad va motivlarni belgilaydi, yangi bilimlarni qo'llay oladi, o'z faoliyatini nazorat qiladi va baholaydi;

- ijobiy (shaxsiy) munosabat, bunda talaba o'quv va

Adabiyotlar

1. Самыгин С. И. Психология и педагогика для студентов вузов / С. И. Самыгин, М. А. Гулиев, Р. Х. Ганиева. 4-е изд. – Ростов-на-Дону: «Феникс», 2008. –С. 248.
2. Семиченко В. А. Психология творчества: учебное пособие / П. А. Просецкий, В. А. Семиченко. – Москва: «Прометей», 1989. –С. 82.
3. Колкер Л. М. Практическая методика обучения иностранному языку. / Л.М.Колкер, Е.С.Устинова, Т.М.Еналиева. – Москва: Академия, 2001. –С. 256.

REZYUME. Maqolada keng ma'noda motivatsiya shaxsning o'zagi bo'lib, u axloqiy munosabatlar, intilishlar va irodaviy fazilatlar kabi turli xususiyatlarni o'z ichiga olishi aniqlangan. Motivatsiya murakkab tuzilma bo'lib, unda turli motivlar o'zaro bog'liq elementlarning yagona tizimiga birlashtirilgan.

РЕЗЮМЕ. В статье мотивация в широком смысле представляет собой ядро личности, включающее в себя различные характеристики, такие как моральные установки, стремления и волевые качества. Мотивация представляет собой сложную структуру, в которой различные мотивы объединены в единую систему взаимосвязанных элементов.

SUMMARY. In the article, motivation in a broad sense represents the core of personality, including various characteristics, such as moral attitudes, aspirations and volitional qualities. Motivation is a complex structure in which various motives are combined into a single system of interrelated elements.

TEACHING GRAMMAR IN ESP CLASSES

S.Kurbaniyazova – a senior teacher

Z.Elmuratova – an assistant teacher

Nukus state pedagogical institute named after Ajiniyaz

Tayanch so'zlar: ESP. grammatika o'rgatish. deduktiv va induktiv yondashuvlar. kommunikativ yondashuv.

Ключевые слова: ESP, обучение грамматике, дедуктивный и индуктивный подходы, коммуникативный подход

Key words: ESP, grammar teaching, deductive and inductive approaches, communicative approach.

English plays a significant role in the contemporary modern life. English, especially as a second or foreign language, does not come spontaneously, it requires teaching and planned learning. The foundation of the English language is grammar. One of the challenges is undoubtedly teaching grammar to ESP students. It is certain that grammar has important roles in some aspects of ESP learning. The ability to perform the grammar knowledge in the language skills, such as reading, speaking, listening and writing, is necessary in ESP teaching. That is why grammar in ESP class is still essential element. Non-philological students of universities should master all English skills for their professional communication in their future jobs and in real-life situations. Efficient professional communication cannot take place without correct usage of grammar. Ignoring grammar rules may lead to misunderstandings or

kognitiv faoliyatda hamkorlikka intiladi, mas'uliyatni his qiladi va jamoaviy ish natijalarida ishtirok etadi, bilimlarni amaliyotda qo'llashga intiladi va guruh ishiga tayyorlanadi.

MDH davlatlari psixologi rus olimi E.P.Ilyin motivatsiyani insonga tashqi stimullar va ta'sirlar bilan bog'liq bo'lgan xatti-harakatlar va faoliyatning ichki belgilanishi deb hisobladi. U motivatsiya "tashqi ta'sirlarni ichki motivatsiyaga aylantiruvchi" aqliy jarayon ekanligini ta'kidladi [2].

O'quv faoliyati uchun motivatsiya tarkibida multimotivatsiya mavjud, chunki talaba faoliyati turli xil motivatsiya manbalariga ega. Psixologik va pedagogik adabiyotlar ta'lim faoliyati sohasidan kasbiy faoliyatga o'tish jarayonida motivatsiya muammolarini tushunish zarurligini ko'rsatadi, bu albatta, universitetda o'qish jihatlariga bog'liq va kadrlar tayyorlashning muhim vazifasidir. Kasbiy motivatsiya va e'tibor o'quv faoliyati tuzilmasida o'quvchilarning faolligiga, ularning yuqori o'quv natijalariga va o'quv jarayonida qiyinchiliklarni yengishda qat'iyatligiga yordam beradigan muhim omillardir. Talabalarning o'qishga munosabati ko'p jihatdan ular o'z mutaxassisliklari bo'yicha kasbiy tayyorgarlik kontekstida uning ahamiyatini qanchalik muhim baholashiga bog'liq.

Psixologik-pedagogik adabiyotlarda ta'lim motivatsiyasi tushunchasini o'rganib chiqib, shunday xulosaga kelish mumkinki, yondashuvlarning xilma-xilligiga qaramay, ko'pchilik mualliflar motivatsiyani shaxsning xatti-harakati va faoliyatini belgilaydigan psixologik omillarning murakkab majmui sifatida belgilaydilar. Motivatsiyaning muhim funksiyasi fanda keng e'tirof etilganligi sababli, ko'proq tadqiqotchilar o'quv jarayonida motivatsiya bo'yicha tadqiqotlarni amaliy qo'llashga e'tibor qaratmoqdalar.

even cause scientific errors. ESP students should be encouraged and motivated to study and master grammar because they find it interesting and think of it as a tool to facilitate vocabulary they learn in their ESP classes and other language skills. Grammar should be short and permanently adapted to the students' already acquired knowledge. The teacher's explanations of the grammar rules should be kept as simple and as clear as possible.

According to Thornbury, "Grammar is partly the study of what structures are possible in a language. Thus, grammar is a description of the rules that govern how a language's sentences are formed" [5:134].

Harmer defines grammar by saying "The grammar of a language is what happens to words when they become plural or negative, or what word order is used when we make questions or join two clauses to make one sentence

[3:67].” Grammar according to Rutherford, is “a necessary component of any language teaching programme” [4:86], and thus plays an important role in language teaching. However, the focus on grammar in language teaching was challenged with the emergence of teaching methodologies based on different learning theories. Such a challenge influenced not only the content and the curriculum in language teaching, but also the implication for teaching grammar. Thus a fresh look at grammar was necessary causing linguists and language educators to rethink the status of grammar in language teaching and learning. This led to a constant debate among language educators and linguists regarding the nature and type of grammar instruction, which affected the understanding of how grammar should be taught effectively for ESP learners. Some agreement exists that the most effective grammar teaching includes some deductive and inductive characteristics.

In general, there are two kinds of approaches to learning and teaching grammar. These are deductive approach and inductive approach. Despite the fact that deductive and inductive approaches have the common goal of teaching grammar they separate from each other in terms of way of teaching. The deductive method of teaching grammar is an approach that focuses on instruction before practice. When teaching deductively, a teacher gives students an in-depth explanation of a grammatical concept before they encounter the same grammatical concept in their own writing. The instruction usually involves a detailed explanation of the rules, forms, and contexts where the newly presented grammar can be used. After the lesson, students are expected to practice what they have just been shown in a mechanical way, through worksheets and exercises. Deductive teaching methods drive many students away from writing because of the tediousness of rote learning and teacher-centered approaches. For instance, a teacher writes examples of simple present and simple past sentences on the board. The teacher then proceeds to explain the differences between present and past in English. Once the lecture is complete, worksheets are handed out and students are asked to convert simple sentences from present to past. Benefits to the deductive approach are: time in the classroom is spent only on the language principle. Most materials can be easily taught this way. It encourages faster learning of material. Harmer noted that many lessons are built using the PPP (present, practice and produce) lesson structure. The deductive approach is considered to be a traditional, teacher-centered, focus-on-form instruction. This method has been widely used in many countries and most students with different backgrounds are familiar with this type of teaching. Harmer provided a considerable list of the advantages and disadvantages of the deductive approach. He noticed that it is time-saving, easier to process, includes examples, beneficial for adult learners with developed cognitive skills, and learners know what to expect in the classroom. On the other hand, he said that the deductive approach can affect younger learners negatively (e.g., difficult structures and terminology), teacher-centeredness of the method can decrease learners’ involvement and interaction, and learners must rely significantly on their memory [3:74].

Each method is based on different teaching approaches. For example, while grammar translation method is based upon deductive teaching, direct method relies on inductive teaching. According to Andrews, the audio-lingual method could be considered as a method where the grammar is taught both deductively and inductively [1:144]. To illustrate this, in the audio-lingual method drills are used as the basis of learning process. Students are engaged with drills

until they learn by heart them. During this process they are not provided with any information about grammar structures. However, the main objective of this method is to be able to speak accurately in target language. Thus, notwithstanding the fact that drills are taught inductively, learners need to memorize grammar items in order to speak accurately. According to Brown, “There may be some occasional moments, of course, when a deductive approach - or a blend between the two- is indeed more appropriate [2:251]”. For example, to teach the simple past tense, the teacher begins a conversation with a student. The teacher asks students to tell his last summer holiday. Student answers by using simple present tense as he has no information about past tense. Later, teacher corrects him by using past tense. Then, student repeats the correct sentence. After that teacher writes the past forms of some verbs on the board to make learners practice. In this process grammar is taught by using a deductive and an inductive approaches at the same time. It is deductive by the aspect of writing the past forms of the verbs on the board. It is also inductive since students practice the past tense by giving their own examples [2:253].

When it comes to the modern approaches another method of teaching grammar is to incorporate interactivity into lessons. Communicative Language Teaching (CLT) represents a method which backed up the idea that communicative competence was not limited to knowing grammar rules. The purpose of CLT is to enhance not only the sociolinguistic ability but also the linguistic ability of the students. It focuses on the structures which should be taught in an integrated way with the four skills such as listening, speaking, reading and writing. Students can have limited linguistic knowledge and still be successful communicators. One benefit of the Communicative Approach is that grammar lessons can be creatively integrated by using authentic materials such as videos, magazines, songs, and anything that raises students’ interest. It is necessary first to learn grammar and then apply them in communicative situations. To provide situations likely to encourage communication, as a tutor, co communicator, the teacher’s role is less dominant than in a teacher-centered method. Therefore, students are more responsible managers of their own learning. Additionally, grammar is one of essential resources in language which helps to communicate. Without any teaching of grammar, learners are not able to construct a sentence or to choose the words which ought to be placed. Brown suggests that language should be taught in communicative situations in order for learners to achieve communicative competence. Communicative competence is concerned not only with what is grammatical but what is appropriate in a given social situation. Without a complete knowledge of significant grammatical facts, learners are bound to have difficulty giving exact expression to their thought. So learners need to become acquainted with certain principles and rules. On the other hand, the deep approach to the CLT language depends on the belief that rules can be acquired unconsciously during performance on communicative situations, so it will be useless to teach grammar in advance and explicitly.

All things considered, grammar can not only help ESP learners construct more accurate sentences but also help learners use different structures to express thoughts in ESP communication occasions that are vital for ESP learners’ learning at the university as well as even lifelong learning. Therefore, grammar enables students to control the way they shape words into sentences and paragraphs. The challenge before a teacher is to choose the right approach or to integrate the concepts of different approaches in teaching grammar and the language.

References

1. Andrews S. Teacher Language Awareness. –Cambridge: «Cambridge University Press», 2007.
2. Brown H. D. Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy. Englewood Cliffs: Prentice Hall Regents, 1994.

3. Harmer J. Teaching and learning grammar. –London: «Longman»,1987.
4. Rutherford W. and Smith, M.S. Grammar and Second Language Teaching: A Book of Readings. –New York: «Heinle&Heinle»,1988.
5. Thornbury Scott. How to Teach Grammar. Longman. 1999.

РЕЗЮМЕ. Ushbu maqola ESP (ingliz tilini maxsus maqsadlarda o'rgatish) darslarida grammatikani o'rgatish bilan bog'liq. Grammatik bilim ESP o'rganish uchun grammatik kompetensivani rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Maqolada ESP darslarida grammatikani o'qitishning deduktiv va induktiv yondashuvlarining ahamiyati, muvaffaqiyatli o'rganishga ta'sir qiluvchi omillar nisbatida aks ettirilgan. Maqolada, shuningdek, ESP darslarida grammatikani o'rgatish uchun kommunikativ yondashuv (CLT) usulidan foydalanishning afzalliklari ko'rsatilgan.

РЕЗЮМЕ. В данной статье речь идет о преподавании грамматики на уроках английского языка для специальных целей (ESP). Знания грамматики играют важную роль в развитии грамматической компетентности при обучении ESP. В статье кратко отражена важность дедуктивного и индуктивного подходов преподавания грамматики на уроках ESP, факторы, влияющие на успешность обучения. В статье также показаны преимущества использования коммуникативного подхода (CLT) для преподавания грамматики на уроках ESP.

SUMMARY. This article deals with teaching grammar in ESP classes. Grammar knowledge plays important roles in developing grammar competence for ESP learning. The article briefly reflects the importance of deductive and inductive approaches of teaching grammar in ESP classes, the factors which influence successful learning. The article also shows the benefits of using CLT approach for teaching grammar in ESP classes.

“TEXNOLOGIK TA'LIM” YO'NALISHI BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI KASBIY PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLIGINI SHAKLLANTIRISHNING USLUBIY JIHATLARI

O.Yu.Qalandarova – o'qituvchi
Urganch davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: tayyorlik, rivojlanish, faoliyat, psixologiya, pedagogika, komponent, motavatsiya, kasbiy-pedagogik.

Ключевые слова: подготовка, развитие, деятельность, психология, педагогика, компонент, мотивация, профессионально - педагогический.

Key words: preparation, development, activity, psychology, pedagogy, component, motivation, professional-pedagogical.

“Texnologik ta'lim” yo'nalishi bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorligini shakllantirish jarayonini nazariy - uslubiy asoslash uchun oldin “tayyorlik” “rivojlanish”, “shakllantirish”, “faoliyat” kabi tushunchalarni o'rganishni talab qiladi.

Tayyorlik tushunchasining shakllanishida umumiy o'rta ta'lim maktabining o'rni katta. Unda falsafiy sabablik tushunchasiga no'anaviy yondashilgan bo'lib, unda inson o'zining ayni zamondagi faoliyatini konstruksiyalaydi va bu bilan yo'nalishni ko'rsatib, natijani oldindan ko'rib kelgusi faoliyatining, ya'ni kelgusi faoliyatlarga tayyorlikni eskizini yaratadi.

“Rivojlanish” tushunchasi falsafa, psixologiya, pedagogika va boshqa fanlarda keng o'rganilgan. Falsafa nuqtayi nazaridan rivojlanish “qonuniy o'zgarishlar natijasida obyektning yangi sifat holati uning tarkibi va tuzilishidir” [2:42]. Falsafaning ensiklopedik lug'atida “Rivojlanish” evolyutsiya, paydo bo'lish deb izohlanadi: “materiya va ongning qonuniy o'zgarishi, ularning umumiy xususiyati, oldindan mavjud bo'lgan, allaqachon tayyorlangan ammo o'zlashtirish mumkin bo'lmagan xususiyatlarni, holatini, qismlarni namoyon qilishdir” [2:32].

Rus olimlaridan I.P.Podaliy ikkita “shakllanish” va “rivojlanish” tushunchalarini solishtirib, rivojlanishni doimiy o'zgarishlar, bir holatdan boshqasiga o'tishlar, oddiydan murakkabga, pastdan yuqoriga ko'tarilishlar bilan bog'laydi va rivojlanishni “insonning son va sifat jihatdan o'zgarishi natijasi va jarayoni” kabi tushunadi [3:51-55].

Shunday qilib, faoliyat - subyektning faolligi bilan, uning atrofimizdagi voqe'larga maqsadli yo'naltirilgan, bu jarayonda shaxsning aqli, jismoniy, ma'naviy ehtiyoji qondiriladigan ta'siri bilan xarakterlanadi.

Zamonaviy psixologiyada insonning xilma - xil faoliyat turlariga, shu qatorda kasbiy faoliyatga tayyorlik muammosini o'rganish borasida juda katta tajriba yig'ilgan. Bir tomondan faoliyatga tayyorlik shaxsning avtomatik bajara oladigan sifatlarini deb qaralsa, ikkinchi tomondan, tajribalariga tayanib egallagan bilim va malakalari asosidagi kasbiy faoliyatdagi muvaffaqiyatlari va samaradorlikka erishish qobiliyati ham tushuntiriladi.

Sh.A.Do'stmuhamedova faoliyatga tayyorlik deganda: “o'ziga ishonib bajarilgan va samarador kasbiy faoliyatga bo'lgan qobiliyatni” tushunadi shaxsning shunday sifatiki, u o'z ichiga faoliyatning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatini tushunishni, faoliyatga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lishni oladi va uni bajarishga bo'lgan qobiliyatdir”.

Tashqi sharoitlarga faoliyat olib boriladigan vaziyatni, ichki sharoitlarga shaxsga xos bo'lgan doimiy ruhiy o'ziga xoslikni kiritadilar [1:102].

Malaka va mazkur faoliyat turiga nisbatan ijobiy munosabat komponentlarining o'zaro aloqasidan iborat murakkab bir butun ta'limdir”.

Yuqorida bayon qilinganlardan kelib chiqib, kasbiy tayyorlik deganda, nazariy va amaliy bilim, kasbiy ko'nikma, ijtimoiy munosabatlarni o'zaro aloqasida paydo bo'luvchi, kasbiy faoliyatga undovchi yo'naltirilganlikni yuzaga keltiruvchi shaxsiy yaxlit ta'lim tushuniladi.

Quyidagi fikrlardan kelib chiqib, texnologiya yo'nalishi bo'lg'usi o'qituvchilarining kasbiy - pedagogik faoliyatga tayyorligi bu - bo'lajak kasbiy faoliyat maqsadini anglashni ta'minlovchi yaxlit shaxsiy ta'limdir, kasbiy faoliyatdan foydalanishda o'zidagi irodaviy, idroki kuchini oldindan bilish, sharoitni baholash, zarur harakat usullarini egallash, kasbiy faoliyat natijasi va maqsadiga erishish uchun ichki kuchidan foydalanishdir.

Professionalizm tushunchasini ko'pincha kasbiy kompetentlik bilan solishtiriladi. Professionalizm deganda, kasbning shaxsga qo'yadigan talabi, mezonlari tushunilsa, kompetentlik deganda subyektni aniq bilim, ko'nikma va malakalar majmuini egallaganligi tushuniladi.

Kompetentli yondashuv masalasi bilan shug'ullanuvchi ko'pchilik mualliflar, kasbiy tayyorgarlikni talabalarining kasbiy tayyorligi bilan bog'lab o'rganadilar.

- motavatsiyalovchi (faoliyatga ijobiy munosabat)
- yo'naltiruvchi (faoliyatga oid bilimlar)
- ishini olib boruvchi (kasbiy faoliyatga oid ish usullarini egallaganligi)
- irodaviy (o'z o'zini nazorat qilish, harakatlarini boshqara olish)
- baholovchi (o'zining faoliyatga tayyorgarligini baholay olishi).

Motivatsion komponent deganda “o'qituvchida mavjud pedagogik faoliyat xislatlarini va u bilan bog'liq munosabatlarni, nazariy kasbiy - pedagogik bilimlar, amaliy, loyihalovchi, konstruktiv, muomulalilik, tashkiliy ko'nikmalar, o'z - o'zini anglash hamda, o'z shaxsining alohida tomonlari, o'z - o'zini rivojlantirish, ishga qiziqishi” tushuniladi.

Tayyorlikni komponentlarning birligi deb qarovchi qator zamonaviy tadqiqotlar ham mavjud. Motivatsion, layoqatlilik, fikrlashning kengligi, odatlanish komponentlar deb biladi.

-motivatsion component - innovatsion faoliyat miqiyosida kasbiy rivojlanishga intiluvchanligi, ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llashga munosabati va faoliyatidagi yangiliklarga qiziqishi bilan xarakterlanadi;

- kognitiv komponent bilim, ko'nikmalarning sifati, va ta'limdagi yangiliklarni bilish darajasi bilan xarakterlanadi;

-shaxsiy komponent, o'z - o'zini shaxs sifatida va innovatsion faoliyat yurita oladigan kasb egasi sifatida baholay olishi bilan xarakterlanadi;

-faoliyatlilik komponenti - nazariy bilimlarini amalda qo'llay olishi bilan xarakterlanadi.

1. Motivatsion - maqsadli komponent "Texnologiya" yo'nalishi bo'lajak o'qituvchilarining o'qishga bo'lgan ijobiy munosabatini shakllantiradi, kasbiy faoliyatga intilishini yuzaga keltiradi, kelgusi kasbiy faoliyatga maqsadli yo'nalishini shakllantiradi, hamda subyektning tashabbuskorligini shakllantiradi. Ushbu komponent kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan bilimlarni tushunishni, o'zlashtirishni, eslab qolishni bosqichma - bosqich tashkil qilish va uni kasbiy pedagogik faoliyatda qo'llash bilan tatbiq etilishi mumkin.

2. Refleksli-hissiy komponent kelgusi kasbiy faoliyatga ijobiy hissiy irodaviy kayfiyatni uyg'otadi, o'z - o'zini nazorat qilish qobiliyatini kuchaytirib kasbiy faoliyatni baholashga undaydi, bu komponent ish davomida fikrlash qobiliyatida, ijodiy yo'nalishli kasbiy-pedagogik xatti-harakatlarda orttirilgan bebaho tajribalarda shakllanadi.

"Texnologiya" yo'nalishi bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy- pedagogik faoliyatga tayyorligi muammosi bo'yicha mavjud ilmiy-tadqiqot ishlarning turli jihatlarini tahlil qilish quyidagi xulosalarga olib keldi.

Texnologiya" yo'nalishi bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy- pedagogik faoliyatga tayyorligini shakllantirish - bu bo'lajak kasb egasining o'z ishiga kelgusi kasbiy-pedagogik faoliyat maqsadini anglashni qamrab oluvchi shakllanish jarayonidir; kelgusi kasbiy-pedagogik faoliyat muammolarini samarali hal etishga imkon beradigan kasbiy komponentlar birligidir [5:58].

Quyida "texnologiya" yo'nalishi talabalarini kelgusu kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlikni shakllantirish talablari va tamoyillarini o'rganish mumkin bo'ladi. "Texnologiya" o'qituvchilarining kelgusu kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlikni shakllantirishning ko'p qirrali, murakkab muammolarini atroflicha o'rganiladi. O'qituvchining kasbiy kompetentligi va kasbiy- pedagogik

faoliyatining metodologik asoslari tahlilini o'tkazish biz uchun muhimdir

"Texnologiya" yo'nalishi bo'lajak o'qituvchilarining kasbiy- pedagogik faoliyatga tayyorligiga zamonaviy qarashlar, uning yaratuvchilik, ijodkorlik imkoniyatlarini ochishda aksiologik, tizimli, yaxlit, shaxsiy faoliyat, kompetentlik, kontekstlik kabi tushunchalarni o'zgartirishga va tushunishga metodologik yondashuvga tayaniladi [6:337].

"Texnologiya" yo'nalishi, bo'lajak o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi doirasida tizimli yondashuv zamonaviy ilmiy bilimning aloqasi bo'lgan yo'nalishi orqali tatbiq etilishi mumkin, tizimning rivojiga olib keladigan gumanitar va tabiiy ilmiy o'quv fanlarini bir xillashtirilishida umumilmiy tushunchalarni aniqlashda, ilmiy metodlarni universallashtirishda yuzaga keladigan natija va jarayon, yangi sifat ko'rsatkichi" sifatida ko'rsatiladi. Umumiy va texnologik fanlar aloqasini o'rnatishda, "Texnologiya" yo'nalishi, bo'lajak o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida umumkasbiy fanlari va gumanitar fanlararo aloqasida atrofddagi olamning obyektiv birligida, o'qitish va o'qish jarayonlari o'zaro aloqasida va har qanday faoliyat rivojidagi izchillikdagi o'zaro aloqa, birlik va izchillik haqidagi falsafiy tushunchalarga asoslanadi.

"Texnologiya" yo'nalishi, bo'lajak o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi pedagogik nazariya va amaliyotning birligi tamoyili o'rganilgan fanlar (ayniqsa, bir o'quv moduliga kirganlari) mazmuni aloqasini hisobga olgan holda tatbiq qilishni talab qiladi, hamda talabalarining individual, guruhdagi va mustaqil ishlarni tashkil etishdagi, ta'limiy muhitni va ta'limiy shakl va metodlaridan bir yo'la foydalanishni yaratish zaruratini tug'diradi.

"Texnologiya" yo'nalishi, bo'lajak o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorgarligining shakllanish jarayonida, umumkasbiy fanlarini o'qitishda ularning ta'lim oluvchilarning faoliyatini tashkil etishda ko'rinadigan o'zaro aloqasini tushunish muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalarni rejalashtirish, tashkil qilish, tahlil, o'z ishini nazorat baholash kabi faoliyatlari, maqsadlarini tanlashga o'rgatishda ushbu jarayonning ahamiyati katta [5:58].

Bayon qilinganlardan kelib chiqib, quyidagicha xulosa qilish mumkin – shaxsiy faoliyatli yondashuvning asosiy g'oyasi faoliyat bilan, biz o'rganayotgan "Texnologiya" yo'nalishi, bo'lajak o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorligining shakllanishi yuzaga kelishi va rivojlanishi vositasi sifatida bog'liqdir.

Adabiyotlar

1. Yo'ldoshev J.G., Usmonov C.A. Pedagogik texnologiya asoslari. -T.: "O'qituvchi", 2004. 102-b.
2. Jo'raev A.P. Bo'lajak kasbiy fanlar o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda dasturiy ta'lim vositalaridan foydalanishning pedagogik va psixologik asoslari. // Psixologiya. Ilmiy jurnal. № 3. -Buxoro: 2018. 42-32-b.
3. Введенский В.Н. Моделирование профессиональной компетентности педагога. Педагогика. 2003. №10. -С. 51-55.
4. Джураева Б.Р. Формирование педагогической культуры будущих учителей в процессе изучения дисциплин педагогического цикла. - Т.: «Фан», 2003. -С. 177.
5. Qo'yinov O.A. Kompetentli yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish texnologiyalari: ped. fan. dokt.... diss. - T.: 2019. 58-b.
6. Hamidov J.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarni tayyorlashda o'qitishning zamonaviy didaktik vositalarini yaratish va qo'llash texnologiyasi: ped. fan. dokt. ... diss. -Toshkent: 2017. 337-b.

REZYUME. Maqolada texnologik ta'lim yo'nalishi bo'lajak o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorligini shakllantirish, bo'lajak kasb egasining o'z ishiga kelgusi kasbiy-pedagogik faoliyat maqsadini anglashni qamrab oluvchi shakllanish jarayoni hisoblanishi haqida so'z boradi. "Texnologiya" o'qituvchilarining kelgusu kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlikni shakllantirishning ko'p qirrali, murakkab muammolari atroflicha o'rganiladi.

РЕЗЮМЕ. Формирование готовности будущих студентов технологического образования к профессионально - педагогической деятельности рассматривается как процесс формирования, включающий понимание цели будущей профессионально-педагогической деятельности будущего профессионала. Всесторонне изучены многогранные, сложные проблемы формирования готовности к будущей профессионально-педагогической деятельности учителей специальности "Технология".

SUMMARY. Formation of the readiness of future students of technology education for professional-pedagogical activity is considered to be a process of formation that includes understanding the purpose of the future professional-pedagogical activity of the future professional. Multifaceted, complex problems are thoroughly studied of the formation of readiness for future professional-pedagogical activities of "Technology" teachers.

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISHDA WEB-TEKNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

M.T.Mambetniyazov – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori*

Navoiy davlat konchilik texnologiyalari universiteti huzuridagi Nukus konchilik instituti

Tayanch so'zlar: Internet, Web-texnologiyalar, kompyuter va axborot, kasbiy tayyorgarlik, bo'lajak o'qituvchilar, zamonaviy ta'lim jarayon, axborotlashtirish.

Ключевые слова: Интернет, Web-технологии, компьютер и информация, профессиональная подготовка, будущие учителя, современный образовательный процесс, информатизация.

Key words: Internet, Web technologies, computer and information, professional training, future teachers, modern educational process, informatization.

Web-texnologiyalarning jadal rivojlanishi va internet tarmog'idan yuqori darajada keng foydalanish ta'lim tizimida qo'llanilayotgan pedagogik texnologiyalarning sifat jihatdan o'zgarishiga olib keldi. Bugungi kunda ta'limning eng ommabop shakli bo'lgan kunduzgi o'quv jarayoni bilan bir qatorda kompyuterga asoslangan o'quv vositalaridan keng foydalanish aralash ta'lim hisoblanmoqda. Shuni hisobga olgan holda Web-texnologiyalar asosida bo'lajak o'qituvchilar kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish metodikasi umumiy tayyorgarlik darajasi va yosh xususiyatlarining didaktik maqsadlarga ta'sir darajasini taqqoslash, umumlashtirish hamda vizual ma'lumotlar, animatsion tasvirlar, Web-resurslarni alohida ehtiyojli talabalarga intensiv moslashtirish asosida takomillashtirildi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonining "o'qituvchi-bo'lajak o'qituvchi" modeli "o'qituvchi-kompyuter-bo'lajak o'qituvchi" modeliga o'tmoqda. An'anaviy ta'lim yangi ta'lim texnologiyalari ta'sirida o'zgarib borayotganini ta'kidlash joiz.

Ta'lim sohasida Web-texnologiyalarning o'zni, shubhasiz, katta. O'quv jarayonida Web-texnologiyalardan yanada sifatli va samarali foydalanish uchun o'qituvchi yangi materiallarni taqdim etish, takrorlash, umulashtirishda o'quv bilish faoliyatiga mos multimediali texnologiyalaridan foydalanish bilan birlashtirish mumkin.

Key words: model, modeling, cluster, systems approach, civic upbringing, civic education, civic position.

Murakkab tashkil etilgan va uzoq muddatga cho'ziladigan jarayon sifatida akademik litseylarda huquqiy bilimlarni o'rganish jarayonida o'quvchi shaxsining faol

fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish model sifatida ko'rsatilishi mumkin.

Modellashtirish – bu bilim obyektlarini ularning model-lari bo'yicha o'rganish. Bu o'rganilayotgan sohaning to'liq manzarasini taqdim etish va nazariy-eksperimental izlanish-lar chegaralarini aniqlash imkonini beradi.

“Model” tushunchasi ko'plab tavsiflarga ega bo'lib, bu mavjud ta'riflarda o'z aksini topadi. V.M.Polonskiy “model”ni tizimning ba'zi muhim xususiyatlari – aslini aks ettiradigan obyektlar yoki belgilar tizimi sifatida talqin qi-ladi [1]; V.I.Zagvyazinskiy modelda asosiy narsa tizim el-ementlarining o'zaro bog'liqligi va ular o'rtasidagi munosabatlar ekanligi, munosabatlar esa o'rganilayotgan obyekt tuzilishiga o'xshash tuzilmani tashkil etishini ta'kidlaydi [2]; tadqiqot predmetining ma'lum tomonlarini, aloqalarini, funksiyalarini takrorlaydigan elementlar tizimi sifatida modelning shunga o'xshash ta'rifi V.V.Kraevskiy tomonidan taklif qilingan [3:120].

“Model” atamasining mavjud ta'riflari yuqorida keltiril-ganlar bilan tugamaydi, ammo bizning tadqiqotimiz kontekstida biz modelni asl obyekt va tadqiqotning adekvat shartlariga o'xshashlikning muayyan darajasiga ega bo'lgan maxsus ishlab chiqilgan andoza sifatida tushunish kerak, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Shu bilan birga, modellar tipologiyasi jarayon elementlarining tizimli tar-kibini aks ettiradi; tizim elementlarini qayta ishlab chiqadigan; tizim elementlari orasidagi bog'lanish xarak-teri; elementlar va umuman model (tizim) tomonidan ba-jariladigan funksiyalar; modelning ishlashi uchun shartlar.

Ye.S.Babunova [4]ning nuqtayi nazariga qo'shilgan holda shuni aytish mumkinki, modelning sifat mezonlari quyidagilar bo'lishi mumkin: aks ettirishning yangiligi (muammolarning intuitiv aks ettirilishi, ularning sifat tavsifi, tizimli takrorlanishi); tarqalish (umuman ijtimoiy-madaniy soha, ta'lim muassasasining turi); model yordami-da masalani ijodiy yechish darajasi (modelni qo'llash maqsadi aniqlangan, modelni qo'llashning turli jihatlarini bo'yicha bilimlar chuqurlashtirilgan).

2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning rivojlanish strategiyasida innovatsion klasterlarni, shu jumladan, ta'lim tizimida shakllantirish va rivojlantirishga katta ahamiyat beradi.

“Klaster” tushunchasining o'zi (so'zma-so'z “birgalikda o'sish”, “to'plash”, “tarmoq”) ma'lum xususiyatlarga ega mustaqil birlik sifatida ko'rib chiqilishi mumkin bo'lgan bir nechta bir xil elementlarning birlashuvini anglatadi [5].

E.R.Skornyakova [6:161-167] ta'lim klasteri o'zaro bog'langan obyektlar guruhlarini (ta'lim muassasalari, jamoat va siyosiy tashkilotlar, ilmiy maktablar, oliy ta'lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari, biznes tuzilmalari va boshqalar) o'z ichiga olgan muayyan muammolarni hal qilish va natijaga (mahsulot) erishish uchun innovatsion ta'lim faoliyati (ta'lim muassasasi) yadrosi atrofiga birlash-gan moslashuvchan tarmoq tuzilmasi ekanligini ta'kidlaydi.

Klasterni o'zaro bog'liq elementlar tizimi sifatida ko'rib chiqish maxsus ilmiy bilimlar va ijtimoiy amaliyot metod-ologiyasining yo'nalishi sifatida qaraladigan modelni naza-riy asoslash uchun obyektlarni tizim sifatida tadqiq qilish yotadigan tizimli yondashuvdan foydalanishga imkon be-radi.

Tadqiqot predmeti huquqiy-tarbiyaviy, tarixiy bilimlarni o'rganish jarayonida akademik litsey o'quvchilarining fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishning nazariy va metod-ologik asoslari hamda metodik ta'minoti bo'lib, u tadqiqot-ni obyektning yaxlitligini aniqlash, murakkab obyektning turli xil bog'lanish turlari va ularni yagona nazariy manza-raga keltirishga yo'naltirilgan (A.N.Averyanov, V.G.Afanasev, I.V.Blauberg, M.S.Kagan, V.N.Sadovskiy, E.G.Yudin va boshqalar) [7]. Tizimli bilish elementlarni tashkil etish tarkibi, tuzilishini sifatlash; tizimning tashqi aloqalarini va boshqalar qatoridagi rolini aniqlash; tizim-ni tuzilishi va funksiyalari dialektikasini tahlil qilish; tizim

rivojlanishining qonuniyatlari va tendensiyalarini topishni o'z ichiga oladi.

Fanda tizimli yondashuvning turli algoritmlari ajralib turadi. Masalan, Ye.G.Yudin tizimli yondashuvni qo'llashni quyidagi chora-tadbirlarini ilgari surgan: birinchidan, ma'lum bir elementlar to'plamini mahkamlash; ikkinchi-dan, ushbu to'plamning tashqi aloqalarini o'rnatish, tas-niflash va tizimning atrof-muhit bilan o'zaro ta'sirini aniqlash; uchinchidan, tizimning ichki aloqalarini o'rnatish va tasniflash va ular orasida tizimni tashkil etuvchilarini ajratish; to'rtinchidan, tartibni, tizimning tuzilishini ajratish; beshinchidan, tizim xulq-atvorining asosiy tamoyillarini tahlil qilish; oltinchidan, tizimni boshqarish jarayonini o'rganish [8:176].

V.G.Afanasev tizimli yondashuvni ilmiy tadqiqotda qo'llashning asosiy jihatlarini sifatida uning tizimli-komponentli, tizimli-tarkibiy, tizimli-funksional va tizimli integratsion jihatini ajratib ko'rsatadi [9].

M.S.Kagan tizimli yondashuvning metodologik kompo-nentlari sifatida tizimni uchta tekislikda o'rganishni ko'rsatadi: predmetli, funksional va tarixiy hamda bu uning fikricha, zarur va yetarlidir.

O'rganilayotgan tizim qanday komponentlar, quyi tiz-imlar, elementlardan iboratligini va bu elementlarning bir-biri bilan qanday bog'langanligini aniqlash – tizimli yon-dashuvning predmetli jihatini tashkil etadigan o'zaro bog'liq ikkita vazifadir.

Tizimning ichki va tashqi faoliyati mexanizmini ochib berish uchun tizimli yondashuvning funksional jihatini zarur va ahamiyatlidir.

Muayyan aniq tizimning kelib chiqishi, uning keyingi rivojlanishining mumkin bo'lgan istiqbollarini yoritish tiz-imli yondashuvning tarixiy jihatining mohiyati va mazmunidir [10].

Tizimli yondashuv algoritmlarining ko'rib chiqilgan variantlari bir-birini to'ldiradi va uning metodologik ji-hatlarini ochib beradi.

Nazariy asoslash bizga modellashtirishni tor va keng ma'nolarda ko'rib chiqish mumkin, degan xulosaga kelish-ga imkon beradi. Tor ma'noda modellashtirish – bu jarayon va hodisalarni bilvosita o'rganish usuli bo'lib, unda har xil turdagi modellar qo'llaniladi. Keng ma'noda model-lashtirish nafaqat modelni yaratish, balki uni o'rganish ja-rayonidir.

L.P.Karpushina va P.Yu.Sokolova [11] pedagogik mod-el haqida gapirar ekan, unda maqsadli (maqsad va vazifalar, tamoyillar), mazmunli, tashkiliy-jarayonli (shakllar, metodlar, texnologiyalar, vositalar, shartlar) va mezoniy-diagnostik komponentlarni ajratib ko'rsatishadi.

Bir qator majburiy komponentlar (ijtimoiy ahamiyatga egalik, maqsadlar, mazmun, faoliyat, amalga oshirish mex-anizmlari, shartlar va samaradorlik)ni o'z ichiga olgan ped-agogik modelning biroz boshqacha tuzilishini V.E.Shteynberg taklif qilgan [12:15-23].

I.F.Yarullin pedagogika oliy o'quv yurtlari talabalarin-ing fuqarolik mas'uliyatini shakllantirish modelida [13] quyidagi asosiy komponentlarni ajratib ko'rsatgan: maqsad-li, tashkiliy, mazmunli, samarali. Maqsadli komponent maqsad va vazifalar, tashkiliy komponent tamoyillar va shakllar, mazmunli komponenti mazmun, usul va vositalar, samaradorlik komponenti pedagogika oliy ta'lim muas-sasasi talabalarida fuqarolik mas'uliyatini shakllantirish mezonlari va darajalari bilan ifodalanadi.

Murakkab pedagogik jarayon sifatida akademik litsey o'quvchilarining fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish modelini ishlab chiqishga tadqiqotda alohida e'tibor qaratildi. Buning uchun Ye.Babunova, V.Shteynberg, I.Yarullin, A.Akramov, O.Abdug'aniev, Sh.Djumakulovlar tomonidan fuqarolik pozitsiyasi, kompetentligini takomillashtirish bilan bog'liq modellar tahlil qilindi.

Tadqiqot doirasida biz tomondan ishlab chiqilgan model (rasmga qarang) millat farzandi, fuqarolik jamiyati a'zosi va dunyo hamjamiyatining vakili sifatida shaxsni shakllantirish strategiyasini ("Ijtimoiy talab" bloki) amalga oshirishga yo'naltirilgan bo'lib, huquqiy-tarbiyaviy bilimlarni o'zlashtirish jarayonida akademik litsey o'quvchilarining fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishning taktik bosqichlarini o'zida ifoda etadi: propedevtik (maqsadli, funksional va metodologik bloklar), rivojlantiruvchi-reproduktiv (mazmunli va amaliy-texnologik bloklar), diagnostik-prognostik (refleksiv-baholash blok).

Modelda ijtimoiy talab sifatida turfa xil madaniyatli muhitda samarali faoliyat yuritishga layoqatli, hayotiy ko'nikmalarga ega shaxsni shakllantirish belgilab olingan. Mazkur ijtimoiy talab o'z navbatida huquqiy-tarbiyaviy bilimlarni o'zlashtirish jarayonida akademik litsey o'quvchilarining fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish maqsadini olg'a surish imkonini berdi.

Akademik litsey o'quvchilarining fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya jarayonlarining vazifalari sifatida quyidagilar belgilab olindi:

1) milliy o'zlikni anglashni tarbiyalash, milliy iftixor va dahldorlik tuyg'usini rivojlantirish;

2) o'z va jahon xalqlarining tarixi, madaniyati haqidagi bilimlarni tarkib toptirish;

3) o'z xalqi, tug'ilgan joyi, Vataniga, umuman olamga qadriyatli munosabatni rivojlantirish;

4) etnik, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tizimini shakllantirish, ular asosida qadriyatli orientatsiyani rivojlantirish;

5) ko'p madaniyatli muhitda ziddiyatlarsiz o'zaro munosabatlar asosida faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish (ijtimoiy va madaniy farqlarni bag'rikenglik bilan idrok etishga tayyorlik, tarixiy meros va madaniy an'analarga hurmat va ehtirom bilan munosabatda bo'lish), tanqidiy-analitik fikrlashni rivojlantirish.


Modelning metodologik bloki tizimli-faoliyatli, shaxsga yo'naltirilgan, insonparvar, kompetensiyaviy, aksiologik, etnomadaniy yondashuvlar hamda tizimlilik;

madaniyat bilan uyg'unlik, tabiat bilan uyg'unlik, samarali muloqot, lingvomadaniyatshunoslik, nazariya va amaliyotning birligi kabi tamoyillarni o'zida aks ettirgan.

Mazmunli blok fuqarolik pozitsiyasining mazmun-mohiyati bilan tavsiflanib, kognitiv, emotsional, aksiologik va faoliyatga doir komponentlarning o'zaro uyg'unlashuvini talab etadi.

Modelning amaliy-texnologik bloki akademik litsey o'quvchilarining fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishning dars va darsdan tashqari ish shakllari, an'anaviy hamda interfaol metod va vositalar, umumpedagogik texnologiyalardan (shaxsga yo'naltirilgan, loyiha, axborot-kommunikativ, muammoli-dialogli, o'yinli, etnopedagogik) foydalanishni ko'zda tutgan.

Refleksiv-baholash blokida akademik litsey o'quvchilarining fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish mezonlari va darajalarini o'zida aks ettirgan.



Akademik litsey o'quvchilarining fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishning pedagogik modeli

Adabiyotlar

1. Полонский В.М. Оценка качества научно-педагогических исследований. / В. М. Полонский. – М.: Педагогика, 1987. –С. 144.
2. Загвязинский В.И. Основа социальной педагогики. / В.И. Загвязинский; под ред. П.И. Пидкасистого. – М.: Педагогическое общество России, 2002. –С. 160.
3. Краевский В.В. Моделирование в педагогическом процессе [Текст]. / В.В. Краевский. // Введение в научное исследование по педагогике. –М.: «Просвещение», 1988. –С. 239.
4. Бабунова Е.С. Педагогическая стратегия этнокультурного воспитания детей 5-7 лет в условиях полилогического пространства дошкольного образовательного учреждения. –М.: «Академия Естествознания», 2012.
5. Данилов С.В. Кластерный подход в региональном образовании. / С.В.Данилов, М.И. Лукьянов. // Современные проблемы науки и образования. 2015. № 1-1.; URL: <http://www.science-education.ru/article/view?id=18896>.
6. Скорнякова Э.Р. Кластерная модель управления образовательным процессом в школе. // Государственное и муниципальное управление в XXI веке: теория, методология, практика. 2011. № 2. – С. 161-167.
7. Аверьянов А.Н. Системное познание мира: Методологические проблемы. / А.Н.Аверьянов. – М.: «Политиздат», 1985. – С. 263.
8. Юдин Э.Г. Системный подход и принцип деятельности. –М.: «Наука», 1978. –С. 392.
9. Афанасьев В.Г. Системность и общество. - М.: «Политиздат», 1980. –С. 368.
10. Каган М.С. Системный подход и гуманитарное знание. – Л.: Изд-во Ленинградского ун-та, 1991. –С. 383.
11. Карпушина Л. П. Моделирование процесса социализации детей и подростков в условиях этнокультурной образовательной среды [Текст] / Л. П. Карпушина, П.Ю. Соколова. // Современные проблемы науки и образования. 2011. № 1. Режим доступа: <http://www.science-education.ru/pdf/2012/1/5.pdf>.
12. Штейнберг В.Э. Исследовательские проекты (диссертации): логико-эвристические модели новых педагогических решений. /В.Э.Штейнберг, Р. В. Гурина. // Сибирский педагогический журнал. 2014. № 4. – С. 15–23.
13. Яруллин И.Ф. Формирование гражданской ответственности студентов педагогических вузов. –Казань: Татарское Республиканское издательство «Хэтер», 2011. –С. 183.

REZYUME. Ushbu maqolada yoshlarning fuqarolik tarbiyasi va fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishning olimlar tomonidan ishlab chiqilgan pedagogik modeli tahlil qilingan hamda biz tomondan ishlab chiqilgan pedagogik model va uning sifat mezonlari, asosiy komponentlari haqida soʻz boradi.

РЕЗЮМЕ. В данной статье анализируется разработанная учеными педагогическая модель гражданского воспитания молодежи и развития ее гражданской позиции и рассказывается о разработанной нами педагогической модели, ее критериях качества и основных компонентах.

SUMMARY. This article analyzes the pedagogical model of civic education of young people and the development of their civic position developed by scientists, and talks about the pedagogical model we developed, its quality criteria and main components.

КОГНИТИВЛИК БИЛАН ИНТЕЛЛЕКТНИНГ ПСИХОЛОГИК ТАҲЛИЛИ

Ж.С.Отенбергенов – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори, доцент

Ажиниёз номидаги Нукус давлат педагогика институти

Таянч сўзлар: педагог кадрлар, олий таълим муассасалари, билиш жараёнлари, идрок, интеллект, когнитивлик.

Ключевые слова: педагогические кадры, высшие учебные заведения, познавательные процессы, восприятие, интеллект, когнитивность.

Key words: pedagogical personnel, higher education institutions, cognitive processes, perception, intelligence, cognition

Маълумки, дунёда таълим соҳасидаги ҳамкорлик ишларининг жадаллашуви ва юқори сифатли таълимга ўтиш тенденциялари жаҳонда умум тан олинган кадрлар сари юз тутишни тақозо этмоқда. Жаҳон меҳнат бозорида жамият аъзоларининг мобиллигини ошириш, таълим муассасалари орасида рақобатбардошликни таъминлаш, турли давлатларда олий таълим битирувчилари дипломларининг тан олиншига эришиш, талаба ва профессор-ўқитувчиларнинг мобиллигини таъминлашга доир ягона баҳолаш тизимини жорий этиш жараёнлари, шунингдек, замонавий таълимни инсонпарварлаштириш, ахборотлаштириш, рақамлаштириш, таълимни тижоратлаштириш, технологиялаштириш, фундаменталлиги, дифференцияллашуви, стандартлашуви ва диверсификацияланиши сингари хусусиятлари билимли ва интеллектуал салоҳиятли кадрларга бўлган зарурлигини белгилаб беради.

Жаҳон таълим тизимида ижтимоий-гуманитар соҳаларга берилаётган эътибор, шахсни ривожлантиришга йўналтирилган таълим тизимининг, ўқув фанлари ва илмий йўналишларнинг ривожланиши, миллий менталитет ва миллий идентивикни сақлаган ҳолда таълим соҳасига инновацияларнинг кириб келиши ёшларга билим бериш парадигмасидан мустақил билим олиш, ўз-ўзини тарбиялаш, ўқиб-ўрганиш ва ўз-ўзини бошқариш асосида компетентли кадрлар сифатида шаклланиш парадигмасига ўтишга бўлган эҳтиёж вужудга келмоқда. Айниқса, олий таълим муассасалари битирувчилари таълимнинг пассив билим олувчиларидан фаол таълим субъектларига айлантиришга, шахсий ҳаётини ва касбий

стратегияларига эга билим ва амалий тажрибаларга эга кадрларни тайёрлашга доир изланишлар олиб борилмоқда. Бу эса ўз навбатида олий таълим муассасаларида ўз таълим траекторияларига эга, ўз-ўзини ривожлантириб боришга қодир, шахсий ва касбий сифатларга эга, натижаларга эришишнинг индивидуал стратегияларини мустақил белгилай оладиган интеллектуал-когнитив салоҳиятга эга кадрларни тайёрлашнинг дидактик тизимини ишлаб чиқиш долзарб аҳамият касб этади.

Республикамызда илм-фан ва ишлаб чиқаришнинг ривожланиш тенденцияларига мос таълимнинг мазмунини шакллантириш, ўқув жараёнларини ташкил этиш шакллари (индивидуал, фронтал, гуруҳли, дуал) мувофиқлаштириш, замонавий ўқитиш методлари, восита ва технологияларини самарали қўллаш, касбий ривожланишнинг индивидуал траекторияларини лойиҳалаш кўникмаларга эга ва унинг салоҳиятини ривожлантиришга доир шарт-шароитларни яратишга доир қатор илмий изланишлар олиб борилмоқда. Юртимизда “халқаро стандартлар асосида юқори малакали, креатив ва тизимли фикрлайдиган, мустақил қарор қабул қила оладиган кадрлар тайёрлаш, уларнинг интеллектуал қобилиятларни намоён этиши ва маънавий баркамол шахс сифатида шаклланиши учун зарур шарт-шароитлар яратиш” [2] олий таълим тизимини ривожлантиришнинг стратегик мақсадларидан бири сифатида белгиланиши бўлажак ўқитувчиларда ижодий салоҳиятни ривожлантиришнинг дидактик имкониятларини янада кенгайтириш зарурлигини кўрсатади. Бу эса ўз навбатида талаба-ёшларда когнитивлик ва интеллектуаллик жиҳатларини

ривожлантиришда энг аввало, уларнинг психологик аспекти аниқлашни талаб этади. Бизнинг назаримизда, билим интеллект билан, интеллект эса когнитив салоҳият билан бевосита боғлиқ. Буни биз бу борада олиб борилаётган кўплаб илмий-тадқиқот натижаларидан кўришимиз мумкин.

Таҳлиллар интеллект концепциясининг учта босқичи аниқланганлигини кўрсатади. Булар:

1. Биологик таҳлил. Бунда интеллект тафаккур кучи сифатида таҳлил этилади.

2. Педагогик таҳлил.

3. Интеллекта тузилмавий ёндашув [4].

Бизнинг назаримизда, когнитивлик билан интеллект бир-бири билан чамбарчас боғлиқ тушунчалар бўлиб, улар энг аввало, психология фанида илмий жиҳатдан асосланган билиш жараёнлари билан боғлиқ ҳисобланади.

Талабаларни интеллектуал-когнитив салоҳиятини ривожлантиришда америкалик психолог-олим Джером Брунернинг **когнитив назариясига** мурожаат этмасдан иложиси йўқ. У болаларни ривожлантиришда билиш психологиясини таҳлил этар экан, энг аввало ўқув материалларини **идрок этишга** алоҳида урғу беради. Олим болалардаги “эҳтиёжлар” билан уларнинг “қадриятли йўналишлари” янги материални идрок этишида муҳим ўринни эгаллашини, яъни **“болаларнинг бирон нарсани идрок этиши уларнинг ижтимоий тажрибасига боғлиқ”**лигини илмий жиҳатдан асослайди ҳамда илм-фанга **“ижтимоий перцепция”** тушунчасини киритади. Дж.Брунер ижтимоий перцепция (идрокнинг ижтимоий тажрибага бўйсунуши) кўйидаги учта элементни ўз ичига олишини аниқлайди. Булар:

1. Интеллектнинг структураси.

2. Перцептив фарз назарияси.

3. Интеллект.

Натижада болалар атроф муҳитни, яъни борлиқни амалий фаолият, муайян амаллар шаклида, образлар шаклида ҳамда сўзлар шаклида тасаввур қилишлари мумкинлигини илмий жиҳатдан асослаган [6]. Дж.Брунер бу назарияни яратишда асосан кичик ёшдаги болалар билан тажриба-синов ишларини олиб борган. Лекин талаба-ёшларда ҳам ўқув материалларини ўзлаштиришида айнан ушбу назария ишлайди. Чунки ўқув материали қанчалик қийин ва мураккаб бўлмасин, талаба уни энг аввало, идрок этади.

Когнитив салоҳият бевосита интеллект билан боғлиқ хусусият ҳисобланади. Психолог олимлар А.П.Лобанов ва Н.В.Дроздовалар амалий, яъни **ноакадемик интеллектни ривожлантиришнинг когнитив назариясини** яратишга ҳаракат қилганлар. Бунда улар қўллик, ижтимоий ҳамда ҳиссий интеллектлар назариясига асосланади. Тадқиқотлар жараёнида олимлар инсонларнинг бошқа жонзотлардан ўзларининг интеллектуал қобилиятга (Homo Sapience) эга бўлиши билан ажралиб туришини таъкидлаган ҳолда интеллектнинг тадқиқ этиш тарихини ўрганганлар [7]. Бу борада олиб борилган тадқиқотлар натижасида олимлар томонидан интеллектнинг кўплаб туларининг ажратилганликларини кўриш мумкин. Масалан когнитив интеллект, амалий интеллект.

Маълумки, ҳар бир талаба ўзига хос интеллектуал-когнитив салоҳиятга эга. Интеллектуал-когнитив салоҳият психология ва педагогика фанининг қонуниятлари билан боғлиқдир. Психология фанида исботланган аксиома ҳисобланган билиш жараёнлари (идрок, хотира, тафаккур) энг аввало, когнитив психологиянинг ютуқларидан бири ҳисобланади. Бугунги талаба ахборотлар макони ва медиа давр ёшлари ҳисобланади. Талабалар ахборотлашган жамиятдаги барча маълумотларни, шу жумладан, таълим-билим олишга доир янги ахборотларни ҳам ўз психикасида акс эттириб боради. Когнитив

психологиянинг қонуниятларига кўра янги ахборотлар инсонларнинг психикасида **муайян қондалар ва алгоритмлар** ёрдамида амалга оширилади. Яъни, когнитив психологияда билишга доир жараёнлар ўрганилиб, натижага эришиш учун нималарга эътибор қаратиш лозимлиги, “сабаб-натижа” алоқаларини йўлга қўйиш назарда тутилиб, инсоннинг психикасидаги жараёнлар асосий ўринни эгаллайди. Яъни, психологик нуқтаи назардан талабаларнинг янги ўқув материалларини эгаллашларида уларга берилаётган янги билим ва тушунчалар иккита моделларда ўзлаштирилишига доир илмий ғояларнинг илгари сурилганлигини кўриш мумкин. Булар:

1. **Талабаларга берилаётган янги ахборотларни қайта ишлаш моделлари** ҳисобланади. Психология илмида ахборотларни қайта ишлашнинг бир қанча моделлари ишлаб чиқилган. Масалан, Г.Хоукстоннинг “Бир томонлама маршрут” модели алоҳида аҳамият касб этади. Бу моделда ахборотларни мантикий кетма-кетлик билан қайта ишлаш босқичлари назарда тутилган. Бунда “дастлабки манба (сенсорли стимул) + кейинги босқичларга ўтиш учун таҳлил қилиш ва баҳолаш босқичи + дастлабки блокдаги маълумотларни интерпретацияларини қайта ишлаш”дан иборат учта босқич амалга оширилади [9]. Шунингдек, Крик ва Доджлар томонидан яратилган “ахборотларни қайта ишлашнинг когнитив усули”да ҳам ахборотларни идрок этиш, ахборотларни интерпретациялаш, мақсадни аниқлаш, мумкин бўлган жавоб ва амалларни қуриш, амалга ошириш ҳақидаги қарор қабул қилиш, ҳаракатни амалга ошириш сингари элементларнинг кетма-кетлигини сақлаган ҳолда ўқув материалларини янги ахборотлар сифатида талабаларнинг ўзлаштириб бориши мумкин. Чунки когнитив психологияда инсон психикасидаги жараёнларни тўғри ташкил этган ҳолда янги материалларни ўзлаштириш, яъни натижага эришиш йўллари излаш амалга оширилади. Бунда Джеймс Бэттманн томонидан яратилган “еттита босқичли модел” алоҳида аҳамият касб этади. Джеймс Бэттманн тавсия этаётган босқичлар ахборотларни қайта ишлаш қонуниятлари, мотивация, идрок этилганларни идрок этиш ва англаш, ахборотларни тўплаш ва баҳолаш, хотира, қарор қабул қилиш, сотиб олиш ва ўқишдан иборат бўлиб [5], агарда талабаларга ўқув фанларидан берилаётган янги билимлар уларнинг психикасида шу каби босқичларнинг кетма-кетлиги асосида амалга оширилса, таълимнинг сифат ва самарадорлигига эришиш мумкин бўлади. Негаки, билиш жараёнлари ўз-ўзидан шаклланиб қолмайди, балки улар янги билим, тушунча ва ахборотларни инсон онгида қайта ишлаш натижасида амалга ошади.

2. **Talabalarning intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirishda sun'iy intellekt modellari** ҳам муҳим ҳисобланади. Ахборотларни қайта ишлашнинг сунъий интеллект моделлари бўйича ҳам илмий изланишлар олиб борилган. Олимлар сунъий интеллект билан сунъий онгни бир-бири билан чалқаштирмаслик ёки уларни битта нарсга сифатида тушуниш мумкин эмаслигини таъкидлашади. Чунки сунъий интеллект сунъий дастурлар асосида яратилиб, улар онгсиз турда ҳам имитация қилиши мумкин [3]. Сунъий интеллект деганимизда эса инсонларнинг хатти-ҳаракатларини имитация қилишга йўналтирилган “ақлли” компьютер ёки машиналар тушунилади. Сунъий онг эса сунъий интеллект ва когнитив робототехника билан бевосита боғлиқ бўлиб, у атроф-олам ва воқелиқни субъектив идрок этишга йўналтирилади ва сунъий йўл билан яратилади. Сунъий онгнинг сунъий интеллектдан фарқли жиҳати унинг ўз-ўзини идентификациялаши билан характерланади.

Психологик нуқтаи назардан А.Г.Шмелёвнинг психодиагностика билан боғлиқ асарларида Дж.Гилфорд томонидан интеллектнинг кубсимон модели ишлаб чиқилганлиги ва бу модел “материал + операция + натижа”дан иборат эканлиги ҳақида маълумотлар келтирилган (SOI – Structure of the Intellect). Мазкур модел асосида креативлик концепцияси яратилган бўлиб, унда конвергент ва дивергент тафаккурнинг ўзига хос жиҳатлари таҳлил этилган. Шунингдек, Дж.Гилфорд томонидан креативликнинг параметрларини қуйидагича белгиланганлиги таҳлил этилган [8]. Булар:

- ноёблик (оригиналлик),
- семантик эгиловчанлик,
- образли адаптив эгиловчанлик,
- семантик спонтан эгиловчанлик.

Сўнгра у бу параметрларни янада такомиллаштирган ҳолда унинг олти та параметрини тавсия этади.

Хулоса қилиб шуни таъкидлаш жоизки, когнитивлик ва интеллект талабаларда ўз-ўзидан шаклланиб қолмайди. Бунинг учун ушбу категорияларнинг энг аввало инсон психикаси билан боғлиқ эканлигини англашимиз лозим. Ва шундан кейингина унга педагогик ёндашув асосида талабаларда интеллектуал-когнитивлик жиҳатдан юқори салоҳиятга эришишнинг йўллари, яъни олий таълим муассасаларининг таълим-тарбия жараёнларини ташкил этиш шакллари, методлари, восита ва технологияларини аниқлаш, танлаш, саралаш ва қўллаш мақсадга мувофиқдир.

Адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги Қонуни. (23.09.2020). // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 24.09.2020 й., 03/20/637/1313-сон.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги ПФ-5847-сон “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги Фармони. 2-илова Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 17 мартдаги ПФ-89-сон *Фармони таҳририда* — *Қонунчилик маълумотлари миллий базаси*, 18.03.2022 й., 06/22/89/0227-сон. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 09.10.2019 й., 06/19/5847/3887-сон.
3. Бирюкова Д. Когнитивная психология: определение, основные методы и идеи. <https://blog.cognifit.com/ru>
4. Богоявленская Д.Б. Психология творческих способностей: Учебн.пособие для студ. высш. учеб. Заведений. – М.: Издательский центр «Академия», 2002. –С.320. <http://old.step-into-the-future.ru/sites/default/files/articles-bogoyavl/BogoyavlPsihTvorSposob.pdf>
5. James R. Bettman. Information Processing Models of Consumer Behavior. JMR, Journal of Marketing Research (pre-1986); Aug 1970; 7, 000003; ABI/INFORM Global pg. 370. <https://people.duke.edu/~jrb12/bio/Jim/1.pdf>
6. Исследования развития познавательной деятельности. Под ред. Дж. Брунера, Р.Олвер, П.Гринфилд. Перевод с англ. М.П.Лисиной. – М.: “Педагогика”, 1971. –С. 392. [file:///C:/Users/User/Downloads/issledovaniya_razvitiya%20\(1\).pdf](file:///C:/Users/User/Downloads/issledovaniya_razvitiya%20(1).pdf)
7. Лобанов А.П. Практический интеллект: как и чему учить человека умелого: учебн.-метод. Пособие. / А.П. Лобанов, Н.В.Дроздова. – Минск: РИВШ, 2018. –С. 98. (Серия «Когнитивные практики»)
8. Основы психодиагностики. Учебное пособие для студентов педвузов. /под общей редакцией А.Г.Шмелёва. –Москва: Ростов-на-Дону: “Феникс”, 1996. -544 с. С.-200. https://pedlib.ru/Books/3/0243/3_0243-200.shtml#book_page_top
9. Houghton G., Zorzi M. Normal and impaired spelling in a connectionist dual-route architecture // Cognitive Neuropsychology. 2003. Vol. 20. -P. 115-162.

РЕЗЮМЕ. Мақолада юртимизда юқори малакали, креатив ва тизимли фикрлайдиган, мустақил қарор қабул қила оладиган кадрлар тайёрлашда билим ва интеллектнинг аҳамияти илмий асосланган. Когнитив-интеллектуал салоҳиятга эга педагог кадрларни тайёрлашда “когнитивлик” ва “интеллект” категорияларининг психологик аспектлари таҳлил этилиб, педагогик жараёнларда ушбу жиҳатларнинг ўрни белгилаб берилган.

РЕЗЮМЕ. В статье научно обосновано значение знаний и интеллекта в подготовке высококвалифицированных, креативных и системно мыслящих кадров, способных принимать самостоятельные решения в нашей стране. Проанализированы психологические аспекты категорий «когнитивность» и «интеллект» при подготовке педагогических кадров с когнитивно-интеллектуальным потенциалом и определена роль этих аспектов в педагогическом процессе.

SUMMARY. The article scientifically substantiates the importance of knowledge and intelligence in the training of highly qualified, creative and systemic thinkers capable of making independent decisions in our country. The psychological aspects of the categories of "cognition" and "intelligence" in the training of teaching staff with cognitive-intellectual potential are analyzed and the role of these aspects in the pedagogical process is determined.

ТАЛАБАЛАРНИНГ ЎҚУВ-БИЛИШ ФАОЛИЯТИНИНГ МУҲИМ НАТИЖАСИДИР

М.Е.Пазылова – педагогика фанлари доктори, доцент
Ажиниёз номидаги Нукус давлат педагогика институти

Таянч сўзлар: фаоллик, ўқув-билиш мотивлари, касбий қизиқиш, яратувчилик фаолияти, баҳс-мунозара, касбий майллик.

Ключевые слова: активность, учебно-познавательные мотивы, профессиональный интерес, творческая деятельность, обсуждение, профессиональные способности.

Key words: activity, learning motives, professional interest, creative activity, debate, professional inclination.

Талабалар ўқув-билиш фаолиятининг фаоллашуви уларнинг билимларни изчил ўзлаштиришлари ва билиш имкониятларини кенгайтира олишларига боғлиқ. Ўқув жараёнида ижобий натижаларга эришиш орқали бўлажак ўқитувчиларнинг ўқув-билиш фаолиятини ривожлантириш имкониятлари кенгайтирилади. Бунинг учун талабаларнинг ўқув-билиш фаолиятларининг муайян даражасини таъминлаш учун ўқув жараёнининг мазмуни, шакллари, воситаларининг оптималлигини ошириш, аждодларимиз томонидан қўлланилган самарали воситалар, методларни ўқув жараёни мазмунига сингдириш талаб этилади.

Талабаларнинг ўқув-билиш фаолиятлари халқнинг ижтимоий тажрибасини ўзлаштириш асосида бойиб, билим, кўникма, малакаларнинг талаба шахсий тажрибаси билан интеграциялашувини таъминлайди.

Бунинг учун талабаларда ўқув-билиш мотивларини шакллантиришга хизмат қиладиган таълим жараёнининг яхлитлигини таъминлаш лозим. Шу мақсадда ўқув жараёнининг босқичларини умумлаштирувчи модел сифатида тақдим этиш мумкин. Ушбу моделнинг асосини изланиш, ижодий, яратишга асосланган ўқув-билиш фаолияти ва креатив характердаги ўқув-билиш мотивлари ташкил этиши лозим. Бунда талабаларнинг эркин ижодий фаолият ва рефлексия билан шуғулланишларига имконият яратиш назарда тутилади.

Педагогик жараённинг яхлитлиги талабаларнинг муаммони ечиш истаги устувор бўлганда таъминланади. Яхлитлик ўрганилаётган ҳодисанинг ички бутунлигини ифодалайди. Мазкур яхлитлик унинг тизимини ташкил этувчи бирликлари, таркибий

яхлитлиги, барқарорлиги, мослашувчанлиги, мустақиллиги, ўзига хос сифатларининг мавжудлигида намоён бўлади.

Юқоридагилар асосида, биз инвариант шарт-шароитларни яратишга муваффақ бўлдик. Бўлажак ўқитувчиларнинг ўқув-билиш фаолиятларини фаоллаштириш имконини берадиган мотивларга таянган ҳолда муайян шарт-шароитларни аниқладик [2].

Касбий қизиқишлар - талабаларнинг ўқув-билиш фаолиятини ривожлантиришнинг асосий мотиви ҳисобланади. Ўқув материалларини танлаш жараёнида ўқитувчи ушбу омилни ҳисобга олиши лозим. Талабалар кундалик ҳаётда ечишлари зарур бўлган муаммоларга дуч келганларида уларнинг таълим мазмунига бўлган қизиқишлари ортади. Бунда талабаларнинг манфаатлари қизиқишлари билан уйғунлашади. Демак, педагогиканинг назарий муаммоларига бағишланган аждоқларимизнинг меросини мавзулар доирасида талабаларга тақдим қилиш самарали натижа беради. Шунингдек, устоз-шогирд муносабатларига бағишланган семинарлар, конференциялар ва давра суҳбатлари ҳам ташкил қилиш мақсадга мувофиқдир. Бўлажак ўқитувчиларда турли-туман педагогик таълимотларни баҳолаш кўникмаси танқидий тафаккурни шакллантириш орқали тарқиб топтиради.

Аждоқларимиз меросини таҳлил қилиш натижасида талабаларда ўз-ўзини баҳолаш, мустақил ривожланиш, жамоада ишлаш, ўз фаолиятини таҳлил қилиш, тизимли тарзда ижодий фаолият кўрсатиш кўникмаларини эгаллаш тажрибасини ҳосил қилишга муваффақ бўладилар.

Ўқув-билиш фаолиятининг ривожланишида бўлажак ўқитувчининг *яратувчилик фаолияти* асос яратади. Бунда факатгина мусобақаланиш эмас балки бошқа мотивлар ҳам йўналтиради. Талабаларнинг яратувчилик фаолиятига ундовчи, ўқув-билиш фаолиятини ривожлантиришда аждоқларимиз томонидан кенг қўлланилган суҳбат, диалог, бахс-мунозара методларини ҳам келтириш мумкин. Билим ва кўникмаларининг чуқурлигини намоён қилишда талабалар мойил бўладилар. Ижодий характердаги машғулотларда ва мустақил изланиш жараёнида талабаларнинг яратувчилик фаолиятининг намоён бўлишини кўришимиз мумкин.

Баҳс-мунозарага асосланган машғулотларда бўлажак ўқитувчиларнинг шахсий-касбий нуқтаи назари намоён бўлади. Бундай баҳс-мунозараларни кичик гуруҳларда ташкил этиш мумкин. Ҳар бир гуруҳ ўзининг мустақил қарашларини баён қилиб, яратувчилик кўникмаларини намоён этади.

Ҳар қандай фикрий фаоллик талабаларни ранг-баранг ўқув фаолиятларини бажаришга ундайди. Бундай машғулотлар педагогик фаолиятга алоқадор бўлган вазифаларни бажариш кўникмаларини ҳосил қилишга кўмаклашади.

Машғулотларда ўқитишнинг интерактив методларидан фойдаланиш талабалар орасида муваффақият қозонишга асосланган муҳитни шакллантиришга хизмат қилади. Бундай дарслар таълим оловчилар фаолиятининг ранг-баранг шакллари кўллаш имконини беради. Муҳокама қилинаётган мавзунинг таянч асосларига эътибор қаратилишини таъминлайди.

Педагогика туркум фанларини ўзлаштириш жараёнида муаммонинг турли жиҳатларига эътибор қаратиш имконини беради. Бу қуйидаги ҳолатлар билан боғлиқ ҳолда амалга ошади:

1. Талабаларга аждоқларимизнинг педагогик таълимотлари билан замонавий педагогик ёндашувлар орасидаги алоқадорликни изоҳлашга оид топшириқлар

берилади. Ижодий топшириқлар дидактиканинг турли бўлимларини ўрганиш жараёнида талабаларга тақдим этилади. Бу эса бўлажак ўқитувчиларнинг ижодий имкониятларини кенгайтиришга кўмаклашади. Улар дидактика тарихига оид турли ёндашувлар устида ўйлайдилар, уларни замонавий педагогик қарашлар билан қиёслаб, самарали жиҳатларини асослашга муваффақ бўладилар [3].

2. Педагогик фаолиятга киришишга йўналтирилган мавзуларда эса бўлажак ўқитувчилар ўтмишда аждоқларимиз томонидан амалга оширилган педагогик фаолият билан инновацион характердаги педагогик фаолиятни ўзаро уйғунлаштиришга муваффақ бўладилар. Натижада бўлажак ўқитувчиларнинг эгаллаётган касбий фаолиятлари ҳақидаги тасаввурлари кенгайди.

3. Тарбия назарияси бўлимини ўрганиш жараёнида бўлажак ўқитувчиларга бир неча ёндашувлар тақдим этилиб, улар орасидаги ўхшаш ва фарқли жиҳатларни таҳлил қилишга оид топшириқлар берилади. Бундай топшириқлар бўлажак ўқитувчиларнинг педагогик фаолиятлари билан боғлиқ билимлари ва унинг турли компонентларини шахслараро муносабатлар тизими орқали уйғунлаштиришга кўмаклашади.

4. Ўқув-билиш майлларига эга бўлиш, уларнинг такомиллашуви талабаларда касбий фаолият моҳиятини аниқ тасаввур қилиш ва билимларни тезкор ўзлаштириш ҳамда истикболдаги касбий фаолиятида улардан фойдаланиш компетенциясини ҳосил қилади.

Шу тариқа мутафаккир аждоқларимиз томонидан яратилган педагогик таълимотлар бўлажак ўқитувчиларда касбий майлларни ҳосил қилиб, уларда ўқув-билиш фаолиятини ривожлантириш имконини беради. Мазкур ўқув-билиш фаолиятлари эса бўлажак ўқитувчиларнинг касбий фаолиятидаги сифат ва самарадорликни таъминлашга кўмаклашади.

Олий таълимни 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси [1] бўлажак мутахассисларни нафақат билимлар билан қуроллантириш, балки уларни ўқув-билиш фаолиятини ривожлантириш, тарихий тафаккурларни ривожлантириш, педагогик кадриятлар ёрдамида шахсий, касбий сифатларини шакллантиришни ҳам назарда тутди. Ўқув жараёни талабаларнинг ўқув-билиш фаолиятини фаоллаштирувчи жараён сифатида ташкил этилиб, унда бўлажак мутахассиснинг лойиҳалаштириш, бошқаришга оид компетенциялари шакллантирилади.

Шахснинг билиш фаоллиги тарихий-маданий бойликлар, халқнинг кўп асрлик кадриятлари негизида ривожланиши мутахассислар томонидан асослаб берилган. Талабаларнинг ўқув фаоллиги уларнинг ўқув жараёнига бўлган муносабатида намоён бўлади. Шу билан бир қаторда ўқув-билиш фаоллиги ўқув жараёнининг муҳим натижаси ҳисобланади. Фаоллик натижасида таълим оловчиларнинг барча қирралари намоён бўлади. Бу эса янги ҳодисаларни ўрганишга бўлган қизиқишни ифодалайди. Талаба ўз ютуқларидан завқланиш, ўқув жараёнига алоҳида қизиқиш билан ёндашиш, касбий қоидалар ва ўқув-билиш фаоллиги натижасида фаоллашади. Мазкур жараённинг сифат кўрсаткичи сифатида бўлажак ўқитувчининг ўқув-билиш фаоллиги эҳтиёж даражасига кўтарилади. Бундай даражада интилиш алломалар ҳаётида асосий жиҳатни ташкил этган.

Бўлажак ўқитувчиларнинг қизиқишлари муайян педагогик ҳодисаларни ўрганишга бўлган интилишнинг маҳсули ҳисобланади. Бунда талабанинг мустақил билим олиш ва ўз-ўзини ривожлантиришга бўлган интилиши муҳим аҳамиятга эга. Бўлажак ўқитувчилар касбий фаолиятни ўрганиш жараёнида ўз мавқеларини ва ҳаётини фаолиятлари қўламини аниқлашга муваффақ

бўладилар. Шуни алоҳида таъкидлаш керакки, кизиқишлар фаолиятга интилиш натижасида вужудга келса, эҳтиёжлар мустақил фаолиятга кўрсатишга бўлган кизиқиш натижасида шаклланади.

Талабалар ўз фаолиятларида илк бор намоён бўладиган билимларни алоҳида кизиқиш билан

ўрганадилар. Шу билан бир қаторда мазкур билимлар талабаларнинг тадрижий тарзда ривожланишини таъминлаб, уларда билиш фаолиятларини ривожлантиришга хизмат қилади. Шунга кўра талабанинг билиш фаолияти предмети ҳамда натижаси сифатида намоён бўлади.

Адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йилдаги 14 август “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида” ПФ-5847-сон Фармони.<https://lex.uz>

2. М.Е.Пазылова. Аждодларимиз меросини ўрганиш жараёнида талабаларнинг ўқув-билиш фаолиятини ривожлантириш механизми. Педагогика фанлари доктори (DSc). ... дисс. - Нукус. - 2022. 289 б www.ziyounet.uz

3. М.Е.Пазылова. Талабаларнинг ўқув-билиш фаолиятини ривожлантиришда дидактик воситалар ва рухий ўзига хосликларининг аҳамияти //Таълим ва инновацион тадқиқотлар. халқаро журнал. - Бухоро, 2022. № 4. – Б. 163-166. (ISSN2181-1709(P), ISSN 2181-1717(E) <http://interscience.uz>.

РЕЗЮМЕ. Мазкур мақолада талабаларда ўқув-билиш мотивларини шакллантиришга хизмат қиладиган таълим жараёнининг яхлитлигини таъминлаш, шунингдек, талабаларнинг эркин ижодий фаолият ва рефлексия билан шуғулланишларида имконият яратишда ўқув-билиш фаолияти ва креатив характердаги ўқув-билиш мотивларини ташкил этиш масалалари ёритиб берилган.

РЕЗЮМЕ. В данной статье рассматриваются вопросы обеспечения целостности образовательного процесса, служащего формированию у студентов учебно-познавательных мотивов, а также вопросы учебно-познавательной деятельности и организации учебно-познавательных мотивов креативного характера при создании возможностей для занятий студентами свободной творческой деятельностью и рефлексией.

SUMMARY. This article highlights the issues of ensuring the integrity of the educational process, which serves to form of learning motives in students, as well as creating opportunities for students to engage in free creative activity and reflection, and the issues of organizing learning activities and creative learning motives

RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILAR KREATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH MAZMUNI

Z.D.Rasulova – *pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent*
Buxoro davlat universiteti

Tayanch so‘zlar: kreativlik, kreativ kompetensiya, tafakkur, raqamli texnologiyalar, raqamli transformatsiya, elektron ta‘lim, ta‘lim muhitini raqamlashtirish shakllari, kreativ shaxs sifatleri, raqamli auditoriya, integratsiya.

Ключевые слова: креативность, творческая компетентность, мышление, цифровые технологии, цифровая трансформация, электронное обучение, формы цифровизации образовательной среды, качества творческой личности, цифровая аудитория, интеграция.

Key words: creativity, creative competence, thinking, digital technologies, digital transformation, e-learning, forms of digitalization of the educational environment, qualities of a creative personality, digital auditory, integration.

Kirish. Jahonda ta‘lim tizimini transformatsiyalash, raqamli texnologiyalarni ishlab chiqish va o‘qitish jarayonida qo‘llash, fanlarning metodik ta‘minotini takomillashtirish, talabalarning fanga oid kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish, darslarda animatsion, audio-visual vositalarni qo‘llash bo‘yicha tadqiqot ishlari olib borilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-sonli Farmonida oliy ta‘lim tizimi uchun elektron ta‘lim resurslarini yanada takomillashtirish, shuningdek, ichki va jahon ta‘lim resurslaridan foydalanishni ta‘minlash va talabalarni mustaqil, erkin fikrlaydigan kreativ shaxs sifatida tarbiyalash kabi ustuvor vazifalar belgilab qo‘yilgan [1]. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta‘lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta‘minlash, bu borada pedagog kadrlarning kreativlik va kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun yetarli shart-sharoitlar yaratish bugungi kunning dolzarb muammolaridandir.

Adabiyotlar tahlili. V.G.Lapin., F.J.Garsiya-Penalvolar ta‘lim jarayonlarida talabalarni tayyorlash sifatini ta‘minlashda ta‘limining innovatsion rivojlanishi o‘qitishning raqamli transformatsiyasini tahlil qildilar [5:56]. Olimlarning ta‘kidlashicha, raqamli texnologiyalar yagona mantiqda, turli axborot tizimlari o‘rtasida ma‘lumotlar almashinuvini ta‘minlaydi. Yu.V.Sharonin tadqiqotlarida oliy ta‘limda raqamli texnologiyalardan foydalanishning optimal yo‘llari tahlil qilingan. Uning ta‘kidlashicha, bitiruvchilarning kasbiy madaniyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun raqamli texnologiyalar imkoniyatlarini shakllantirishga qaratilishi kerak [8:7]. Kasb-hunar ta‘limida raqamlashtirishning

nazariy asoslari ko‘plab tadqiqotchilarning ishlari ko‘rish mumkin. Masalan, D.S.Burtsev, E.S.Gavrilyuk, D.I.Shaugaraevalar oliy o‘quv yurtlarida raqamli vositalardan foydalanishda o‘quv jarayonini boshqarish muammolarini o‘rgandilar [3:122]. O.V.Yevdokimova, A.N.Kolobov, Yu.A.Kulaginalar izlanishlarida “Kasb-hunar ta‘limida gumanitar fanlarni o‘qitishda raqamli texnologiyalarni qo‘llash muammolari o‘rganilgan [7:41].

Tadqiqot metodologiyasi. Oliy ta‘lim tizimida ta‘lim sifatini oshirishga qaratilgan raqamli o‘qitish platformalarini nazariy tahlil qilish, ularning imkoniyatlarini tahlil qilish asosida o‘quv jarayonini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash nazarda tutilgan. Raqamli texnologiyalarni qanday shaklda joriy etilishi bo‘yicha usuliy ko‘rsatmalar ifodalangan. Tadqiqot usullari sifatida oliy ta‘limda raqamli texnologiyalarni joriy etishga asoslangan raqamli auditoriya muhitini shakllantirish va tizimlashtirish, tashkil etish, kuzatish, nazorat qilish va taqqoslash orqali talabalar kreativ bilimlarining rivojlanganlik darajasini aniqlash.

Muhokama va natijalar. Oliy ta‘lim muassasalari axborot-ta‘lim muhitida turli xil texnika va vositalar yordamida bo‘ljak o‘qituvchilarda kreativ kompetensiyalarni rivojlantirishni ta‘minlaydigan kashf etilgan sohalar g‘oyasi asosiy qiziqish uyg‘otadi. Bitiruvchilarni kasbiy tayyorlash ko‘rsatkichlaridan biri ijodiy faollik bo‘lib, bu ulardan kreativ bilimlarni talab qiladi. Shunday ekan, kreativlik ta‘lim jarayonini tashkillashtirishni o‘zida mujassamlashtirib, kreativ ta‘lim jarayonini qurish, raqamli ta‘lim texnologiyalaridan foydalangan holda ijodiy salohiyatni rivojlantirish, turli uslublar, bilim va ko‘nikmalar muvozanatini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. Avvalo, shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish jarayonining umumiy mohiyatini to‘laqonli

anglash uchun dastlab “kreativlik” tushunchasining mohiyatini tushunib olish talab etiladi. Kreativlik (lot., ing. “create” – yaratish, “creative” – yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorgarlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyatidir. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi [6:72]. Demak kreativlikning mohiyatini quyidagicha tavsiflash mumkin, tafakkur insonning aqliy salohiyati bo‘lsa, kreativlik ana shu aqliy salohiyatni maqsadga yo‘naltirilgan tarzda erkin ishlata olish qobiliyati hisoblanadi, kreativ kompetentlik esa pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy yondoshish, o‘zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olishidir.

Bo‘lajak o‘qituvchilar kreativ kompetentligini turli innovatsion usullar, vositalar asosida rivojlantirish ta‘limning ustuvor vazifasi hisoblanib, maqola mazmuni ham aynan innovatsion ta‘lim muhitini yaratish bilan talabalarda kreativlik sifatlarini tarkib toptirishga qaratilgan. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar jamiyat hayotiga va zamonaviy inson hayotining turli sohalariga faol kirib bormoqda. Shunday ekan, talabalarda mustaqil ishlash ko‘nikmalarni shakllantirish, ularda ijodiy g‘oyalarni tarkib toptirishda o‘quv jarayonlarini raqamlashtirish maqsadga muvofiqdir.

Ta‘lim tizimini raqamlashtirishning muhim zaruriy sharti axborot-ta‘lim muhitini yaratishdan iborat bo‘lib, u quyidagi elementlardan tashkil topadi:


- texnik resurslar: kompyuterlar, planshetlar, mobil qurilmalar, tarmoqlar, videotizimlar, interaktiv ekranlar;
- ta‘lim resurslari: dasturiy ta‘minot, elektron-ta‘lim resurslari, axborot-tahlil portallari, masofaviy ta‘lim tizimlari, elektron kutubxonalar, bulut resurslari, vebinarlar, telekonferentsiyalar;
- jarayonlarni boshqarish: masofaviy ta‘lim, elektron pochta, ijtimoiy tarmoqlar, bulutdagi shaxsiy kabinet, ta‘lim shakllari va hokozalar.

Axborotdan foydalanish doirasi jamiyatning rivojlanish darajasini belgilaydi [2:34]. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, axborotlashtirish - bu vositalarni keng qo‘llash, ma‘lumotlarni yig‘ish, saqlash va uzatish, mavjud bilimlarni tizimlashtirishni ta‘minlaydi va bo‘lajak o‘qituvchilarda kreativ bilimlarni shakllantirish va ularni joriy boshqaruv uchun qo‘llashni nazarda tutadi.

Ta‘limning raqamli transformatsiyasi jarayonida hamma narsa yangilanadi:

Pedagogik usullar va o‘qitish texnologiyalari, chunki raqamli muhitdagi darslar an‘anaviy sinflaridan ko‘p jihatdan farq qiladi. Ko‘pgina ekspertlar bizning asrimizda ta‘limni raqamlashtirishsiz amalga oshirib bo‘lmaydi, degan fikrga qo‘shiladilar. R.Halverson, R.B.Shapirolar kompyuterlar va boshqa qurilmalarni raqamli vositalar bilan birgalikda ishlatish talabalarga faolroq rol o‘ynashga va o‘quv jarayonining markazida bo‘lishga ko‘proq imkon berishini ta‘kidlaydilar [4]. Ularning tadqiqotlari negizida raqamli texnologiyalar darslarni puxta o‘rganishni optimallashtirish kabi didaktik vosita sifatida rivojlanganligini tushunish mumkin.

Ushbu tadqiqot mazmuni raqamli auditoriya yaratish orqali talabalarni ijodkorlikka o‘rgatish va yaratuvchanlik qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan (Raqamli auditoriya). Raqamli o‘qitish uchun ijtimoiy media, multimedia va mobil telefonlar kabi elektron qurilmalar yoki platformalardan foydalanish orqali aniqlanadi. Raqamli auditoriya butunlay texnologiyadan foydalanish orqali o‘qitishga qaratilgan bo‘lib, talabalar noutbuklar, planshetlar va mobil qurilmalardan foydalanadilar.



Raqamli auditoriya xususiyatlari

Raqamli auditoriyaning xususiyatlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, raqamli auditoriya asosan talabalarga mustaqil o‘quv tajribasini yaxshilashga yordam berish, qayta aloqani yo‘lga qo‘yishga imkoniyat yaratadi. Talabalar uchun real vaqt rejimida fikr-mulohazalarini olishlari uchun zarurdir. O‘qituvchilar, talabalar, dars, guruh va hokazo kabi ko‘plab omillarga bog‘liq holda fikr-mulohaza bildirish uchun teskari aloqa zanjirlaridan foydalanishlari mumkin. Misol uchun (Video, ta‘lim jarayonida taqdimotlar, elektron ta‘lim usullari, onlayn treninglar) va boshqa raqamli yondashuvlardan ko‘proq foydalanishlari mumkin. Onlayn ta‘lim talabalarda kreativ fikrlashni rivojlantirishga sabab bo‘lishini ko‘rsatgan, ya‘ni talabalarining mustaqil ta‘lim olishiga, individual ehtiyojlarini inobatga olgan holda o‘quv jarayoniga moslashtirish qobiliyatini shakllantirishga asos bo‘ladi.

Yaratilgan raqamli ta‘lim muhiti o‘quv jarayonining har bir ishtirokchisi uchun o‘z vazifalarini bajaradi.

1. Talaba uchun:
 - ✓ innovatsion ta‘lim imkoniyatlarini kengaytirish;
 - ✓ eng zamonaviy ta‘lim resurslaridan foydalanish;
 - ✓ ta‘lim jarayonining shaffofligini oshirish;
 - ✓ ta‘lim jarayonining barcha ishtirokchilari bilan muloqotni osonlashtirish.
2. O‘qituvchi uchun:
 - ✓ katta hajmdagi hujjatlarni qayta ishlash yukini kamaytirish;
 - ✓ muntazam nazorat ish yukini kamaytirish, vazifalarni bajarish;
 - ✓ o‘quv jarayonini monitoring qilish qulayligini oshirish;
 - ✓ topshiriqlarni bajarishda talabalarni rag‘batlantirish uchun yangi shart-sharoitlarni shakllantirish;

Yuqoridagi xususiyatlardan kelib chiqib aytadigan bo‘lsak, raqamli texnologiyalar yaxshilanishga yordam beradigan kuchli vositadir ta‘limni turli yo‘llar bilan, masalan, o‘qituvchilarga o‘quv materiallarini yaratish qulayliklari va hamkorlik qilish uchun yangi usullarni taqdim etishni, talabalarga ijodkorlik va muvaffaqiyat tuyg‘usini beradi, qo‘shimcha rag‘batlantiradi.

O‘quv jarayonini raqamlashtirishning optimal yo‘llari

№	Usullar	Tavsiflar
1	O‘qitishni takomillashtirish Hosildorlik	O‘qitish samaradorligini rejalashtirishni osonlashtiradigan ilg‘or texnologik vositalardan foydalanish orqali oshirish mumkin, oson va amaliy o‘rganish, tezkor baholash, yaxshiroq manbalar, yangi ko‘nikmalar va boshqalar.
2	Onlayn kutubxonalarni ishlab chiqish	Texnologik taraqqiyot onlayn kutubxonalarni yaratish va rivojlantirishga yordam beradi, butun dunyo bo‘ylab talabalar, o‘qituvchilar va tadqiqotchilar o‘rtasidagi o‘zaro aloqani osonlashtirdi.
3	Masofaviy ta‘limni targ‘ib qilish	U hammaga texnologik vositalardan oqilona foydalanish imkonini beradi, o‘quv resurs-

		lari va muassasaga o'qituvchi bilan qulay muloqot qilish va ijtimoiy ta'lim platformalari kabi o'quv vositalari va texnologiyalaridan foydalangan holda guruhlarini boshqarish.			berishga imkon beradi va o'z ta'lim-tajribalarini nazorat qilishadi.
4	Virtual auditoriya muhitini yaratish	O'qituvchi real vaqt rejimida talabalar bilan muloqot qilishi, o'z resurslarini baham ko'rishi mumkin bo'lgan virtual sinflarni targ'ib qiladi.	9	Talabalarining o'z-o'zini o'rganish qobiliyatiga egaligini ta'minlash	Talabalar o'quv vositalari va texnologiyalaridan foydalangan holda o'z-o'zini boshqarish qobiliyatini shakllantirishlari mumkin. Ular bilishlari kerak bo'lgan narsalarni aniqlashlari, onlayn resurslarni topishlari va ulardan foydalanishlari, o'rganishlarini amaliy faoliyatda qo'llashlari va hatto sharhlarni tahlil qilishlari mumkin.
5	Kreativ bilimni shakllantirish va tushunish qobiliyatlari	Texnologiyalar talabalarining individual rivojlanishini ta'minlash uchun ijodiy bilim, tushuncha va ko'nikmalarni shakllantirishga intiladi. O'qituvchilar talabalarining mustaqilligini ta'minlaydi. Qiziquvchanligi va izlanuvchanligini rag'batlantirishlari mumkin. Ularning ilmiy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan materiallarni taqdim etib boradi.	10	Talabalarni real vaqtda baholash	Texnologiya o'zaro ta'sir qilish, bilimlarni shakllantirish, real vaqtda talabalarni baholash va talabalarni tobora raqamli dunyoda hayotga tayyorlashning yangi usullarini yaratishga imkon beradi.
6	Jamoadi ishlash va muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirish	Jamoadi ishlash va muloqot qobiliyatlari muvaffaqiyatli mutaxassisni rivojlantirishga yordam beradigan ikkita muhim xususiyatdir. Ushbu ko'nikmalarni rivojlantirishda raqamli texnologiyalar muhim rol o'ynaydi.			
7	Ta'lim resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish	Ta'lim resurslaridan istalgan vaqtda foydalanishni yo'lga qo'yish. Videoma'ruzalarni tashkil etish va o'tkazish talabalarga qulay vaqtda resurslardan foydalanishni osonlashtirdi. Hatto ota-onalar ham ushbu manbalarga kirishlari va ma'ruzalar va eslatmalar sifatini tekshirishlari mumkin.			
8	Vizual qiziqarli ko'rsatmalarni joriy qilish	Raqamli auditoriyalardagi amaliy mashg'ulotlardagi o'quv materiallari talabalarga interaktiv onlayn taqdimotlar orqali tafsilotlarga ko'proq e'tibor			

Yuqorida keltirilgan raqamli texnologiyalardan foydalanish usullari o'qituvchilarning o'quv materiallarini jonli, qiziqarli bo'lishiga va dars jarayonidagi mavjud muammolarni bartaraf etishga, talabalarni darsga kreativ yondashishga yordam beradi.

Xulosa. Raqamli texnologiyalar o'qitishning yangi usullarini joriy etish va talabalarining sifatli ta'lim olishiga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, o'qituvchilarga ta'limni raqamlashtirish sharoitida o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish imkoniyatlarini kengaytiradi va umuman ta'lim jarayoni sifatini tubdan yaxshilashga ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Takliflar. Bo'lajak o'qituvchilarning ilg'or ijodiy o'zini-o'zi rivojlantirish axborot texnologiyalari usullari va vositalarini faollashtirishga oid amaliy yondashuvlar zarur.

O'qitish va o'rganishni moslashtiradigan raqamli kontent ishlab chiqish, raqamli auditoriya qamrovini kengaytirish, talabalarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (elektron qurilmalar va dasturlar)dan foydalanish, xususan, ta'limni o'zlashtirishdagi innovatsion yondashuvlari, ijodkorligini qo'llab-quvvatlash, amaliy faoliyatida yetishda erkinlik berish, yuqori natijadorlik kuzatilganda rag'batlashtirishni joriy etish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi 6079-son Farmoni.
2. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti. Pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. - T.: 2007. 305-b.
3. Бурцев Д.С., Е.С.Гаврилюк, Д.И.Шаугараева. Проблемы управления образовательным процессом при использовании цифровых инструментов в высших учебных заведениях. // Научный журнал НИУ ИТМО. Серия Экономика и экологический менеджмент. 2020. № 2. -С.121 – 130.
4. Halverson R., Shapiro R.B. (2012). Technologies for education and technologies for learners: How information technologies are (and should be) changing schools. Wisconsin Center for Educational Research (WCER). Working Paper, 6.
5. Лапин В.Г. Цифровая образовательная среда как условие обеспечения качества подготовки студентов в среднем профессиональном образовании. // Инновацион. развитие профессионального образования. 2019. №1 (21). -С. 55-59.
6. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. /O'quv-metodik qo'llanma. -Toshkent: TDPU huziridagi PKQT tarmoq markazi» 2015. 120-b.
7. Евдокимова О.В., Колобов А.Н., Кулагина Ю.А. Применение цифровых технологий обучения дисциплинам гуманитарного цикла в профессиональном образовании. //Международный научно-исследовательский журнал. –Екатеринбург: 2021. № 7 (109). -С. 40-44.
8. Шаронин Ю.В. Цифровые технологии в высшем и профессиональном образовании: от личностно ориентированной smart-дидактики к блокчейну в целевой подготовке специалистов. / Современные проблемы науки и образования. 2019. № 1.

REZYUME. Maqolada oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayonlarida raqamli texnologiyalaridan foydalanish zarurati nazariy jihatdan asoslangan. Raqamli auditoriyani tashkil etish orqali bo'lajak mutaxassislariga elektron ta'limdan samarali foydalanishga imkoniyatlar yaratish, mustaqil va kreativ yondashish ko'nikmalarini tarkib toptirish usullari ifodalangan.

РЕЗЮМЕ. В статье теоретически обоснована необходимость использования цифровых технологий в образовательном процессе высших учебных заведений. Пути создания возможностей для эффективного использования электронного обучения для будущих специалистов путем организации цифровой аудитории и развития навыков самостоятельного и творческого подхода.

SUMMARY. In the article, the need to use digital technologies is theoretically based educational processes of higher education institutions. Ways to create opportunities for effective use of e-learning for future specialists by organizing a digital audience, and to develop independent and creative approach skills.

O‘ZBEK TILI DARSLARIDA MATNNI O‘QIB TUSHUNISHDAGI MUAMMOLAR

I.Sh.Saparbaeva – doktorant

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so‘zlar: matn, o‘qib tushunish, topshiriq, o‘qish turlari, usul, adabiy o‘qish matnlari.

Ключевые слова: текст, понимание прочитанного, задание, виды чтения, метод, художественное чтение текстов.

Key words: text, reading comprehension, assignment, types of reading, method, literary texts reading.

Hozirgi vaqtda ta’limning asosiy xususiyati o‘quv jarayonini yangicha tashkil etish, o‘quvchilarning fikrlash, gapirish, o‘z fikrlarini erkin ifoda etish, ijodiy qobiliyatlarini takomillashtirish va mustaqil ta’lim jarayonida birgalikda ishlash qobiliyatidir. Shu munosabat bilan mamlakatimizda o‘quvchilarning savodxonligini shakllantirish masalasi dolzarbdir. Yoshlarni intellektual, jismoniy va ma’naviy shakllantirish barobarida o‘quvchilarni maktabda olgan bilimlarini hayotda samarali qo‘llashga o‘rgatishda matn bilan ishlash ko‘nikmasi o‘quvchilarning o‘qib tushunish savodxonligini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

O‘quvchiga tilni o‘qitish orqali shu til bo‘yicha egallanadigan nutqiy faoliyatning asosiy to‘rt turi: nutqni tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozish amallari bo‘yicha har bir sinfda taqozo etiladigan malaka va ko‘nikmalar me‘yorini rivojlantirish, bunda o‘qish hamda mehnat jarayonida, oila va jamoat joylarida yuzaga keladigan turli nutqiy vaziyatlarda mustaqil ravishda fikr almasha olish va fikr bayon eta bilish, eshitilgan materialni idrok etish, shuningdek, yozma manbalarni o‘qish orqali axborot olish, voqea-hodisalarga o‘z munosabatini bildirish tarzida muloqotga kirish malakasini egallab borishni nazarda tutadi. [1:2]

Ta’lim jarayonida o‘qish, yozish, tushunish, o‘rganish inson ongida til orqali amalga oshiriladi. Til maktabda aqliy, hissiy va ijtimoiy rivojlanishning asosiy vositasidir. Til muloqot qilish, his-tuyg‘ular va fikrlarni ifoda etish, o‘zaro ta’sir, tashqi dunyo bilan integratsiya, madaniyatni uzatish kabi jarayonlarda muhim rol o‘ynaydi. Bundan tashqari, til shaxsning qobiliyatini to‘liq rivojlantirish, murakkab muammolarni hal qilish, ilmiy fikrlash, turli qadriyatlarga ega bo‘lish va tobora keng dunyoqarashni yaratish kabi xususiyatlarga bevosita ta’sir qiladi. Bu holat nafaqat maktabda, balki insonning butun hayoti davomida til ko‘nikmalarini rivojlantirish zarurligini anglatadi. Ushbu jarayonda asosiy e’tibor matnlarga, shuningdek, qo‘llaniladigan yondashuvlar va usullarga qaratiladi. Til o‘qitishda matnlarni tanlash va qayta ishlash bo‘yicha tizimli tadqiqotlar olib borilmoqda va til ko‘nikmalarini oshirish uchun matnga asoslangan o‘qitish o‘rniga matnga asoslangan ta’lim yondashuvi qo‘llanilmoqda [2:21].

O‘zbek tili darslarida matn mazmunini tushunib o‘qish asosiy maqsadlardan biridir. Ushbu maqsadga erishishning dastlabki qadami o‘qish texnikasini yaxshilash bo‘lsa, notanish (yangi, shuningdek, ilgari o‘rganilgan, lekin ma’nosi unutilgan) so‘zlar ma’nosi ustida ishlash navbatdagi qadamidir.

O‘zbek tili darslarida amalga oshirish lozim bo‘lgan asosiy masala o‘quvchida so‘zga qiziqish va e’tibor hissini muntazam sur’atda o‘stirib borishdan, ularga so‘zning ahamiyati, turli matnlarda tutgan o‘rnini tushuntirishdan iborat. Fanlararo bog‘lanishni tafakkurning rivojlanishiga qiyoslash mumkin. Fanlarni o‘zaro bog‘lab o‘rganish, u yoki bu fan bo‘yicha o‘rganilayotgan voqea-hodisa haqida o‘quvchida jonli mushohada qilish malakasini o‘stiradi. Bu bilan o‘quvchi voqea-hodisa haqida aniq tasavvurga ega bo‘ladi. O‘qituvchi o‘zbek tili fanlarini boshqa fanlar bilan uzviy bog‘lagan holda o‘qitar ekan, yangi materialni bayon qilish, mustahkamlash jarayonida, shuningdek, takrorlash, umumlashtirish vaqtida u yoki bu mavzu yuzasidan o‘rni bilan bog‘laydi va o‘quvchini mantiqiy, tahliliy mushohadaga undovchi turli mazmunga oid matnlardan foydalanadi. Bunday matnlardan

foydalanish o‘quvchini ijodiy fikrlash, matnni tushunishga o‘rgatadi hamda ularning bilimi va dunyoqarashining boyishiga xizmat qiladi.

O‘zbek tili darsliklarida matn ustida ishlash jarayonida matnni o‘qish topshirig‘i deyarli har bir darsda beriladi. Darsliklarda, shuningdek, adabiy o‘qish materiallari sifatida berilgan she’r, hikoya, rivoyatlar, qissa, romanlardan parchalarni ham o‘qish va mazmunini hikoya qilib berish topshirig‘i ko‘p berilgan. Ushbu topshiriqlar, odatda, o‘qing, diqqat bilan o‘qing, o‘qing va so‘zlab bering, o‘qing va ajratilgan so‘zlarga e’tibor bering, ifodali o‘qing kabilardan iborat bo‘lib, o‘qish ko‘nikmasi bo‘yicha so‘zlarni bo‘g‘inlarga ajratib o‘qing; so‘zlarni hijjalab o‘qing; ovoz chiqarib o‘qing; dialogni rolli o‘qing; matnni (she’rni) ifodali o‘qing; matnni ichingizda o‘qing; matnni o‘rnatilgan vaqt tezligida o‘qing kabi topshiriqlarni bosqichma-bosqich rivojlantirib borish maqsadga muvofiq [4:175]. Bunday topshiriqlarning ichida ba’zilar o‘quvchilarning yoshiga, salohiyatiga ko‘ra ma’lum darajada ular uchun qiyinchilik tug‘diradi.

O‘quvchilar matnda berilgan ma’lumotlarning katta qismini o‘qib tushunish orqali oladi. Bu jarayon jim o‘qish orqali sodir bo‘ladi. Demak, yuqori darajadagi o‘qib tushunish qobiliyatiga ega bo‘lgan shaxslar osonroq o‘rganadilar, degan xulosa paydo bo‘ladi. O‘qib tushunish qobiliyati ta’limning barcha sohalar uchun juda muhim va hal qiluvchi mahoratdir. Tabiiyki, o‘qib tushunish jarayonining eng asosiy elementlaridan biri matndir [2:6].

Biror kishi ma’lumot olish uchun yozma matnlarni o‘qiyotganda, avvalo yozma matnga hissiy tayyorgarlik ko‘radi. O‘qishda ushbu jarayon o‘quv uslubiga mos keladigan o‘quv strategiyalaridan foydalaniladi. O‘qishni o‘rganishda ma’lumotni idrok etishi va ajratishi va uni qayta talqin qilishi muhim. O‘qib tushunish jarayonida o‘quvchi butun e’tiborini matnga qaratadi. U matnda berilgan xabarlarini idrok etish, farqlash, anglash bilan birga ularni ongida qayta tartibga soladi. Chunki o‘qib tushunish diqqatni jamlashni talab qiladigan aqliy faoliyatdir. O‘qib tushunish davomida o‘rganish kuchli aqliy kuch talab qiladi va har bir harakat ma’lum miqdorda energiya sarflashni talab qiladi. O‘quvchi tomonidan matnni to‘g‘ri tushunish o‘quvchining aqliy rivojlanishiga va fikrlash qobiliyatini ham o‘sishiga ta’sir qiladi. Matnni o‘qib uni o‘zlashtirish jarayonida turli usullardan foydalaniladi. V.V.Drozdov bunday usullar mavzuning murakkablik darajasiga bog‘liq va u o‘quvchilarning bilim darajasiga qarab tanlanadi. Masalan, interpretatsiya usuli ko‘pincha yangi mavzuni tushuntirishda qo‘llaniladi, ko‘pincha og‘zaki hikoya asosida amalga oshiriladi. Bu usuldan barcha sinflar kesimida foydalanilsa bo‘ladi.

Matn mazmunini o‘zlashtirish uchun birinchi qadam ko‘z yugurtirib chiqish. Keyin esa asosiy jumla, asosiy fikr muhokama qilinadi. Darslikda til hodisalarini o‘rganish uchun asosiy o‘quv materiali sifatida matn berilsa, yangi so‘zlar va grammatik vositalar shu matn doirasidan kelib chiqib belgilansa, tashkil etiladigan dars matnni o‘qish va mazmunini tushunish ustidagi ishlarga bag‘ishlanadi. Leksik va grammatik mashqlar zimmasiga ham o‘quvchilarni matndagi yangi so‘zlar va so‘z shakllarini anglash orqali gaplar mazmunini tushunishga tayyorlash vazifasi yuklanadi. Bunday vaziyatda nutqiy faoliyatning to‘rt turini oqilona nisbatda parallel rivojlantirib borish ishlari qiyinlashadigan vaziyat yuzaga keltiriladi. Aslida darslikda yangi leksik va grammatik materiallar matnlardan

ajratish yo'li bilan emas, balki har bir sinf uchun ilmiy asosda belgilab olingan lug'at minimumi, grammatik vositalar asosida ishlab chiqilishi shart. Bu qiyin ish. Darsliklar tezkorlik bilan emas, yillar mobaynida olib boriladigan izlanishlar natijasi sifatida yaratilishi kerak.

Xalqimizning «Yig'lab-yig'lab ariq olsang, o'ynab-o'ynab sug'orasan» degan naqli bejiz aytilmagan. Metodik jihatdan puxta tuzilgan darslik o'qituvchining dars berishini ham, o'quvchilarning tilni maroq bilan o'rganishini ham ta'minlaydi, ta'lim jarayonini osonlashtiradi. Rejasiz tanlangan matnlarda rusiyzabon o'quvchilar ma'nosini qiyinchiliklar bilan anglaydigan so'z shakllari ko'p uchraydi. Agar parchada 3 va undan ortiq qo'shimchali so'z shakllari, qaralmishi shu shakldagi so'zlar bilan ifodalangan qaratqichli birikmalar bisyor bo'lsa, gap mazmunini tushunish vazifasi uddalanmasligi o'tkazilgan tajribalardan ma'lum. O'quv matnida yangi grammatik vositalar miqdoriy chegaraga ega bo'lishi kerak. Ikkinchi tilni o'qitish metodikasida bu miqdor bitta matnda bitta yangi grammatik shakl bo'lishi mumkin, degan fikrlar mavjud. Matnning janr xususiyatlari uning mazmunini tushunishga turlicha ta'sir qiladi. Ilmiy maqola tipidagi matnda notanish so'zlar ham, tuzilishi murakkab gaplar ham ko'p bo'ladi. Bunday matnlar mazmunini tushunish nihoyatda og'ir. Leksik va grammatik material so'zlashuv nutqiga yaqin rivoya-matn mazmunini tushunish osonroq, qiziqarliroq. Fabula qiziqarli bo'lsa, yana ham yaxshi. Lekin fabulasi qiziqarli matnda leksik qiyinchiliklar tasvir-matnlarga qaraganda ikki baravar ortiq bo'ladi.

Badiiy matnlarda mazmunini anglashda bir qator o'ziga xos mushkulliklar mavjud. Bu mushkulliklar badiiy tasvir vositalari, emotsional-ekspressiv til hodisalari, ko'chma ma'no asosida yaratilgan ramzlar bilan bog'liqdir. Ayniqsa, hissiy-intellektual ta'sir vositalari, baho beruvchi, ruhiy holatlarni ifodalovchi so'zlar qiyin anglanadi. Yangi matn ba'zan kutilmagan axborotga ega bo'ladi. Bu borada kitobxonni haydovchiga o'xshatish mumkin: kitobxon ham, haydovchi ham o'zini oldinda nima kutayotganini bilmaydi. Matnlarda ma'no-mazmunini tushunishni maxsus o'rgatish taqozo etiladigan til hodisalari ko'p bo'lishiga qaramay, ayrim o'qituvchilar matn ustida ishlashning ta'limiy jihati-ga emas, afsuslar bo'lsinki, asosan o'quvchilarning matn mazmunini qanday anglaganini nazorat qilishga ko'p vaqt sarflaydilar.

Ayrim matnlardan o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirish maqsadida foydalanish ko'zda tutiladi. Bunday matnlarda faollashtiriladigan leksik va grammatik materiallar ajratilgan bo'lishi kerak. Bu materiallar yaqin orada o'rganilganligi uchun ular ishtirok etgan gaplarni ham o'qib, boshqa tilga tarjima qilishni talab etish zaruriyati sezilmaydi. Matnlar hajman kattalashib borishi lozim. Ularning hajmi kichikligicha qolaversa, leksik-grammatik qiyinchiliklar yo'qolmaydi, chunki so'z va so'z shakllarining ishlatilish chastotasi eng past darajada bo'lib, bunday chastota o'qish paytida ishga tushadigan leksik va grammatik malakalarning shakllanishini ta'minlay olmaydi: o'quv yili mobaynida 1-2 matndagina uchragan til hodisalari unutiladi, natijada ularni har gal yangidan o'rganishga va mustahkamlash mashqlarini qayta o'tkazishga to'g'ri keladi. Aksincha, har bir yangi matn avvalgi matn va matnlarda o'rganilgan leksik va grammatik materiallar hisobiga hajman kattalashib borsa, uni o'qib mazmunini tushunish osonlashadi. Bunga so'z va so'z shakllarining ishlatilish chastotasining yuqori bo'lishi ortgani orqali erishiladi. Binobarin, o'qish oson bo'lsa, o'quvchi hajman kattalashib borayotgan matnlar misolida ko'p o'qiy olsa, unda mutolaa-ga qiziqish paydo bo'ladi.

Darslik tuzish amaliyotida keng tarqalgan usulga qaytadigan bo'lsak, matn orqali yangi leksik va grammatik materiallarni mustahkamlash degan maqsadning qo'yilishi unchalik to'g'ri emas. Ushbu materiallar ustida nutqiy

faoliyatning to'rtala turini ikki guruhga ajratgan holda yondashmoq darkor: 1) og'zaki va yozma nutqni o'stirish; 2) matnni o'qish va nutqni tinglab tushunish. Og'zaki nutq bilan yozma nutqni birlashtirib turadigan jihat shundaki, ikkalasida til hodisalari tez xotiraga tushirilishi va gap tarkibida qo'llanishi lozim. Farqlantiradigan tomoni shundaki, og'zaki nutqda uning talaffuzi, yozma nutqda esa imlosi avtomatlashgan darajada tez yodga kelishi zarur. O'qishdan ko'zlanadigan asosiy maqsad matn mazmunini tushunib, undan axborot olishdir. Tushunganlik o'qishning ravonligini (keraksiz to'xtamlarning bo'lmasligini, sintagmatik o'qishni) begilab beradi. Ma'lumki, noaniq so'z to'xtashga, noaniqlik qayta o'qishga, har bir so'zni alohida-alohida talaffuz qilishga sabab bo'ladi. Gaplardagi ma'nosi anglanmagan so'zlar hijjalab o'qilsa, notanish so'z va so'z shakllari tufayli ravon o'qish ko'nikmalari pastlab ketadi. Ilgarigi dasturlarda matn ustida ishlashdagi asosiy e'tibor uch o'qish turiga: tushunib o'qish, ichda o'qish, tez o'qishga qaratilgan edi. O'qish birinchi navbatda ravon bo'lishi kerak. Ravonlik tushunish tezligiga bevosita bog'liqdir. Matn mazmunini anglashdagi qiyinchiliklar sekin o'qishga sabab bo'ladi. Sekin o'qish paytida matn mazmunini tushunishga bo'lgan e'tibor kuchayadi. Demak, o'qish ravonligi tushunish sifatini ham belgilab beradi. Shu boisdan ta'kidlash joizki, o'qish tezligi tushunish tezligi bilan baravar rivojlanishi kerak. O'quvchilarning o'qish texnikasini yaxshilash haqida gapirganda, o'qish sur'atini nazardan qochirmaslik lozim.

O'qish turlarini nomlash metodika ilmida o'qituvchining nazariy tayyorgarligini oshirish maqsadida amalga oshiriladi, ya'ni o'qish turlari o'z nomi bilan nomlanadi. O'qish turlari bir jihatdan matnning leksik va grammatik materiallari hisobiga oson-qiyinligi, hajmining katta-kichikligi, axborot miqdori kabilarga ko'ra bir-biridan farqlansa, ikkinchi jihati o'qishni o'rgatishdan ko'zlanadigan maqsad va vazifalarga borib taqaladi.

O'qish turi sifatida ajratilmasa-da, mazmuniga o'quvchilar diqqatini qaratish maqsadida matnni o'qishdan avval unga doir savollarni berib qo'yish (xattaxtaga yozish) usuli ham qo'llanadi. Lekin matn mazmunini tushunish yo'lida undagi asosiy fikrni ajratish o'quvchilar uchun bir xilda oson ish emas. A.S.Yegorovanning ta'kidlashicha, quyi sinf o'quvchilari asosiy fikrni ajratib va uni ochib bera olmaydilar. Biror ish usulini qo'llashda shu kabi holatlar ko'zda tutilishi kerak.

Matnni o'qishdan oldin berib qo'yiladigan yoki mutolaa paytida beriladigan savollarning tushunishga qanday ta'sir eta olishi borasida J.I.Manuelyanning olib borgan tajribalari e'tiborga loyiqdir. Murakkab bo'lmagan ilmiy-ommabop matnga doir o'qishdan oldin keltirilgan savollar tushunishga jiddiy ta'sir ko'rsatmagan. Murakkabroq matnlar tanlanganda ham, savollar ijobiy rol o'ynamagan. Badiiy matnlarga doir berilgan savollar o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, tahlil qilishga, tuyg'ularini ifodalashga undagan taqdirdagina tushunishni yaxshilashga xizmat qilgan. Boshqacha aytganda, o'qishdan oldin beriladigan savollar tavsifi o'quvchilarni fikrlashga undashi, ularning diqqatini bir joyga to'plashi, matn mazmuniga qaratishi kerak.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, og'zaki nutqi o'sa boshlagan, mutolaa madaniyati shakllanish bosqichiga yaqinlashgan o'quvchilar o'z ixtiyorlari bilan uyda 1-2 betlik materiallarni o'qib kelganliklarini aytadilar. Z.I.Klichnikovaning bergan ma'lumotlariga qaraganda, bir soat o'qish uchun 25-35 betlik material uyga o'qishga topshirilishi mumkin. O'zbek tili darslarida tilni amaliy egallay boshlagan o'quvchilarga 5-7 betlik hikoyalarni darsda mustaqil ish tarzida o'qishni boshlab, qolganini uyda davom ettirish topshirilganda, ushbu topshiriqni uddalagan o'quvchilar bo'lgan. Lekin ushbu ish turi hamma uchun majburiy bo'lmasligi darkor.

Shuningdek, adabiy o'qish materiallari - she'rlarni ifodali o'qishlari va yod olishlari orqali o'quvchilarning lug'aviy zahirasini boyitish, rivoyat, hikoya, qissa, romanlardan parchalar mazmunini so'zlab berishlari orqali o'quvchilarning o'zbek tilidagi bog'lanishli nutq kompetensiyalarini rivojlantirish, qahramonlarni tavsiflash, ularga o'z munosabatini bildirish kabi ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlarning bajarilishi ta'minlanadi. O'quvchilarni nutqiy mavzuga mos o'zbek bolalar shoirlari va yozuvchilarining ijodlaridan namunalar: kichik-kichik hikoyalar, she'rlari, rivoyatlar, masallar va ertaklar bilan tanishtirish orqali o'quvchilarga milliy qadriyatlarimizni singdirish, ayni paytda ularning so'z boyligini oshirish, turli mavzularda erkin muloqot yuritishga o'rgatishda adabiy o'qish materiallarining ahamiyati nihoyatda katta. Badiiy matnlardan faqat adabiy o'qish materiallaridagina emas, balki mashq tarkibida ham foydalanish mumkin. Albatta, to'qima gaplarga qaraganda badiiy asardan olingan parcha ustida ishlash biroz murakkab, biroq yuqori sinflarda bunday topshiriqlarni bema'lol berish mumkin.

Matn ustida ishlash bosqichining samaradorligini ta'minlashda, qaysi o'qish turidan foydalanilmasin, o'quvchilarning so'z boyligini va til bilimini oshirish bilan bir vaqtda kommunikatsiya aktining sodir bo'lishi, nutqni (uning o'qish turini) bir pog'ona yuksaltirish tushunilmog'i darkor. Boshqacha aytganda, quyidagi maqsad va vazifalarni hal etish sifatiga erishish ko'zda tutiladi:

1) matn mazmunini tushunish uchun sarflanadigan vaqtning qisqa bo'lishi, tushunishning to'g'riligi, to'liqligi va chuqurligi;

2) o'quvchilar o'qish texnikasining yaxshilanib borishi;

3) yangi so'zlarni tushuntirish va mustahkamlash, ma'nosi unutilgan so'zlarni xotiraga tushirish va takrorlash ishining dars davomida to'xtamasligi, muntazamligi;

4) o'quvchilarda savol tuzish malakasining o'sib borishi;

5) matn ustida ishlash bosqichida og'zaki nutq o'stirish mashqini amalga oshirish imkoniyatining yuzaga kelishi;

6) zarur axborot materiallarning o'zlashtirilishi [5:116].

Matn ustida ishlash samaradorligi ko'p jihatdan vaqtdan oqilona foydalanganlik bilan o'lchanadi. Bu ishga qancha vaqt sarflash kerakligi o'quvchilarning so'z boyligi va til bilimi saviyasiga ko'ra belgilanadi. Matnda notanish so'zlar, grammatik shakllar bo'lmasa, tushunish qisqa muddatda amalga oshadi. Parcha murakkab bo'lsa, har qanday sharoitda o'qish, lug'atdan foydalanish, savol-javob va boshqa ish turlariga ajratiladigan vaqt, ikkinchi tilni o'qitish metodikasiga doir adabiyotlarda ta'kidlanishicha, ko'pi bilan daqiqadan oshmasligi zarur. Axborotlarni o'zlashtirish ham shu vaqt ichida sodir bo'lishi lozim. Qisqa muddat ichida ham matn mazmunini to'g'ri va to'liq tushunish, ham axborot olish uchun zamin hozirlash katta mahorat talab etadi. Buning uchun matn ustida olib boriladigan ish usullarini to'g'ri tatbiq etish kerak.

Adabiyotlar

1. Агайсина А. Мақала: Мəтінмен жұмыс жасау жолдарын белсенді әдіс- тәсілдер арқылы қарастыру. Устаз тилеги – Қостанай, 2023, 2-6.
2. Н. Ömer Beydoğan. Makale: Okuma ve anlamayı etkileyen stratejiler – Millî Eğitim journalı, Türkiye, 2010, sayfa 6.
3. Симбаева С. Белсенді оқу мен оқытуда қолданылатын әдістер – Nur-Sultan, Тұран-Астана баспасы – 2019, 21-6.
4. Xadicha Muxitdinova. O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitish metodikasi, Toshkent, G'afur G'ulom nashriyoti – 2023, 175-b.
5. Yo'ldoshev R. Ta'lim rus tilida olib boriladigan maktablarda o'zbek tilini o'qitish metodikasi. Toshkent, Fan va texnologiyalar Markazining bosmaxonasi – 2015, 116-b.

РЕЗЮМЕ. Ushbu maqolada ta'lim o'zga tillarda olib boriladigan sinflarda o'zbek tili darslarida matnni o'qib tushunishda yuzaga keladigan muammolar va ularni bartaraf etish haqida fikr yuritilgan.

РЕЗЮМЕ. В данной статье рассматриваются проблемы, возникающие при чтении и понимании текста на занятиях по узбекскому языку в классах с иностранным языком обучения, и способы их преодоления.

SUMMARY. This article discusses the problems that arise in reading and understanding the text in Uzbek language classes in classes where education is conducted in foreign languages and how to overcome them.

BASLAWISH KLASS OQIWSHILARININ KREATIV KONLIKPELERIN RAWAJLANDIRIW MASELELERI

U.Q.Seytjanova – pedagogika ilimlerinin kandidati, professor

Ajiniyaz atındaǵı Nókis mámleketlik pedagogikalıq institutı

Tayanch so'zlar: kreativlik, shaxsiy motivatsiya, kreativ ko'nikmani yaratish, ijodiy jarayon, intellektual.

Ключевые слова: креативность, личная мотивация, формирование творческих навыков, творческий процесс, интеллектуал.

Key words: creativity, personal motivation, formation of creative skill, creative process, intellectual.

Respublikamiz talim sistemasında baslawish klass oqiwshılarında kreativ aktivlikni qalıplestiriv máselesi jámiyet aǵzalari ushin erkin pikirlew, óz kózqarasların bayanlaw múmkınshılıǵı sıpatında bahalanıp atır. Buǵan baylanisli Ózbekstan Respublikasını jáne de rawajlandırıw boyınsha Háreketler strategiyasında [1:92] «fizikalıq salamat, ruwxıy hám aqlıy rawajlangan, erkin pikirleytuǵın, Watangá sadıq, qatań turmısliq kózqarasqa iye jaslardı tárbıyalaw, demokratiyalıq reformalardı tereńlestiriv hám puqaralıq jámiyetin rawajlandırıw procesinde olardıń sociallıq aktivligin asırıw» sıyaqlı baǵdarlar belgilengen. Áne usınıń sebebinen baslawish klass oqiwshılarında kreativ aktivlikni qalıplestirivde shańaraq, máhelle hám mektep sherikligin rawajlandırıw, olardıń klass oqiwshılarında dóretywshilik qábiletin waqtınan burın anıqlawdıń didaktikalıq sistemasın jaratıw, teoriyalıq metodikalıq jaqtan tiykarlaw hám de bunda dóretywshilik iskerlikni shólkemlestiriv metodların qollawǵa baǵdarlangan pedagogikalıq processni didaktikalıq shárt-sharayatların anıqlaw zárúr áhmiyetke iye boladı.

Kreativlik (dóretywshilik) (lat. creation – jaratıwshańlıq, dóretywshilik) – qanday da jańa, ayırıqsha nárese jarata alıw qábileti, kórkem forma jaratıw, pikirlew, ideya hám shesh-

imge alıp keliwshi intellektual process; shaxstın jańa ideyalardı jaratıw hám qabılawǵa tayarlıǵın xarakteristikalaytuǵın dóretywshilik qábileti [2:196]. Pedagogikalıq-psixologiyalıq kózqarastan F.Ehsonova kreativlik túsiniǵine «kreativlik – shaxs hám jámiyet qızıǵıwshılıqları menen baylanisliqta ózgeriwshen sociallıq-mádeniy shárt-sharayatlar shenberine tiyisli wazıypalardı sheshiwde insannın konstruktiv hám original pikirlewge tayarlıǵı» dep anıqlama beredi [3:911].

Oqiwshılarda qalıplesken kreativ aktivlikniń dárejelerin anıqlawda hár túrli diagnostikalaw metodikalarınan paydalanılǵan. Bunday metodikalar taypasına J.Piaje [4:192], G.Ayzenk [5:352], J.P.Guilford [6:264], Dj.Raven [7:396] hám basqalardıń intellektual rawajlanıwdı anıqlawshı testlerin kórsetiw múmkın.

«Baslawish talim koncepciyası»nda [8:16] oqiwshılardı kreativ aktivlikke shaqırıw ideyasına jetekshi orın ajratılǵan. Oqıtwshı menen oqiwshılar arasında sheriklik, óz ara pikirlesiw hám kreativ aktivlik kórsetiw ushin qolaylıq jaratılıwı ayırıqsha ayıp ótilgen.

Shaxsq baǵdarlangan talim paradigmasında oqiwshınıń erkin pikirlewı hám kreativ aktivlik kórsetiwı ushin kreativ pikirlew perspektivalı baǵdarlardan biri esaplanadı.

Oqıwshılardıń informaciyalardı qabıllaw hám olardı dóretiwshilik ózlestiriw iskerligi olardıń keleshektegi kásiplik hám ulıwma mádeniy rawajlanıwında zárúr áhmiyetke iye. Bunday iskerliktiń maqseti sonnan ibarat, ózlestirilgen oqıw materialları hám túrli dárejedeги informaciyalar oqıwshılardıń turmıslıq iskerliginde zárúr áhmiyetke iye. Tálim mazmunında oqıwshınıń sociallıq tájiriybesi óz kórinisin tabıwı kerek. Tálim mazmunına xalqımızdıń barlıq qádiriyatların sındırıw kerek. Bunıń nátiyjesinde oqıwshılardıń biliw iskerligi jańa kóriniske iye bolıwı, oqıwshı shaxsınıń wazıypaları aktuallasıwı, oqıwshı túrli turmıslıq rawajlanıw dárejelerin ótiwı kerek. Tálim procesinde innovaciyalıq texnologiyalardı qollaw nátiyjesinde oqıwshınıń aktivligi arpaqta hám ol kreativ aktivlik kórsetiw tiykarında kóbirek erkin pikirlew kónlikpelerin iyelewge mıtajlik sezilip atır. Sol múnásibet penen insaniylyqqa tiykarlangan tálim procesinde rawajlandıratuǵın oqıw jaǵdayında oqıwshı óziniń jeke quwatların qanday ámelge asıradı hám qaysı túrde kreativ aktivlik kórsetiw múmkinshiligine iye bolıwı kerek? – degen sorawlarǵa juwap izlew mıtajligi tuwılıp atır.

Oqıwshılardıń jeke kózqarasların aktivlestiriwshı jaǵdaylardı payda etiw tiykarında olardı jeke wazıypalardı orınlawǵa shaqırıw, tańlaw kónlikpelerin kórsetiw, pikirlik-dóretiwshilik iskerlik kórsetiwı ózbetinshe rawajlanıwı ushın sharayat jaratadı. Bul sharayatlar tómendegilerden ibarat (1-súwret).



Oqıwshılardı kreativ aktivlikke shaqırıwshı oqıw jaǵdaylarında tómendegiler óz aldına ajratılıp kórsetiliwı kerek:

- pedagogikalıq tájiriybege iye bolǵan baslawısh klass oqıtıwshı oqıw predmeti sheńberinde pedagogikalıq iskerlik subyekti sıpatında didaktikalıq materiallardı oqıtıw maqseti menen baylanıslı halda anıq pikirleydi;
- oqıwshılardıń jeke wazıypaların aktuallasıradı hám oqıw predmetin ózlestiriwge shaqıradı;
- óz betinshe kreativ aktivlik kórsetiwge mıtajlik sezetuǵın oqıwshılar menen oqıtıwshı bólek isleydi;
- didaktikalıq qurallar sistemasın oqıtıwshı úzliksiz rawajlandırıp baradı.


Oqıwshı hám de oqıtıwshınıń tájiriybesi procesli xarakterge iye. Oqıwshı hám oqıtıwshı ushın bilimlerdi ózlestiriw procesiniń ózi emes, al olar arasında jeke áhmiyetke iye bolǵan bilimlerdiń oqıwshılar tájiriybesine sındırılıwı

áhmiyetli bolıp tabıladı. Oqıwshılar basqıshpa-basqısh jańa múnásibetlerge kiriser eken, ózleri ushın áhmiyetli bolǵan bilimlerdi bayıtadı.

Shaxsqa baǵdarlangan tálim teoriyasına tiykarlangan halda oqıwshılarda kreativ aktivlikti qalıplestiriw múmkinshiliklerin keńeytiw talap etiledi. Usı processte tálim shaxsqa baǵdarlangan jaǵdaylar jıyındısı sıpatında kórinedi. Bul jaǵdaylar oqıwshılardıń kreativ aktivlik kórsetiwın talap etedi. Atap aytqanda:

- usınılıp atırǵan tálim mazmunında qádiriyatlı-pikirlik bilimlerdi sáwlelendiriwshı quramlı bólimlerdiń ańlatılıwı;
- jeke múnásibetti talap etetuǵın oqıw materialların usınıw usıllarınıń qollanıwı;
- tálim procesiniń barlıq qatnasıwshıları menen múnásibetlerdi jańa sistemasına kirisiw sıyaqlılar.

Shaxsqa baǵdarlangan oqıw jaǵdayları tómendegilerdi óz ishine alıwı kerek: (2-súwret)



Bul metod oqıwshılardıń kreativ aktivliklerin ańlatıw forması bolıp, olar oın járdeminde ózleri ushın áhmiyetli bolǵan zatları izleydi hám oǵan jaqınlasadı. Bul processte oqıwshılar analitikalıq iskerlikti ámelge asırıw, erkin qararlar qabıllaw, dóretiwshilik baslama kórsetiw kónlikpelerin iyeleydi.

Demek, baslawısh klass oqıwshılarında kreativlikti qalıplestiriw tikkeley tálim procesiniń tiykarǵı maqsetlerinen birine aylanıwı kerek. Búgingi künge shekem baslawısh klass oqıwshılarında kreativ aktivlikti qalıplestiriw procesiniń mazmunı teoriyalıq jaqtan jeterli tiykarlanbaǵan. Sebebi, oqıwshılardıń kreativ iskerligin rawajlandırıw tikkeley social pedagogikalıq xarakterdegi izertlewlerdiń obyektı bolmaǵan.

Solay eken, baslawısh klass oqıwshılarınıń kreativ kónlikpeleri quramı pútin integrativ birlik sıpatında ózinde kózqarasqa tiykarlangan, qálewli, mazmunlı-procesli, sezimlik-iqtıyarlı hám analitikalıq bólimlerdi sáwlelendiredi. Sonday-aq, kreativlik quramında oqıwshılardıń analitikalıq iskerligi óz aldına orın iyeleydi. Baslawısh klass oqıwshılarında kreativlikti qalıplestiriw procesi arnawlı bir oqıw jaǵdayları sıpatında shólkemlestirilip, oqıwshı shaxsın rawajlandırıw mexanizmlerin ózinde sáwlelendiredi. Oqıwshılardı kreativ iskerlik kónlikpelerin rawajlandırıw oqıw jaǵdaylarına alıp kiriw nátiyjesinde olarda oqıw procesine qatnaslı unamı múnásibet tájiriybesi qalıplesedi.

Ádebiyatlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони. // Ҳаракатлар стратегияси асосида жадал тараққиёт ва янгиланиш сари. – Т.: «Ғафур Ғуллом», 2017. 92-б.
2. Педагогик атамалар луғати // Тузуви муаллифлар жамоаси – Т.: «Ған2, 2008. 196-б.
3. Эхсонова Ф.Т. Бошланғич синф ўқувчиларида креативлигини ривожлантиришнинг педагогик механизмини такомиллаштириш. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD). ... дисс.авт. – Наманган: 2020. 9-11-б.
4. Жан Пиаже. «Психология интеллекта» - Питер: 2003. –С. 192.
5. Айзенк Г., Кэмин Л. Природа интеллекта - битва за разум: Как формируются умственные способности = Intelligence: the battle for the mind. -М.: «Эксмо-Пресс», 2002. –С. 352.
6. Guilford J.P. A psychometric approach to creativity. – California : University of Southern California, 1986. –P. 264.
7. Равен Дж. Компетентность в современном обществе: выявление, развитие и реализация. – М.: «Когито-Центр», 2002.
8. Сафарова Р., Абдуллаева Б. ва б. Бошланғич таълим концепцияси. РТМ, – Т.: 2014.

РЕЗЮМЕ. Мақоллада бoshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar tahlil qilingan. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ ko'nikmalarini rivojlantiruvchi metodlar mujassam. Maqolada mavzuga doir xulosalar keltirilgan.

РЕЗЮМЕ. В статье проанализированы научные исследования, направленные на развитие творческих навыков учащихся начальных классов. Методы, развивающие творческие навыки младших школьников, являются комплексными. В статье представлены выводы по теме.

SUMMARY. The article analyzes scientific research aimed at developing the creative skills of primary school students. The methods that develop the creative skills of younger students are complex. The article presents conclusions on the topic.

DZYUDOSHILARDIN SHINIGIW PROCESINDE INNOVACIYALIQ TEKNOLOGIYALARDI QOLLANIW

Dj.Sultamuratov – aqa oqitwshi

B.Qadirbaev – assistant oqitwshi

B.Aytmuratova – student

Ózbekstan Dene tárbiyası hám sport mámleketlik universiteti Nókis filiýalı

Tayanch so'zlar: dzyudo, innovatsion texnologiyalar, mashq jarayoni, vieokuzatuv, virtual trenajorlar, qo'l qurilmalari, fiziologik parametrlar, suniy intellekt.

Ключевые слова: дзюдо, инновационные технологии, тренировочный процесс, видеонаблюдение, виртуальные тренажеры, портативные устройства, физиологические параметры, искусственный интеллект.

Key words: Judo, Innovative technologies, exercise process, video monitoring, virtual trainers, hand devices, physiological parameters, artificial intelligence.

Dzyudo boyınsha joqarı dárejeli sportshılardı tayarlawda texnologiyalardı qollanıwdı ilimiy-metodikalıq jaqtan negizlew olardıń tayarlıgın optimallasırıwǵa hám shınıǵıw processiniń nátiyjeliligін artırıwǵa járdem beredi. CONAN-m ("Rim-Ekspres") elertrokardiologiyalıq sistema bazasında júrek ritminiń variabelligin analiz etiw boyınsha baǵdarlamalıq-apparatlıq komplekstı paydalanıw oǵada áhmiyetli esaplanadı. Bup processte izertlewshiniń pedagogikalıq, fiziologiyalıq, statistikalıq metodları qollanıladı.

Shınıǵıwǵa shekemgi, shınıǵıwdan keying júrek ritminiń variabelligin operativ tárizde analiz etiw ushın CONAN-m elektrokardiologiyalıq sistema bazasında júrek ritminiń variabelligin analiz etiw boyınsha baǵdarlamalıq-apparatlıq kompleksi paydalanıladı.

Izertlewler 10 joqarı dárejeli dzyudoshılarda ótkerilip, olarda júrek ritminiń $\pi\pi$ intervalları boyınsha bólip shıǵaratuǵın júrek-qan tamırı sistemasınıń elektrli signalı registraciyanadı. Kompyuterlik sistema kardiointervalogrammlardıń statistikalıq, gistografiyalıq, spektrallıq analizlerin orınladı. Júrek ritminiń kórsetkishleriniń nátiyjeleri boyınsha integrallı kórsetkishler esaplanadı. Paydalanılıp atırǵan kórsetkshilerdi jıynaw boyınsha izertlew texnologiyası júrek ritminiń variabelligin bahlawǵa bolǵan xalıqaralıq talaplarǵa sáykes kelip, organizmniń funkcionallıq awhalıń opertaiv túrde anıqlawǵa kómelesedi, organizmniń fizikalıq awırmanlıqların hám kúshni qayta tiklew ilajlar kompleksine bolǵan reaksiyasın san jaǵınan bahlalanıwı kerek. Kórik rejimi eki minutanı quraydı. Qollanılıp atırǵan kompyuterlik texnologiya organizmniń funkcionallıq awhalıńnıń toǵız túrli túrlerin tanıp, olarǵa funkcionallıq kernewdiń (hár poziciyadaǵı xolinergik buwınıńnıń aktivlesiwinin analiz menen) normal, bir jónkilli kórinis tapqan, hádden tis kernewi hám organizmniń astenizaciyası kiredi. Izertlew metodikası dzyudoshılardıń individualıy ózgesheliklerin esapqa alıwǵa, organism sistemalarınń funkcionallıq buzılısqa beyimligin, shaxstıń psixologiyalıq profiling, socionika maǵlıwmatların, temperamentti, neyrotizm dárejesin, pikirlew tipin, rollick funkciyaların anıqlawǵa múmkinshilik beredi.

Jeńil shınıǵıw dzyudoshılarda bir jónkilli funkcionallıq kernew tuwdıratuǵın anıqlanǵan. Gomestaz retlestiriwshi sistemalardıń bir qatar kernewi arqasında uslap turıladı. Bul awhal sportshılardıń shınıǵıw basındaǵı joqarı belsendiliginiń nátiyjesi sıpatında payda boladı. Sinuslı-júrek aldı buwınıńnıń avtomatlastırılǵan aktivliginiń terbelisleri hám adasıp júriwshi nervtin orayınıń tonusı arqalı júzege kelgen júrek ritminiń ózgeriw menen birge sinuslıq aritmiyanıń anıq kóriniwı atap ótiledi. Shınıǵıwdan soń kórsetkishler dárejesi ádewir kóterilgen nervlik qabıq astı oraylardıń aktivligi boyınsha ayırılıp turadı [4].

Dzyudoshılardıń shınıǵıw processinde innovaciyalıq

texnologiyalardı qollanıw shınıǵıwlarıń sapasın hám nátiyjelerin biraz jaqsılawǵa, sonday-aq, bul sport túriniń rawajlanıwına hám optimallasıwına imkaniyat jaratadı. Tómende dzyuda da innovaciyalıq texnologiyalardı qalay qollanıw boyınsha misallar keltiremiz.

1. Háreketler hám texnika tallawı. Videotallaw hám arnawlı baǵdarlamalar járdeminde shınıǵıwlar hám jarıslar waqtındaǵı dzyudoshılardıń háreketlerin úyreniwge boladı. Bul qátelerdi anıqlawǵa hám texnikanı jaqsılawǵa, sonday-aq, hálsiz orınlardı hám kúshli táreplerdi biliwge kómelesedi.

2. Virtualı trenajerlar. Dzyudo stimulyatorları sportshılardı koordınaciyanı, teń salmaqlılıqtı hám reaksiyanı jaqsılawǵa járdem etiwı múmkin. Sonday-aq, olar shınıǵıwlar ushın ápiwayı sharáyatlarda isletiw qıyın bolǵan unikalı scenariylerdi beriwı múmkin.

3. Monitoring ushın qol qurilmaları. «Aqıllı» qol saati yaki datchikler sıyaqlı texnologiyalar pulstı, belsendilik dárejesin hám sportshılardıń basqa da fiziologiyalıq parametrlerin baqlap barıwǵa kómelesedi. Bul bolsa trenerlerge awırmanlıqlardı optimallasırıwǵa hám hádden tis kernewdin hámde jaraqatın aldın alıwǵa járdem beredi.

4. Keńeytilgen reallıq (AI). AI-texnologiyaları interaktivli shınıǵıwları dúziwde qollanılıp, onda dzyudoshılar virtualı qarsılaslar hám trenerler menen óz-ara háreket islewı múmkin hám taktika, strategiyanı jaqsı túsinedi.

5. Maǵlıwmatlardı hám jasalma intellekti paydalanıw. dzyudoshılardıń shınıǵıwları hám shıǵıwları tuwralı maǵlıwmatlardı jıynaw hám tallaw úlgi lerdi hám tendenciyalardı anıqlawǵa, shınıǵıw processine bolǵan ádisti optimallasırıwǵa hám jarıslar waqtında tiykarlıraq sheshimlerde qabıllawǵa kómelesedi.

6. Kúsh ti hám shıdamlılıqtı rawajlandırıw texnologiyaları. kúsh ti hám shıdamlılıqtı shınıqtırıwǵa innovaciyalıq ádislerdi qollanıw dzyudoshılardı ózleriniń fizikalıq tayarlıgın kóteriwge hám joqarı sport nátiyjelerine erisiwge járdem etiwı múmkin.

7. Jaraqatshılıq monitoring. jaraqatshılıqtı monitoring etiw hám tallaw sisteması trenerlerge sportshıl arasında jaraqatshılıqtı aldın alıwǵa hám jaraqat qawpın páseytiwge járdemlesedi.

Álbette, dzyudoshılardıń shınıǵıw processlerine jańa texnologiyalardı engiziw waqtında hár bir sportshınıń individual ózgesheliklerin esapqa alıw hám trenerlerdiń tiyisli qollap-quwatlawın hám úyretiwın támiyinlew áhmiyetke iye, sebebi innovaciyanıń imkaniyatları nátiyjeli túrde qollanıladı.

Házirgi zamanda texnologiyalar sportta oǵada úlken rol oynaydı. Olar shınıǵıwlarıń nátiyjeliligін kóteriwge, sportshılardıń ónimdarlıgın jaqsılawǵa, nátiyjelerdiń ada latlı hám anıq bahlalanıwın támiyinlewge múmkinshilik beredi. Sportta qollanılıwshı bir neshe tiykarǵı texnologiya-

lardi kórsetip ótemiz. Tallaw hám mashinalıq oqıtw. Kompyuterlik algoritmler hám tallaw ásbapları shınıǵırlar hám jarıslar paytında jıynalǵan úlken kólemdegi maǵlıwmatlardı qayta islewde paydalanıladı. Bul trenerlerge hám sportshılarga hálisiz orınlardı anıqlawǵa hám strategiyalardı optimallasırıwǵa kómeklesedi. Qol qurılmaları (wearables), fitness-trekerler, aqıllı saatlar, datchikler hám basqa da qol qurılmaları fizikalıq belsendilikti, júrek ritmin, qandaǵı kislorodtıń dárejesin hám basqa da biometriyalıq kórsetkishlerdi baqlap barıwǵa járdem etip, ol densawlıqtıń jaǵdayın qadaǵalawǵa hám shınıǵıw jobaların adaptaciyalawǵa járdemlesedi.

Virtuallıq reallıq (VR) hám tolıqtırılǵan reallıq (AI) bul texnologiyalar shınıǵırlardıń hám jarıslardıń immersivlik simulyaciyasın jaratıw ushın paydalanılıp, ol sportshılarga strategiyalardı islep shıǵıwda, kónlikpelerdi jaqsılawda hám qadaǵalanıwshı ortalıqta sheshim qabıl etiwde járdem beredi.

Videotallaw videotexnologiyalar sportshılardıń háreketlerin oǵada joqarı anıqlıq penen tallawǵa, qátelerdi anıqlawǵa hám texnikanı jaqsılawǵa kómeklesedi.

CONAN-m («RITM-EKSPRESS») elektrokardiografiyalıq sistema bazasında júrek ritminiń variabelligin analiz etiw boyınsha baǵdarlamalıq-apparatlıq kompleksti paydalanıw dzyudoshılar organizminiń funkcionallıq jaǵdayın operativ túrde anıqlawǵa, organizmniń shınıǵıw awırmanlıqlarına bolǵan reakciyasın san jaǵınan bahalawǵa, awırmanlardı kóteriń dárejesin anıqlawǵa hám kúshti qayta tiklew ilajları boyınsha usınıslar beriwge imkaniyat jaratadı.

Dzyudoshılardıń organizminiń funkcionallıq jaǵdayınıń júrek ritminiń variativlik dárejesi boyınsha operativ bahalaw metodı organizmniń funkcionallıq múmkinshilikleri shınıǵıw barısındı tómennemegenligin kórsetti. Gomeostaz retlestiriń sistemalarınń optimal kernewi arqasında uslap turıladı. Kórinis tapqan sinuslı aritmiya sinush-júrek aldı buwınıń aktivliginiń terbelisleri menen shártlengen bolıp, ol kóplegen jaǵdayda adasıp júriwshı nerv orayınıń ózgerisleri menen baylanıslı. Qabıq astı nerv oraylarınń aktivliginiń kórinerli dárejede kúsheyiwı atap ótilgen.

Ádebiyatlar

1. “Jismoniy tarbiya va ananaviy sportni yana da rivojlantirish chora-tadbirlar to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3-iyundagi PQ 3031-sonli qarori.

2. Dadabaev O. Dzyudo nazariyati va uslubiyati. «Davriy matbuot savda» baspası.

3. Xolxodjaev O.T., Mansurov M.M. Dzyudo gúresinde tóreshilik qılıw hám jarıstı ótkeriń qaǵıydaları, 2019.

4. Mámbetov B., Sultamuratov Dj., Nurekeev B., Qadirbaev B., Berdaxova N. Dzyudo. Oqıw-metodikalıq qollanba. –Nókis: 2022.

РЕЗЮМЕ. Мақоллада дзюдочиларнинг машқ жарайонида innovatsion texnologiyalardan foydalanish samaradorligi o’rganib chiqilgan. Shuningdek, har bir sportchining individual holati va murabbiy mahoratining oshirish masalalari tahlil qilingan. Mazkur tadqiqot natijalari dzyudo sportini nazariy va amaliy jihatdan rivojlantirishi, sportchilarning mahorati oshichiga hissa qo’shishi mumkin.

РЕЗЮМЕ. В статье рассматривается эффективность использования дзюдоистами инновационных технологий во время тренировок. Также были проанализированы индивидуальная ситуация каждого спортсмена и вопросы повышения квалификации тренера. Результаты данного исследования могут способствовать теоретическому и практическому развитию дзюдо, совершенствованию мастерства спортсменов.

SUMMARY. The article examines the effectiveness of judokas' use of innovative technologies during training. Also, the individual situation of each athlete and issues of improvement of the coach's skills were analyzed. The results of this research can contribute to the theoretical and practical development of judo, and the improvement of athletes' skills.

УДК. 1218-219 (2024) ИЗУЧЕНИЕ СОВРЕМЕННОЙ ПРАКТИКИ ВОПЛОЩЕНИЯ ИСПОЛНИТЕЛЬСКОГО СТИЛЯ ФОРТЕПИАННОЙ МУЗЫКИ

Д.Х.Ташбаева – кандидат филологических наук, доцент

Наманганский государственный университет

Таянч сўзлар: пианино, санъат, мусика, бастакор, фаолият, маданият, классика, мусикашунослар, пианиночилар, мактаб.

Ключевые слова: фортепиано, искусство, музыка, композитор, деятельность, культура, классика, музыковеды, пианисты, школа.

Key words: piano, art, music, composer, activity, culture, classics, musicologists, pianists, school.

Прогрессивное развитие мирового музыкального исполнительства обусловлено достижениями в области современной фортепианной музыки, оказывающей большое влияние на духовное совершенствование человека. В условиях глобализации фортепианное исполнительское искусство стремительно развивается и, расширяя горизонты, обретает новые стилевые качества на основе переосмысления и обновления исторически сложившихся традиций. Оно является наиболее развитой областью, позволяющей исполнителям привлекать широкий круг слушателей и оказывать огромное эмоционально-психологическое и воспитательное воздействие на аудиторию благодаря богатейшим возможностям самого инструмента.

В мировой исполнительской науке с успехом развиваются и внедряются научно обоснованные теории, практики и традиции разных национальных фортепианных школ, являющихся генераторами творческих методов и идей. Пианисты следуют исполнительским и методикопедагогическим принципам в соответствии с современными стилевыми тенденциями и социокультурной средой. На основе результатов научных исследований в данной области они демонстрируют модифицированные формы, представляющие собой качественно новые звуковые явления, свидетельствующие о стилевой

множественности, исполнительской культуре в самом широком её понимании, эстетических приоритетах современного фортепианного искусства.

Фортепианное искусство, веками формировавшееся в мировой музыкальной культуре, является важным фактором более быстрого развития композиторского творчества и исполнительского искусства. При этом одним из приоритетных направлений является научное исследование произведений, созданных для фортепиано, как единого сложного процесса, состоящего из темы, жанра, композиционного творчества и образовательной сферы исполнительского искусства.

В годы независимости произведения узбекских композиторов, основанные на национальных традициях, получают высокое признание не только на сценах нашей страны, но и за рубежом благодаря мастерству представителей фортепианной школы нашей страны.

Yuqoridagi fikr va mulohazalar asosida shunday xulosaga kelish mumkin, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da belgilangan vazifalar bo'lg'usi kasb egalariga qo'yiladigan talablar bugungi kunda juda muhim va uning yechimini topish pedagogik zaruratdir [1:12]. Zero, bu davr talabi, qolaversa, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning eng asosiy vazifalaridan biri bo'lib, uning pedagogik mexanizmini ishlab chiqish va bir tizimga solish juda muhimdir.

Oliy ta'lim muassasalaridagi tarbiyaviy sifatlarni shakllantirishda ta'lim-tarbiya mazmuniga innovatsion yondashishning afzalliklari to'g'risida so'z yuritir ekanmiz, avvalo qaysi fanlarda, qaysi guruh mashg'ulotlarida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish mumkinligini aniqlash zarur degan savol tug'ilishi tabiiy.

Tadqiqot ishimizga ko'ra, oliy ta'lim muassasalaridagi barcha yo'nalishlarda tarbiyaviy yo'nalishlar bo'yicha barcha fanlar bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil qilishga darsning samaradorlik darajasi oshirish mumkin. Bu jarayonda albatta nafaqat fanlararo, balki mavzulararo bog'liqlikni ta'minlash ham talab etiladi. Chunki bilimlar u

yoki bu fan mavzulari ichida bo'lib, ularni bevosita, o'zaro bog'liqlikda amalga oshirish o'qituvchidan o'ziga xos mahoratni talab etadi. Bunday mahorat esa o'quvchi axloq-odob tushunchalarini egallab borishi, tarbiya jarayonini yaxlitligini ta'minlaydi.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim muassasalarida tarbiyaviy jarayonlarni tashkil qilishda talabalarining 1-bosqichidan, 1-mashg'ulotlarni tashkil qilishdan boshlash zarur. Chunki, oliy ta'lim muassasalarida talabalarida jamoaga kelgan kunlaridan boshlab tarbiyaviy jarayonlarni sifatlarni umumlashtirilgan holda shakllantirishga e'tibor berilishini talabalarni oliy ta'lim muassasa sharoitiga ko'niktirish jarayonida ko'rish mumkin. Ilk mashg'ulotlardan boshlab barcha fan o'qituvchilari, guruh rahbarlari, bo'lim boshliqlari umuman oliy ta'lim muassasalarida jamoasi yangi qabul qilingan o'quvchilarni tartib-itizomi, qonun-qoidalariga rioya qilish kerakligini tushuntirish orqali ularning huquqiy ongini o'stirishga, qonun-qoidalar mazmunini tushunishga, ularga e'tibor qilish zarurligiga qaratiladi.

Talabalar kasbiy yo'nalishidagi faoliyatini ijtimoiy foydali mehnatga ijodiy yondashish orqali o'quvchilar diqqatini ishlab chiqarishga, ya'ni ma'lum bir mahsulot yaratib, qo'shimda daromad hosil qilishga qaratilsa, ijtimoiy foydali mehnat tizimida o'z-o'ziga xizmat qilish, guruh xonasi, xona ozodaligini saqlash va ta'lim muassasasi yer maydonidan foydalanish kabi ijtimoiy topshiriqlarni bajarishni nazarda tutib, ularni bajarishdan zavqlanish hissini shakllantirish orqali talabalarining tarbiyasini rivojlantirish mumkin.

Oliy ta'lim muassasalaridagi tarbiyaviy jarayonni tashkil qilishda yakka tartibda amalga oshiriladigan jarayon bo'lishidan qat'iy nazar bir kontekstlikda rivojlanadi va ijtimoiy o'zaro kirishimlilikka asosan shaxsni har tomonlama shakllantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Natijada nafaqat yakka tartibda bitta shaxsni, balki tarbiyaning mazmun-mohiyatiga ko'ra shaxslararo va guruhlararo munosabatlarga kirishishlarida ijtimoiy anglanganlikka, guruhiy dinamikaga (rivojlanishga), konfliktlarga qarshi, qadriyatlariga asosan yo'nalganlikka olib kelgan holda ijtimoiy qonun-qoidalar me'yorlariga e'tibor qilish zarurligi motivatsiyasini paydo qiladi. Hozirda bu ikkala atamani umumlashgan holda bir butunlikda bir-biriga mos pedagogik-psixologik komponent sifatida, asosan qoidaga muvofiq kimningdir tarbiyasini o'ziga xosligi, uning fikrlari yoki xatti-harakatlari "odatiy ko'nikma"ga nisbatan boshqalardan yakka tartibda shakllanayotgan tarbiyaviy sifatlarni o'zaro, guruhlararo bir butunlikda shakllantirish mumkin.

Demak, tarbiya jarayonini yaxlitlikni har kim har xil tushunadi: ba'zilar uni tarbiya jarayonini kompleksi deb (uni mazmunida ham axloqiy, ham estetik, ham mehnat kabi tarbiya turlari mavjud) tushunsa, boshqalari esa uni insoniyatni birligi, hamjihatlikka undovchi kuch, yana boshqalar esa uni insonlararo munosabatda bir-birini huquqini hurmat qilish deb tushunadi (ya'ni jamiyat qonun-qoidalariga itoatli bo'lish).

Shaxsni xarakterini, tabiatini, dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy-axloqiy mezon yaxshilik va ezgulik, oliyanoblik, mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila, ta'lim-tarbiya muassasalarida, an'anaviy va innovatsion yondashish asosida amalga oshiriladi. Bu jarayonlarning bir-biridan afzalligini tasdiqlash referent guruhlar orasida qaror topishi aniqlandi. Ijtimoiy, psixologik, pedagogik qonuniyatlarga ko'ra, guruh a'zolari uchun shu guruh ichida yoki boshqa doiralarda shundayki, u o'z xatti-harakatlari, fikrlari va yo'nalishlarida tarbiyaviy jihatdan o'sha guruh a'zolariga ergashishga, ulardan ibrat olishga, ularning fikrlarini tanqidsiz qabul qilishga moyil hamda

tayyor turadi. Pedagogika fanida shunday shaxslar guruhiga “referent” “guruh maqomi berilgan [2:156-120].

Oliy ta’lim muassasalarida tarbiyaviy jarayonlarni tashkil qilishda jamoaning guruh qonun-qoidalariga nisbatan, ularga amal qilish borasida har bir o’quvchi o’z-o’zini yo’naltirishi lozim. Masalan, oliy ta’lim muassasalaridagi qoida-me’yorlarini bilishi, bilmasligi, o’rganish zarurligi kabi jihatlarini kursdoshlari, do’stlarining yurish-turishlari, kiyinishlari, xatti-harakatlari va muomala madaniyatlaridan andoza olgan holda bu

metod asosida ularga yaqinlashishga intiladi. Afzallikni mavjudligi, ularni o’qituvchi tomonidan namuna sifatida tasdiqlanishi o’quvchilar tarbiyasi uchun etalon hisoblanadi. Aynan shuning uchun ham ma’naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonni tarbiyalash, ta’lim va maorifni yuksaltirish, milliy uyg’onish g’oyasini ro’yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga yetkazish davlatimizning muhim vazifalaridan biri bo’lib qoladi, deganda yoshlarimiz tarbiyasini har tomonlama rivojlantirish lozimligini ko’rish mumkin.

Adabiyotlar

1. “Uzluksiz ma’naviy tarbiya Konsepsiyasi”. – T.: 2019. 12-b.
2. Inoyatova M. Ta’limiy qadriyatlarni aniqlash va pedagogik amaliyotga tatbiq etish. “Sharq” Nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati. – Toshkent: 2010. 156-120-b.
3. Azimova Z.E. Tarbiyaviy ishlar tizimini integral diagnostik asosda takomillashtirish (Oliy ta’lim muassasalari misolida): Ped.fan.dok...diss. – Nukus: 2018. 84-b.
4. Dadaqo’ziev M. 2024. Oliy ta’lim muassasalarida tarbiyaviy ishlar jarayonlariga yangicha prinsiplarini ioriv qilishda allomalar pedagogik me’rosi. *Interpretation and Researches*, (3). извлечено от <https://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/2834>
5. Dadaqo’ziev M.R. Oliy ta’lim muassasalarida tarbiyaviy ishlar jarayonlarini tashkil etish va boshqarishda talabalar jamoasini tashkillashtirishning pedagogik xususiyatlari // SAI. 2023. №Special Issue 12. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/oliy-ta-lim-muassasalarida-tarbiyaviy-ishlar-jarayonlarini-tashkil-etish-va-boshqarishda-talabalar-jamoasini-tashkillashtirishning> (дата обращения: 21.06.2024).

РЕЗЮМЕ. Bu maqolada oliy ta’lim muassasalarida tarbiyaviy ishlar jarayonlari va boshqarish mexanizmlaridagi mavjud muammlar tahlili keltirilgan. Maqola oliy ta’lim muassasalaridagi tarbiyaviy ishlar jarayonlarini mustahkamlash uchun foydali bo’ladi.

РЕЗЮМЕ. В данной статье представлен анализ существующих проблем в процессах учебной работы и механизмах управления в высших учебных заведениях. Статья будет полезна для усиления процессов воспитательной работы в высших учебных заведениях.

SUMMARY. This article presents an analysis of existing problems in educational processes and management mechanisms in higher educational institutions. The article will be useful for strengthening the processes of educational work in higher educational institutions.

«BESTEMSHE» O’YINING BOLA TARBIYASIDAGI O’RNI

A.Dawkeeva – *pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori*

M.Sh.Shamuratova – *tayanch doktorant*

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so’zlar: intellekt, o’yin, «Bestemshe», «To’g’iz qumalak», qobiliyat, rivojlanish.

Ключевые слова: интеллект, игра, «Бестемше», «Тогизкумалок», способности, развитие.

Key words: intelligence, game, "Bestemshe", "Togizkumalak", ability, development.

Xorijiy mamlakatlarda jismoniy tarbiya darslarini o’qitish sifatini oshirish borasida maxsus dasturlar ishlab chiqilgan. Dastur asosida keng ko’lamli o’quv ishlari, belgilangan talab muhiti, talabalarning ijodiy va ish qobiliyatlari hamda mustaqil ishlarni tashkil etish belgilab qo’yilgan. Jismoniy tarbiya darslarini o’qitish sifatini oshirish asosida talabalarni qo’llab-quvvatlash va ko’nikmalarni rivojlantirish dasturda belgilab olingan [1]. Ta’lim — bolalarga ko’nikma va malakalar berishining, bu bilim, ko’nikma va malakalarni bolalar uqib olishi, egallab olishi va ularni mustahkamlab olishining rejali jarayonidir. Ta’lim jarayoni — bolalar xotirasining boyishi, yordamida sodir bo’ladigan jarayondir.

O’yin — bolalarning ongi, qalbiga singib ketgan faoliyatdir, ularning bu faoliyati, o’yin turlariga qarab, obyektiv voqelikni, hayotni muayyan darajada o’zida aks ettiradi. O’quv faoliyati ham, bilush faoliyati ham bitta ijtimoiy institutga — ijtimoiy tajribani o’zlashtirishga daxldor. Bu faoliyat turlarining har ikkalasi ham tarkiban maqsad, motiv, vosita, natijaga ega. Ammo shularga qaramasdan ularning o’zaro farqlari ham mavjud. Agar o’quv faoliyati bilim, ko’nikma, malakaga yo’налgan bo’lsa, bilush faoliyati bilim, ko’nikma, malaka bilan birga ijodiy faoliyat tajribasi, munosabatlarni ham shakllantirishga yo’налgan. Binobarin, dastlabki farqni o’rganiladigan hodisalar mazmunida, biluv faoliyatining mazmun jihatidan boy va kengligida ko’ramiz.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishib, ma’naviy tiklanish yo’liga kirdi. Ajdodlarimizdan bugungi avlodga meros bo’lib qolgan milliy qadriyatlarimizni ulug’lash, chuqur o’rganish va keng targ’ib qilish imkoniyati yaratildi. Bugun o’sib kelayotgan yosh avlodga ta’lim va tarbiya berishning asosiy vazifalaridan biri — o’z yurtini sevadigan, milliy an’analarni e’zozlaydigan, milliy qadriyatlarga ega bo’lib voyaga yetgan fuqaroni tarbiyalash ekanligi ayon bo’ldi.

Milliy qadriyatlarni avlodlarga singdirish yo’llaridan biri esa xalqimizning boy milliy merosini, jumladan, milliy o’yinlarini targ’ib qilishdan iboratdir. Hozirgi kunda ko’plab milliy o’yinlar o’ynalmay, unutilib ketgan.

Biz so’z yuritmoqchi bo’lgan to’g’izqumaloq o’yini esa, qozoq xalqining milliy intellektual o’yini hisoblanadi. Bu o’yinni butun Osiyoda ko’chmanchi xalqlar o’ynashgan. Tog’izqumaloq o’yini dunyoda Mankala, Mo’g’ulistonda Eson Korgool, Qozog’istonda Tokuz Kumalak yoki Dokuz Kumalak, turli mintaqalarda Mankala, Mangala, Kale, Altiev, Pich, Meneli Tas, Mellegayasi va shunga o’xshash nomlar bilan mashhur [2].

O’yinni yosh-u qari, o’g’il va qiz bimalol o’ynashi mumkin. Tog’izqumaloq o’yinini o’ynab o’rganish uchun yoshi kichik bolalarga Bestemshe o’yini orqali o’rgatib boriladi.

Bu o’yin eng oddiy va eng oson variantlarga ega, Tog’izqumaloq o’yinini o’rganishning birinchi bosqichi sifatida bestemshe o’yinini kiritishimiz mumkin. O’yinning tarixi 3000 yilni o’z ichiga oladi. Ushbu o’yinga o’xshash o’yinlarni Qirg’iziston, Indoneziya, Vetnam, Malayziya, Marokash va Turkiyada topish mumkin.

O’yinlar tarixi 3 ming yillik davrni qamrab olgan bo’lsa-da, aniq yozma ma’lumotlar yo’qligi sababli o’yinlarning xronologik davrlari izchil emas. Faqat og’zaki adabiyot namunalari va rivoyatlarda to’g’izqumalak haqida ma’lumotlar bor, Bestemshe haqida esa yo’q. Yozma adabiyotning ilk namunasi sifatida Mahmud Koshg’ariyning “Devoni lug’atit Turk” asarini qayd etish mumkin. Asar XI asrda yozilgan. Bu asarda «Bestemshe» o’yiniga o’xshash o’yin «nusxa» deb ataladi. Bestemshe haqida juda kam ma’lumot mavjud. “Qozoq tilining izohli” lug’atida o’yin haqida shunday deyilgan: «To’g’izqumalak

o'yining bir necha turlari mavjud. Uning bolalar uchun oddiy turlari «hayajon» «beshlik» deb ataladi [3].

Qozoq milliy ensiklopediyasida «bestemshe to'g'izqumaloqning kichik turi» deb ta'riflangan. Ushbu o'yin, uning tarixi, qoidalar, shuningdek, to'g'izqumalak o'yini haqida Serik Yergalining «O'smirlar mantiqini rivojlantirish uchun qozoq intellektual o'yinlaridan foydalanish» kitobida batafsil tanishishimiz mumkin.


Hozirda qo'llanilayotgan Bestemshe taxtasining dizayni so'nggi yillarda bu o'yinni o'rganuvchi olimlar tomonidan qora uyning konturi asosida yaratilgan.

(Bestemshe o'yini doskasi)

Hozirgi taxta kichik, zararsiz, chunki u yog'ochdan yasalgan, tabiiy, bo'yalmagan va o'zimiz bilan olib yurish uchun juda qulay. Biz esa bu o'yinni qardosh xalqlarning milliy o'yini sifatida O'zbekistonda ham keng tanitmoqchimiz.

Buning uchun esa, avvalambor, o'yin qoidalarini batafsil tushunib olish lozim.

O'yin qoidalar juda oddiy bo'lib, barcha qoidalar ko'chmanchi ajdodlarimiz tabiatiga ko'ra farqlangan va bu qoidalarga ularning qarashlari kiritilgan.



Masalan, yurish faqat chapdan o'ngga boradi, xalqimizda o'ngga bor, degan naql bor, hatto o'ng tomondan ot minish, o'ng tomondan sigir sog'ish kabi mentalitetimizga xos

unsurlar ham bor. Ovqatlanayotganda o'ng qo'l bilan ovqatlanish.

Demak, urf-odatlarimizda ham an'analarimizda ham har tomonlama o'xshashliklar mavjud. Bundan tashqari, bu o'yin o'yinchini mustaqil bo'lishga, o'zi qaror qabul qilishga o'rgatadi. G'alaba qozonish uchun o'yinchi oldindan strategiya va reja tuzishni o'rganadi va reja tuzish jarayonida agar noto'g'ri deb hisoblasa, u rejadan voz kechib, yangi yo'l topishni o'rganadi.

Qaror qabul qilishda xatoga yo'l qo'ysangiz, o'yinda yutqazsangiz, mag'lubiatni qabul qilib, uni to'g'ri qabul qilishga o'rgatiladi. Rejani amalga oshirish uchun o'yinchi harakatlarni eslab qolishi kerak bo'ladi, bunda o'yinchining jamlash orqali rivojlantiradi, eslab qolish qobiliyati oshadi va oldingi ma'lumotlar bilan to'g'ri ishlash amaliyoti rivojlanadi.

Keyinchalik, bolada g'alaba qozonish istagi paydo bo'ladi, shu bilan raqobat qobiliyatini oshiradi. Qo'llarning harakatchanligi va motorikasini ham rivojlantirishga yordam beradi. V.A.Suxomlinskiy «Bolaning qobiliyatining manbayi uning qo'lida», deb yozgan edi. Nozik vosita mahoratini rivojlantirish bolaning umumiy rivojlanishida alohida o'rin tutadi.

Bolaning nozik motorli ko'nikmalarini rivojlantirish orqali barcha kognitiv jarayonlarning faoliyatini yaxshilash mumkin. Bestemshe o'yinida mayda to'plarni ushlab turganda qo'l harakati miya va nerv tolalariga ta'sir qiladi, bu esa ko'p foyda keltiradi.

Vaqtdan samarali foydalanish. O'yinni o'rgangan, musobaqalarda qatnashib, g'alaba ta'mini his qilgan o'yinchi gadjetlarda o'tirgandan ko'ra ko'proq shu o'yinga qiziqadi va bu orqali o'zini ziyolilar bilan o'rab olgan, nafis, raqobatbardosh, xotirasi sezilarli darajada rivojlangan, tezda kerakli ma'lumotlarga e'tibor qarata-digan, qaror qabul qila oladigan va bu qarorning oqibatlarini to'g'ri baholay oladigan, har qanday vaziyatni oldindan rejalashtirishni biladigan, o'ziga ishongan, o'z fikrini erkin ifoda eta oladigan barkamol shaxs sifatida tarbiyalanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ushbu intellektual o'yinni keng targ'ibot qilish va rivojlantirish imkoniyati va ahamiyati katta. «Bestemshe», ayniqsa, maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilari va kichik maktab yoshidagi bolalarning arifmetik ko'nikmalarini rivojlantirish, aql-zakovatini oshirish imkonini beradi.

Adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoyevning «Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak» nomli ma'ruzasi. – Toshkent: / «Xalq so'zi». G.16.01. 2017. 2 5
2. Aslonova M. Ta'lim jarayonida harakatli o'yinlardan foydalanish (Boshlang'ich sinflarning jismoniy tarbiya darslari misolida): Dis. ... ped. fan. nom. – Navoiy: NavDPI, 2008. 153-b.
3. <https://www.mercandokuzkumalak.com/dokuzkumalak'in-cocuk-egitimindeki-rolu-ve-onemi/#>
4. Adilbaev S.Q. «Бестемше» ўйынының оқышылардың ой санасының дамуына асері». 2021.

Internet saytlari

1. Asel Dalieva 300 togyzkumalak daski Turkistan 2023.
2. <https://qyzyljartv.kz/kz/news/39649>
3. <https://ustaz.kz/materials/bestemse-279105.html>
4. Suxomlinskiy V. A. «Tarbiya to'g'risida» 1973.
5. Zolymbetov U., Aigolek, 46.

РЕЗЮМЕ. Maqolada bolalarning intellektini rivojlantirishda o'yinning ahamiyati, «Bestemshe» o'yinining kelib chiqish tarixi, o'yinning shartlari haqida so'z yuritilgan.

РЕЗЮМЕ. В статье обсуждается значение игры в развитии интеллекта детей, история возникновения игры «Бестемше», условия игры.

SUMMARY. The article discusses the importance of the game in the development of children's intelligence, the history of the game «Bestemshe», and the conditions of the game are discussed.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ КЕЙС МЕТОДА В ОБУЧЕНИИ СТУДЕНТОВ В ОБЛАСТИ ГРАЖДАНСКОГО СТРОИТЕЛЬСТВА (на примере американских ВУЗов)

Р.Ешнйз – кандидат экономических наук, доцент

Каракалпакский государственный университет имени Бердаха

Таянч сўзлар: фукаролик курилиш, кейс тарихлар, кейс-стади, кейс муаммолар, артефакт.

Ключевые слова: гражданское строительство, кейс истории, кейс-стади, кейс проблемы, артефакт.

Key words: civil engineering, case history, case study, case problems, artifact.

Основная тенденция исследований, выявленная в литературе по инженерному образованию, которая основана на когнитивной теории, связана с использованием кейсов в аудитории, хотя существуют некоторые ссылки на конструктивистское обучение в групповой практике [1:223], [2:16], [3:23]. Поскольку многие из документированных примеров существуют в более широком спектре инженерного образования, их обсудим в первую очередь, прежде чем рассматривать те, которые непосредственно относятся к гражданскому строительству.

Основная цель использования кейсов, заключается в развитии инженерных навыков. Название курса или техника “обучение на основе конкретных случаев” в инженерном контексте не обязательно означает, что случаи будут использоваться таким же образом, как в юридических и бизнес-школах. В первую очередь, сценарии реального мира, скорее всего, будут аутентичными, но могут не требовать такого активного обучения как в бизнес или юридическом образовании. Кейсы подразделяются на три типа: кейс истории, кейс-стади и кейс проблемы. Каждый тип требует последовательно большего количества действий со стороны студента. Кейс история описывает проблему и обсуждает, как она была решена, и решения, связанные с этим, часто фокусируясь на результатах этих выборов. Кейс-стади, как правило, ориентированы на описание “эталонного решения” и цель состоит в том, чтобы проиллюстрировать принцип или ценность подхода. Наконец, кейс проблемы - это открытые приложения случаев, когда после представления проблемы, анализ и решение остаются на усмотрение студентов. Эти проблемы могут варьироваться от небольших проблем до сложных долгосрочных проектов.

Кейсы важны для образования в области гражданского строительства, потому что они иллюстрируют идеи и концепции в гораздо более богатом контексте и служат лучшей поддержке развития взаимосвязанного понимания. Сравнивая кейсы с лекциями, чтениями, упражнениями и наборами задач, можно отметить, что развитие концепции, подходов и навыков лучше всего помогает метод кейсов. Использование открытых кейс-задач приносит пользу студентам, потому что определение проблем, планирование и самооценка успеха являются обязательным для студентов, и завершение дела может повлечь за собой сочетание обобщающих действий с коммуникативными навыками и практическим решением проблем. С другой стороны, кейс модули могут занимать много времени для подготовки и выполнения в группе, а при внедрении часто используются изолированно. Аналогично проблемному обучению в медицинских школах, кейс модули будут успешными в учебной программе по инженерному делу только в том случае, если их можно будет использовать для обучения основных инженерных концепции, а также стратегии решения проблем.

В американской литературе имеются много примеров использования кейсов в инженерном образовании, но они в основном относятся к промышленному и системному инжинирингу, которые традиционно имеют более тесные связи с экономической стороной инжиниринга.

Ричардс [4] цитирует кейсы используемые в магистратуре делового администрирования и инженерных систем, в особенности в инновационном курсе по изобретению и проектированию в Университете Вирджинии, который открыт для студентов третьих и четвертых курсов многих направлений (наук и искусств, архитектура, инженерные и прикладные науки). Кейсы, реализованные в этих классах, гораздо более сложны, чем типичные кейсы бизнес-школы, и называются “активными учебными модулями”. Например, в одном проекте студенческие команды должны соревноваться в новаторстве в области коммуникаций, и разработать артефакт с грубым приближением к технологиям того времени, постройте его и подать заявку на патент, касающийся устройства. Работа также содержит информативное руководство по использованию кейсов в инженерной группе, что делает ее хорошим справочником для преподавателей, желающих самостоятельно исследовать случаи реализации [4:380].

Все эти примеры относятся к областям, отличным от гражданского строительства, которое, как представляется, несколько отстают от других инженерных дисциплин в документированном использовании кейсов. Однако есть некоторые работы в американской научной литературе [5:47], которые представляют интерактивную среду, основанную на конкретных примерах, чтобы способствовать интеграции проектирования в обучение управлению строительством за счет использования междисциплинарных кейс историй. В [6:360] представлены тезисы работ, которые подготовлены в мультимедийных кейс стади и в совместной работе по обобщению в междисциплинарных тематических исследованиях. Библиотеки кейсов, доступные в Технологическом институте Халмана и Карлтонском университете в Канаде (<http://www.civeng.carleton.ca/ECL/>) включает множество кейсов, имеющих отношение к образованию в области гражданского строительства.

В [7:165] приводиться использование кейс стади в группе гражданского строительства и связанные с ним преимущества и недостатки. Большая часть документа подробно описывает методологию разработки и внедрения примеров, хотя также представлены примеры (два из области управления строительством, а один объединяет проектирование и строительство, включая проектирование конструкций). Хотя рекомендации по разработке кейсов полезны, одним из наиболее информативных результатов этого документа является последующее обсуждение [8:209], в котором подробно описывается потенциальное препятствие для широкого внедрения кейсов в области гражданского строительства: отсутствие поддержки (в основном нехватки времени) и признания со стороны преподавателей для разработки кейс стади. Н.Григг сравнивает ситуацию с моделью бизнес-школы, где во многих учреждениях разработка и публикация кейс стади представляют собой исследование.

Наконец, одним из немногих других примеров в литературе для случаев в области гражданского строительства является работа, проделанная в Технологическом университете Джорджии под эгидой EduTech

института устойчивых технологий и развития с использованием кейс методов и проблемного обучения. Инновационный курс предоставляет богатый и междисциплинарный опыт, необходимый для подготовки инженеров для решения задач устойчивого развития. В этой статье предлагаются хорошо разработанные описания когнитивной основы курса, самих кейсов и планов оценки.

Идея кейс метода в области гражданского инженерного образования не является чем-то новым. Фитцсаймонс [9:560] в 1979 году предложил кейс метод, в частности, как метод решения проблем подготовки инженеров к профессиональной практике. В работе проводится краткие сравнения с юридическими и медицинскими школами и демонстрируется замечательное видение использования дел, даже предполагая необходимость изучения всего жизненного цикла проектирования, как в нынешней тенденции устойчивого развития.

Документированные события за пределами случаев немногочисленны, но в одном из очень немногих длительных исследований методов обучения в классе Фельдер [10:365] подробно описывает результаты исследования, в котором он преподавал пять последовательных курсов химической инженерии в последовательных семестрах одной и той же группе студентов. Он предлагает множество экспериментальных методов, в частности, подчеркивая активный опыт обучения (например, совместные учебные группы), сокращая время чтения лекций и использование команд по выполнению домашних заданий. Причем, Фельдер использует в основном, традиционные методы оценки (домашние задания, экзамены), которые считаются неаутентичными в отношении к способам преподавания и обучения, но эти методы были как-то структурированы и обновлены (т.е., сложные проблемы), и Фельдера ни в коем случае нельзя рассматривать как последователя старой традиционной оценки. В работе формировано домашнее задание в соответствии с их моделью, ориентированной на студентов, но было бы очень интересно сравнить, какой успех может быть возможен с его методиками обучения в сочетании с некоторыми другими видами достоверной оценки, например, проектами или портфолио. Одним из наиболее ценных качеств этого исследования является тот факт, что автор статьи смог наблюдать эффекты в течение нескольких лет. Хотя для определения оценок использовались традиционные оценки, возможно, что в течение пяти семестров произошла какая-то

неопределенная неформальная оценка, которая помогла ему оценить обучение студентов. Действительно, хотя в этой статье не представлено никакой статистической информации, сравнивающей эту группу студентов с другими группами сравнения, качественные доказательства эффективности методов убедительны. В частности, студенты повысили мастерство в формулировании проблем, приходили в рабочие часы в группах за помощью в разрешении дебатов по открытым проблемам и развили большее чувство общности, которое демонстрирует позитивные изменения в критическом мышлении и создании совместного учебного сообщества. Автор статьи хотя и не проявляет явной приверженности когнитивным идеям конструктивизма или когнитивного ученичества, описывает пример той среды, которую необходимо создать для того, чтобы происходили такого рода процессы.

К сожалению, не все опубликованные статьи содержат такой уровень доказательств предлагаемых идей. В работе [11:240] конструктивистский способ обучения определяется как более увлекательный и требующий от студента большей активности в построении знания, вместо того, чтобы пассивно получать их из лекции. Кроме того, представлена структура конструктивистского метода обучения, состоящая из пяти этапов (вовлечение, изучение, развитие, расширение и оценка). В работе содержится материал о том, как методология может быть реализована в проектном образовании, и о проблемах оценки конструктивистского обучения. Однако в работе хотя и делаются заявления о преимуществах такого рода среды, но не предлагается их оценка.

Таким образом, рассмотрение зарубежной литературы, которые могут повлиять на образование инженеров-строителей, иллюстрирует богатство методов, доступных исследователям в области обучения. Конструктивистские идеи, которые включают в себя когнитивные теории, основаны на реальном изменении восприятия обучения, изменении, недостатки которого все еще ощущаются в области инженерного образования. Когнитивное обучение и другие реализации более аутентичного образа мышления и обучения предлагают огромные возможности для повышения эффективности образования в области гражданского строительства, помогая студентам мыслить как настоящие инженеры. В особенности эти виды обучения могут основываться на опыте обучения на основе конкретных случаев и проблем.

Литература

1. Фельдер Р.М. О воспитании креативных инженеров. // Инженерное образование. 1987. 77(4), -С. 222-227.
2. Льюис Р.Б. Творческое преподавание и обучение в классе статистики. // Инженерное образование. 1991, 86(1), -С. 15-18.
3. Ешнйазов Р. Повышение качества подготовки студентов строительного профиля по специальным учебным дисциплинам. // «Илим хэм жэмийет», НМПИ, 2023 (№4), 22-25-б.
4. Ричардс Л.Г., Горман М.Э., Шерер В.Т. и Ландел Р.Д. Содействие активному обучению с помощью кейсов и учебных модулей. // Инженерное образование. 1995, 84 (4), -С. 375-381.
5. Чиновски П.С. и Робинсон Дж. Повышение качества образования в области гражданского строительства посредством тематических исследований. // Инженерное образование, 1997, 86 (1), -С. 45-49.
6. Агогино А.М. и Инграффеа А.Р. Интеграция учебной программы бакалавриата по инженерному делу. // Материалы восьмой конференции по вычислениям в гражданском строительстве, ASCE- 2012. -С. 356-363.
7. Рассел Дж.С. и Маккалуш Б.Г. Гражданское инженерное образование: подход к тематическому исследованию. // Журнал профессиональных вопросов инженерного образования и практики, ASCE- 2000, 116 (2), -С. 164-174.
8. Григг Н.С. Обсуждение книги Рассела и Маккалуша «Образование в области гражданского строительства: подход к тематическому исследованию». // Журнал профессиональных вопросов инженерного образования и практики, ASCE - 2012, 118 (2), -С. 209-210.
9. Фитцсаймонс Н. Тематические исследования для студентов строительных специальностей. В ответе на вызовы инженерной практики. // Материалы конференции по гражданскому инженерному образованию, - 1979, вып. 1, -С. 560-562.
10. Фельдер Р.М. Продольное исследование успеваемости и удержания студентов инженерных специальностей. // Инженерное образование. 2005, 84 (4), -С. 361-367.
11. Парковер Дж.А. и Маккуэн Р.Х. Открытие подхода к обучению инженерному проектированию. // Журнал профессиональных вопросов инженерного образования и практики, ASCE 2005, 121 (4), -С. 236-241.

РЕЗЮМЕ. Мақолада Шимолий Америка академик олимларининг муҳандислик фанларини ўқитишда кейс методидан фойдаланиш бўйича илмий адабиётлари кўриб чиқилган. Усулни бизнес ёки юридик таълимда қўлланиладиганларга нисбатан қўллашнинг ўзига хос хусусиятлари кўрсатилган. Қурилиш йўналиши бўйича талабаларни тайёрлашда бу усулни янада кенгрок қўллаш мақсадга мувофиқдир.

РЕЗЮМЕ. В статье сделан обзор научной литературы североамериканских ученых-педагогов по применению кейс-метода в преподавании инженерных дисциплин. Показаны отличительные особенности использования метода по сравнению с применяемыми в бизнес или юридическом образовании. Имеется необходимость более широкого применения данного метода при подготовке студентов направления гражданского строительства.

SUMMARY. The article provides an overview of the scientific literature of North American scientists and educators on the application of the case method in teaching engineering disciplines. The distinctive features of using the method in comparison with those used in business or legal education are shown. There is a need for a wider application of this method in the preparation of students in the field of civil engineering.

CHEKLANGAN MULTIMEDIA VOSITALARI BILAN O'QITISHNI TASHKIL QILISH

H.F.Xursandov – *assistant o'qituvchi*

M.A.Ahtamqulov – *assistant o'qituvchi*

L.N.Ilashova – *talaba*

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali

Tayanch soʻzlar: ta'lim texnologiyalari, multimedia, mediasavodxonlik, multimedia texnologiyalari, o'quv jarayonining axborot bazasi, bilimlarni vizuallashtirish, interfaol interfeys, ko'rgazmali materiallar namoyishi, Google Forms, ijodiy fikrlash, elektron ta'lim tizimlari.

Ключевые слова: образовательные технологии, мультимедиа, медиаграмотность, мультимедийные технологии, информационная база образовательного процесса, визуализация знаний, интерактивный интерфейс, представление визуальных материалов, Google Forms, креативное мышление, электронные системы образования.

Key words: educational technologies, multimedia, media literacy, multimedia technologies, information base of the educational process, knowledge visualization, interactive interface, display of visual materials, creative thinking, electronic educational systems.

Kirish. Ta'lim uchun interfaol multimedaning asosiy qo'llanilishi o'quvchiga materialni o'z zamonida va individual qiziqishlari, ehtiyojlari va kognitiv jarayonlariga muvofiq ko'rish uchun nazorat qilinadigan o'quv sharoitidir. Interfaol multimedaning asosiy maqsadi o'qituvchini almashtirish emas, balki o'qituvchi rolini butunlay o'zgartirishdir. Shunday qilib, multimedia juda yaxshi ishlab chiqilgan va eng yaxshi o'qituvchiga taqlid qilish uchun yetarlicha murakkab bo'lishi kerak, uning dizaynida kognitiv jarayonlarning turli elementlari va texnologiyaning eng yaxshi sifatini birlashtiradi. Cheklangan multimedia o'quv dasturlari bilan, dastur mos ravishda ishlab chiqilgan va tuzilganidan so'ng, u moslashuvchan bo'lishi va o'zgarishlarga imkon berishi kerak. Multimedia vosita sifatida amaliy ta'limning o'rini bosa olmasa-da, dars davomidagi faoliyatning ta'sirini kuchaytirishi mumkin. Biz o'quvchilarimizni jalb qilish va ilmiy tushunchalarni samarali namoyish etish hamda mediasavodxonlik texnologiyalarini mustahkamlash uchun podkastlar, bloglar, video va audio oqimlari kabi yangi axborot vositalaridan foydalanishimiz mumkin. Shuningdek, biz talabalarni fotosuratlar almashish, video nashr qilish va xaritalar yaratish dasturlari kabi raqamli media vositalari bilan jalb qilishimiz mumkin, bu ularga o'z mazmunini yaratish orqali savodxonlik ko'nikmalarini mustahkamlash va konsepsiyani o'zlashtirishlarini namoyish qilish imkoniyatini beradi. Bugungi kunda deyarli har bir universitet an'anaviy ta'limni yaxshilash va targ'ib qilish uchun Internet yoki raqamli ommaviy axborot vositalari tomonidan taqdim etilgan imkoniyatlardan foydalanish strategiyasiga ega ekanligini da'vo qilmoqda. 1990-yillarning o'rtalarida World Wide Web paydo bo'lishi bilan "e-learning" atamasi paydo bo'ldi va shov-shuvga sabab bo'ldi. Ba'zilar ta'lim muhitidagi keskin o'zgarishlarni yoki umuman an'anaviy ta'limning tugashini bashorat qilishdi. Ko'rinishidan, multimedia texnologiyasi qanday qilib o'rganishni yanada qiziqarli qilishi mumkinligi haqidagi savol hali ham ochiq savol bo'lib qolmoqda.

Cheklangan multimedia nima? Multimedia atamasi bugungi kunda ta'lim texnologiyalari mutaxassislari orasida tez-tez qo'llaniladi va muhokama qilinadi. Aniq ta'rif bo'lmasa-da, bu atama muqobil ravishda "matn, audio va video kabi turli xil ommaviy axborot vositalarining ataylab

kombinatsiyasi" degan ma'noni anglatishi mumkin yoki ommaviy ishlab chiqariladigan, lekin hali ham foydalanishni shaxsiylashtiradigan kompyuter uskunlari va dasturiy ta'minot paketlarini ishlab chiqishga ishora qilishi mumkin.

Cheklangan multimedia vositalaridan foydalangan holda o'qitishni tashkil etishda mavjudlik o'quv materiallari va usullarining turli qobiliyat va ehtiyojlarga ega bo'lgan shaxslarni hisobga olgan holda ishlab chiqilganligini va yetkazib berilishini ta'minlashni anglatadi. Cheklangan multimedia vositalaridan foydalangan holda o'qitishni tashkil etishda ta'lim tamoyillarini integratsiyalashtirgan holda, o'qituvchilar barcha ishtirokchilar mazmun bilan to'liq shug'ullanishi va o'z ta'lim maqsadlariga erishishi mumkin bo'lgan interfaol ta'lim muhitini yaratishi mumkin.

Ta'lim texnologiyasi. Ta'lim texnologiyasi – bu tegishli texnologik jarayonlar va resurslarni yaratish, ulardan foydalanish va boshqarish orqali o'rganishni osonlashtirish va yutuqlarni oshirishni o'rganish va axloqiy amaliyotdir. Bu eng sodda va qoniqarli tarzda o'quvchiga yo'naltirilgan ta'limda foydali bo'lishi mumkin bo'lgan vositalar to'plami sifatida tavsiflanadi. U o'qituvchining "sahnadagi donishmand" emas, "yo'lboshlovchi" bo'lishini targ'ib qiladi. Ta'lim texnologiyasi "o'quv texnologiyasi" deb ham ataladi, asosan o'qitish va o'qitish jarayonida texnologiyadan foydalanishni o'z ichiga oladi. Bu yerda fan texnologiyasi nafaqat noutbuklar, interfaol doskalar, smartfonlar, Internet, Wi-Fi, YouTube va boshqalar kabi eng yangi vositalar va texnologiyalardan foydalanishni o'z ichiga olmaydi, garchi ular o'z bilim salohiyati tufayli bugungi kun talabalari tomonidan ommaviy ravishda afzal ko'rilmogda.

Multimedia taqdimotlar yaratish uchun kuchli vosita bo'lishdan tashqari, o'ziga xos ta'lim afzalliklarini taqdim etadi, shuningdek, talabalarga o'z mavzularini bilvosita o'rganish yo'lini taqdim etish imkonini beradi. Ushbu tajribani taqdim etishning kaliti ketma-ket emas, balki grafik, video va audiodan bir vaqtning o'zida foydalanishdir. Texnologiya ta'limni rag'batlantirishi shart emas. Bu rol talabalarining ta'lim ehtiyojlariga tegishli. Multimedia yordamida o'quv jarayoni yanada maqsadga yo'naltirilgan, faolroq, vaqt va makonda moslashuvchan, masofadan mustaqil va individual ta'lim uslublariga moslashtirilgan bo'lishi, o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishi mumkin. Multimediya yordamida ma'lumotni

yanada samaraliroq yetkazish va u o'quv ma'lumotlarini yetkazish uchun samarali o'qitish vositasi bo'lishi mumkin, chunki u o'qituvchiga ma'lumotlarni turli xil ommaviy axborot vositalarida taqdim etish imkonini beradi.

Texnologiya atrofimizdagi dunyoni o'zgartirishda davom etmoqda. Akademik dunyo ham bundan mustasno emas. Butun dunyodagi talabalar va o'qituvchilar o'rganishni yanada dinamik, davomiy va sinfdan tashqari dunyoda ham qo'llash uchun qiziqarli va innovatsion usullarni kashf qilmoqdalar.


Pedagogik dasturiy vositalar – kompyuter texnologiyalari yordamida o'quv jarayonini qisman yoki to'liq avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan didaktik vosita hisoblanadi. Ular ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishning istiqbolli shakllaridan biri hisoblanib, zamonaviy texnologiyalarning o'qitish vositasi sifatida ishlatiladi. Pedagogik dasturiy vositalar tarkibiga: o'quv fani bo'yicha aniq didaktik maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan dasturiy mahsulot (dasturlar majmuasi), texnik va metodik ta'minot, qo'shimcha yordamchi vositalar kiradi [1].

Axborot texnologiyalari fanini o'qitishda innovatsion metodlardan foydalanish muhimdir. Dars davomida, albatta, talabalarning o'zlashtirishini tekshirish muhim hisoblanadi. Hozirgi kunda bulutli texnologiyalar rivojlangan bo'lib, google forms bilan turli xil so'rovlar yaratib talabalarning o'zlashtirish darajasini bilish mumkin. Quyidagi jadvalda google forms imkoniyatlari keltirilgan [2].

1-jadval

Google forms	
1.	Urinishlar sonini belgilash
2.	Savollarni aralashtirib yuborish
3.	Real vaqt rejimida kuzatish
4.	Javoblar avtomatik ravishda elektron jadvalga kiritiladi
5.	Qisqaroq URL manzillar
6.	Moslashtirilgan mavzular
7.	Shakllarni yaratishda avtomatik ravishda javob takliflarini yaratish

Talabalarni sinab ko'rish uchun multimedia vositasidan foydalanish bunga misoldir. Testlarni Google Forms multimedia vositasi yordamida yaratish mumkin. Quyida test dasturi interfeysining rasmi keltirilgan (1-rasm).



Rasm 1. Google Forms test dasturi oynasi

Testlar juda sodda va ulardan foydalanish oson yaratilgan, ular ham vizualdir va ayniqsa muhimi, ular test tugagandan so'ng natijani beradi, ya'ni talaba o'z bilimi baholanishini ko'p kutishga to'g'ri kelmaydi.

Ta'limning o'zgaruvchan roli hozirgi vaqtda multimedia texnologiyalarining integratsiyasi bilan kuchaymoqda, bu ta'limda yangi paradigma va kontentni rivojlantirishda yangi konsepsiyalarni ishlab chiqishga olib keldi. Multimedaning turli ta'lim senariylarida foydaliligini o'rganish bilan bog'liq holda, kelajakdagi tadqiqotlar uchun muhim nuqta shundan iboratki, kelgusi vaqt, albatta, hamma uchun multimedia texnologiyasining mavjudligini va'da qiladi, ammo undan foydalanish cheklangan va uning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda bo'lishi kerak. Pedagogik imtiyozlar, shuningdek, tadqiqotchilarning turli sohalari, turli nuqtayi nazarlari va turli xil protsessual usullaridan multimedaning katta qiymati. Shu sababli, multimedia hamjamiyati multimedia ta'limini yaxshilash va shuning uchun umuman o'qitish va o'rganishga yordam berish uchun turli xil kelib chiqishi bo'lgan barcha tadqiqotchilar va o'qituvchilarni birlashtirish uchun ideal platforma hisoblanadi.

Xulosa. Cheklangan multimedia vositalaridan foydalangan holda o'qitishni tashkil etish kerakli ta'lim natijalariga erishishda mavjud multimedia resurslaridan samarali foydalanish uchun o'quv dasturini tuzishni o'z ichiga oladi. Ushbu yondashuv cheklangan multimedia vositalarining cheklovlarini tan oladi va strategik rejalashtirish va resurslarni taqsimlash orqali ularning ta'sirini maksimal darajada oshirishga qaratilgan. Umuman olganda, cheklangan multimedia vositalaridan foydalangan holda o'qitishni tashkil etish mavjud resurslardan samarali foydalanish va ishtirokchilar uchun mazmunli o'rganish tajribasini yaratish uchun o'ylangan va strategik yondashuvni o'z ichiga oladi.

Adabiyotlar

1. Fayzillo o'g'li X.H. Ta'lim jarayonida turli xil dasturiy vositalarning qo'llanilishi. Miasto Przyszłości, 36, 441–444-6.
2. Azizkulov B., Xursandov H. & Meliboyev I. Axborot texnologiyalari fanini samarali o'qitishda innovatsion metodlardan foydalanish. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 515–517. Retrieved from.

REZYUME. Zamonaviy o'quv jarayonini multimedia texnologiyalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Multimedia texnologiyasi o'qituvchilar, talabalar va o'quv dasturlari o'rtasidagi o'zaro ta'sirni kuchaytirish va o'rganishni yanada dinamik, davomiy va sinfdan tashqari dunyoda qo'llashning innovatsion usullari orqali ta'lim tajribasini oshiradi. Maqolada o'quv jarayonida multimedia texnologiyalari tushunchasi muhokama qilingan.

РЕЗЮМЕ. Современный образовательный процесс невозможно представить без мультимедийных технологий. Мультимедийные технологии расширяют образовательный опыт благодаря инновационным способам улучшения взаимодействия между учителями, учениками и учебной программой, а также применения обучения в более динамичном, непрерывном и внеклассном мире. В статье рассматривается понятие мультимедийных технологий в образовательном процессе.

SUMMARY. The modern educational process cannot be imagined without multimedia technologies. Multimedia technologies enhance the educational experience through innovative ways to improve interactions between teachers, students and the curriculum, and to apply learning to a more dynamic, continuous and extra-curricular world. The article discusses the concept of multimedia technologies in the educational process.

INFORMATIKA HÁM IT PÁNINDE JOYBAR METODÍNAN PAYDALANÍWDÍŇ ZÁRÚRLIGI

Z.K.Ilyasova – *pedagogika ilimleri boyınsha filosofiya doktori, docent*

Ajiniyaz atındaǵı Nókis mámleketlik pedagogikalıq instituti

Tayanch so'zlar: bilim, ko'nikma, IT savodxonlik, "subyek-obyekt", "subyekt-subyekt", loyiha metodi, loyihalashtirish, virtual jarayonlar.

Ключевые слова: знания, навыки, IT грамотность, "субъект-объект", "субъект-субъект", метод проекта, проектирование, виртуальные процессы.

Key words: knowledge, skills, IT literacy, "subject-object", "subject-subject", project method, Design, virtual processes.

Mámleketimizde pán, tálim-tárbiya hám islep shıǵarıw integraciyasın támiyinlew, bilimlendiriw sistemasın rawajlandırıw, materiallıq-tehnikalıq bazasın bekkemlew, oqıtıw formaları hám mazmunın jetilistiriw boyınsha alıp barılıp atırǵan reformalar oqıw procesinde aldınǵı pedagogikalıq texnologiyalardı engiziw imkánıyatların keńeytpekte. Bilimlendiriwdiń natıyjeliligini arttırıw hám tálim alıwshılardı bilimlerdi tolıq iyelewine erisiw, shaxstń tálim orayında bolıwı hám olarda erkin pikirlew qábiletin qalıplestiriw ushın tálim procesinde innovaciyalıq tálim texnologiyaların qollaw arqalı ámelge asırıladı. Bilim beriw usılı, tálimiy maqsetti ámelge asırıw boyınsha tálim beriwshi hám tálim alıwshi menen birge islesiw iskerliginiń quramalı procesiniń tiykarı esaplanadı [1].

Ulıwma bilim beriw orta mekteplerinde Informatika hám informaciyalıq texnologiyalar (IT) pánin oqıtıwda búgingi kúnniń aktual talapları, sabaqlardı jańa pedagogikalıq texnologiyalar yaǵnıy joybarlastırıw tiykarında shólkemlestiriw talabı qoyılıp atr. Onnan maqset oqıwshılarda gárezsiz, erkin pikirlew qalıplestiriw, sabaq juwmaǵında kerı baylanısqa, kepillengen nátiyjege erisiw hám "subyek-obyekt" múnasibetlerin "subekt-subekt" múnasibetlerine aylandırıw bolıp tabıladı. Bul processti jáne de nátiyjeli ámelge asırıwda joybar metodınan maqsetke muwapıq orınlı paydalanıw tálim natıyjeliligini asıradı.

Joybar islep shıǵıw jeke tártipte yamasa toparlarda alıp barılıwı múmkin, bul oqıwshılardıń individual, juplıq yamasa kishi toparlarda belgilengen waqıt dawamında, belgilengen modul boyınsha informaciya jıynaw, izertlew hám ámelge asırıw jumsların alıp barıwı esaplanadı. Toparlar iskerligi belgili bir oqıw maqsetlerine erisiwge qaratılǵan. Toparlar wazıypalardı sheshiw, túrli joybarlardı ámelge asırıw, jetiskenliklerin kórsetiw ushın juwapker bolıp tabıladı. Bilim alıwshılar rejelestiriw, qarar qabıl etiw, ámelge asırıw, tekseriw hám juwmaq shıǵarıw hám nátiyjelerdi bahalaw processlerinde qatnasadı. Hár joybar oqıw toparınıń birgeliktegi iskerliginiń muwapıqlastırılǵan nátiyjesi bolıp tabıladı.

Joybar metodı bilim alıw, úyreniw procesi qorshaǵan ortalıqtan paydalanıwdı názerde tutadı. Bundaǵı tiykarǵı maqset hár bir oqıwshını dóretiwshilik penen úyreniw procesine tartıwdan ibarat. Úyreniw processi nátiyjeli bolıwı, yaǵnıy oqıwshılar ne ushın kerekligin, olardan qanday turmıslıq mashqalalardı sheshiwde paydalana alıwın biliwı kerek [2].

Sońǵı waqıtları ulıwma bilim beriw orta mekteplerinde Informatika hám IT páni shet el tájiriybesi (Cambridge texnologiyası) tiykarında islep shıǵılǵan dástúr tiykarında oqıtılmaqta. Bunda sabaqta oqıwshılardıń ámeliy iskerliginiń ústin turatúǵınlıǵına áhmiyet beriwimiz kerek, sebebi bul arqalı oqıwshıda pán boyınsha tiykarǵı bilim hám kónikpeler payda boladı. Bul mashqalanı sheshiwde ideal qurallardıń biri joybar metodınan paydalanıw maqsetke muwapıq.

Degen menen, oqıw procesinde joybar metodınan paydalanıw dástúriy metodqa salıstırǵanda ele ádewir arqada qalǵan. Bunıń sebebi oqıtıwshılardıń bul alternativ metodtı paydalanıw ózgeshiliklerin tolıq yamasa óz waqtında ólestirmegenligi hám oqıwshılardıń bilim dárejesiniń hár túrliligi, olardıń óz betinshe pikir júritiwge, ózin ózi qadaǵalawǵa, ózi úyreniwge uqıpsızılıǵı sebepli qıynshılıqlar tuwdıradı. Joybar jumısı dawamında

oqıwshılardıń rawajlanıwı ushın sharayat jaratıp beriw hám joybar ústinde islep atırǵan oqıwshılardıń óz betinshe jumıs isley alıw dárejeleri de eń qıyın mashqalalardan. Joybar topar aldında qoyılǵan qaysı mäseleni oqıtıwshi sheshiwı kerek, al qaysı mäseleni oqıwshılardıń ózleri sheshiwı kerek, al qaysı birin birge sheshiwge boladı? Bul sorawlarǵa tayar juwap joq. Sonlıqtan, joybar jumısın shólkemlestiriwde birinshi orında oqıtıwshıdan joybar metodın oqıw procesinde paydalanıwdıń tiykarǵı teoriyalıq hám ámeliy tiykarların tolıq izertlep shıǵıwdı talap etedi.

Informatika hám IT sabaǵında oqıwshılardıń óz betinshe isley alıw dárejesi kóplegen faktorlarǵa baylanıslı: olardıń jası hám jeke ózgesheliginen baslap, aldınǵı proekt jumslarındaǵı tájiriybesi, proektte sheshiliwge qoyılǵan mashqalanıń qıynlıǵı, IT boyınsha kónlikpesi, toparda óz-ara túsinisiw dárejesi h.t.b.

Informatika hám IT páninde hár qanday joybarlardı ámelge asırıwdıń anıq basqıshların óz ishine aladı, olar joybar jumısınıń maksimal natıyjeliligine erisiw ushın anıq rejelestiriliwı kerek.

I-basqısh. Shólkemlestiriw.

II-basqısh. Kelesi joybarlastırıwdıń tiykarǵı ideyasın tańlaw hám talqılaw. Ol maqset hám wazıypalardı anıqlawdı, maqsetlerge erisiw strategiyasın talqılawdı hám joybardı jetilistiriwı óz ishine aladı.

III-basqısh. Stilistik táreplerdi talqılaw hám oqıwshılar jumısın sabaqta hám sabaqtan tısqarı waqıtta shólkemlestiriw.

IV-basqısh. Arnawlı bir oqıwshılar toparları ushın kishi tapsırmalardı ajratıp kórsetiw menen joybardı dúziw, kerekli materiallardı tańlaw.

V-basqısh. Tiykarǵı joybar ústinde islew.

VI-basqısh. Juwmaqlaw.

Informatika hám IT páninde joybar metodında tómendegi qurallardan paydalanamız:

